

J. Annayev

# JAHON ARXEOLOGIIYASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**J. T. ANNAYEV**

# **JAHON ARXELOGIYASI**

*O'quv qo'llanma  
5120400-Arxeologiya yo'nalishi talabalari uchun*

**Toshkent  
"Innovatsiya-Ziyo"  
2020**

UDK: 902.6

BBK: 63.4

A 60

**J. T. Annayev.**

**Jahon arxeologiyasi /o'quv qo'llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 116 bet.**

*Ushbu qo'llanma arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi, moddiy manbalar, yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar, arxeologik tadqiqot usullari, arxeologik madaniyat, madaniy qatlam, arxeologik davrlar, arxeologik davrlashtirish va xronologiya, ilk paleolit, Afrika insoniyatning eng qadimgi vakillari shakllangan hudud sifatida, ibtidoiy diniy qarashlarning shakllanishi kabi tushunchalar va bilimlar ahamiyatini ochib beradi.*

**Mas'ul muharrir:**

**A. S. Sagdullayev** — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, t.f.doktori,

**Taqrizchilar:**

**R. E.Holiqova** — Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “O'zbekiston tarixi” kafedrası mudiri, professor

**F.B.Ochildiyev** — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti “Arxeologiya” kafedrası mudiri, t.f.nomzodi, dotsent

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6793-6-8



© J. T. Annayev, 2020.  
© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

## SO‘Z BOSHI

Ushbu qo‘llanma arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi, moddiy manbalar, yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar, arxeologik tadqiqot usullari, arxeologik madaniyat, madaniy qatlam, arxeologik davrlar, arxeologik davrlashtirish va xronologiya, ilk paleolit, Afrika insoniyatning eng qadimgi vakillari shakllangan hudud sifatida. Insoniyatning eng qadimgi vakillari shakllanishi shart-sharoitlari, ashel davri kishilarining Osiyo va Yevropa hududi bo‘ylab keng tarqalishi; Yaqin Sharq, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq quyi paleoliti, ashel davri kishilari xo‘jaligi va moddiy madaniyati, muste davri va uning xususiyatlari, so‘nggi paleolit, antropogenez jarayonining tugallanishi, Afrika, Yaqin Sharq, Yevropa, Janubiy Osiyo va Uzoq Sharqning yuqori paleolit davri asosiy manzilgohlari, so‘nggi paleolit davrida sun‘iy uy-joylarning paydo bo‘lishi, ijtimoiy munosabatlar, ibtidoiy diniy qarashlarning shakllanishi, Klekton madaniyati. Yuqori paleolit davri-Madlen madaniyati. Fransiya, Ispaniya, Shveysariya, Belgiya, Germaniya. Badegul madaniyati. Orinyak madaniyati. Fransiyaning (Yuqori Garonna departamenti) Orinyak (Aurignac) g‘ori. Miloddan avvalgi XVIII-XIX ming yilliklar. Solyutre madaniyati. Fransiya va Shimoliy Ispaniya. Grimaldi madaniyati. Altamira–Ispaniyadagi yuqori paleolit davri yodgorligi. Altamir suratlari. Shimoliy Italiya va Skandinaviya. Lasko yoki Lyasko g‘ori. Mezolit davri, mezolit davrida flora va faunadagi o‘zgarishlar. Yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish. O‘zlashtiruvchi xo‘jalik shaklining rivojlanishi va uning ishlab chiqaruvchi xo‘jaligining shakllanishidagi ahamiyati, moddiy madaniyat, mikrolitlar, Yaqin va O‘rta Sharq mezoliti, Natufiy madaniyati, Falastin va Suriya, mezolit suratlari, Janubiy-Sharqiy Osiyoning mezoneolit madaniyatlari, Mo‘g‘uliston mezoliti, Xitoy mezoliti, tosh qurollar tayyorlashning mezolit davri texnikasi, mikrolit tosh qurollar, Afrika mezoliti, Tardenuaz madaniyati - G‘arbiy Yevropaning miloddan avvalgi VII-IV ming yilliklar mezolit

davri madaniyati. Kongemoze madaniyati (mil. avv. 6000-5200-ming yilliklar) - Skandinaviyaning janubidagi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar madaniyati. Nyostvet va Lixult madaniyatlari. Fosna (Fosna), Komsa (Komsa) va Askola (Askola) madaniyatlari. Maglemoze madaniyati. Fransiya. Azil madaniyati. Suomusyarvi madaniyati. Finlandiya. Svidersk madaniyati. Sovtersk madaniyati, Nabta-Playya kabi tushunchalar va bilimlar ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlarini o'rganish va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

# I BOB. ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR TARIXIDAN

## 1-MAVZU. KIRISH

### Reja:

1. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi.
2. Arxeologik tadqiqotlar tarixi.

**Tayanch iboralar.** Arxeologiya, ibtidoiy madaniyat, Yangi Babil hukmdori Nabonid, Aflotun, antiquitates-qadimiyot termini, "antiquaries" - antikvariylar, Xristian Gottlib Geyne, Radiokarbon usuli, Arxeologik tadqiqotlar tarixi, geologlar.

**1.1** Arxeologiya termini 2 ta yunoncha so'z "arxayos"-qadimgi va "logos"-fanlardan tashkil topgan bo'lib, o'tmish haqidagi fan degan ma'noni anglatadi. Arxeologiya fani gumanitar fanlar ichida eng yosh fan bo'lishiga qaramasdan, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Yozma manbalarga ko'ra miloddan avvalgi VI asrda Yangi Babil hukmdori Nabonid, (ba'zi manbalarga ko'ra, Nabonagid, Nabunaid) qadimgi ibodatxona va saroylar fundamentida qazishma ishlarini olib borgan. Hozirgi kunda Britaniya muzeyida u tomonidan Sipparda joylashgan qadimgi ibodatxona asosidan topilgan yozuvli prizma saqlanmoqda. Biroq yozma manbalar Nabonid nima maqsadda qazishma ishlarini olib borganligi haqida ma'lumot berishmaydi. U xarranlik bo'lishi bilan bir qatorda nafaqat qazishma ishlarini olib borgan, balki ko'plab qurilish ishlarini amalga oshirishgan. Ehtimol, u bu qazishma ishlari bilan o'zining binokorlik sohasida olib borayotgan siyosatini asoslovchi ma'lum bir isbotlar izlashga xarakat qilgan bo'lsa, ajabmas. Nima bo'lgan taqdirda ham u afsonalar emas, balki moddiy manbalarga asoslangan holda o'tmishni tiriltirgan. Arxeologiya termini birinchi marotaba Aflotunning "Gippiy" asarida qo'llaniladi. U bu termin orqali "o'tmishdagi voqea va hodisalar haqida ma'lumot berish" ni tushungan. Arxeologiya terminini xuddi shunday

davri madaniyati. Kongemoze madaniyati (mil. avv. 6000-5200-ming yilliklar) - Skandinaviyaning janubidagi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar madaniyati. Nyostvet va Lixult madaniyatlari. Fosna (Fosna), Komsa (Komsa) va Askola (Askola) madaniyatlari. Maglemoze madaniyati. Fransiya. Azil madaniyati. Suomusyarvi madaniyati. Finlandiya. Svidersk madaniyati. Sovtersk madaniyati, Nabta-Playya kabi tushunchalar va bilimlar ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlarini o'rganish va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

# I BOB. ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR TARIXIDAN

## 1-MAVZU. KIRISH

### Reja:

1. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi.
2. Arxeologik tadqiqotlar tarixi.

**Tayanch iboralar.** Arxeologiya, ibtidoiy madaniyat, Yangi Babil hukmdori Nabonid, Aflotun, antiqitates-qadimiyot termini, "antiquaries" - antikvari, Xristian Gottlib Geyne, Radiokarbon usuli, Arxeologik tadqiqotlar tarixi, geologlar.

1.1 Arxeologiya termini 2 ta yunoncha so'z "arxayos"-qadimgi va "logos"-fanlardan tashkil topgan bo'lib, o'tmish haqidagi fan degan ma'noni anglatadi. Arxeologiya fani gumanitar fanlar ichida eng yosh fan bo'lishiga qaramasdan, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Yozma manbalarga ko'ra miloddan avvalgi VI asrda Yangi Babil hukmdori Nabonid, (ba'zi manbalarga ko'ra, Nabonagid, Nabunaid) qadimgi ibodatxona va saroylar fundamentida qazishma ishlarini olib borgan. Hozirgi kunda Britaniya muzeyida u tomonidan Sipparda joylashgan qadimgi ibodatxona asosidan topilgan yozuvli prizma saqlanmoqda. Biroq yozma manbalar Nabonid nima maqsadda qazishma ishlarini olib borganligi haqida ma'lumot berishmaydi. U xarranlik bo'lishi bilan bir qatorda nafaqat qazishma ishlarini olib borgan, balki ko'plab qurilish ishlarini amalga oshirishgan. Ehtimol, u bu qazishma ishlari bilan o'zining binokorlik sohasida olib borayotgan siyosatini asoslovchi ma'lum bir isbotlar izlashga xarakat qilgan bo'lsa, ajabmas. Nima bo'lgan taqdirda ham u afsonalar emas, balki moddiy manbalarga asoslangan holda o'tmishni tiriltirgan. Arxeologiya termini birinchi marotaba Aflotunning "Gippiy" asarida qo'llaniladi. U bu termin orqali "o'tmishdagi voqea va hodisalar haqida ma'lumot berish" ni tushungan. Arxeologiya terminini xuddi shunday



ma'noda boshqa bir yunonlik olim, faylasuf Diador ham o'z asarida qo'llaydi. Rimlik mualliflar esa yunoncha arxeologiya termini o'rnida antiquitates-qadimiyot terminini qo'llashadi. Shu soha vakillarini esa «antiquaries» - antikvariylar, ya'ni qadimiy topilmalar xavaskorlari deya atashadi. O'rta asrlarda esa antikvariylar deb qadimgi qo'lyozmalarni ko'chiruvchilarni tushunishgan. Yevropa Uyg'onish davrida esa antikvariylar deb antik davri san'at namunalarini (ayniqsa, yunon va rim davri) tadqiq etuvchi, kolleksiyasi bilan shug'ullanuvchi kishilarni tushunishgan. 1767-yilda Gettingen universiteti professori Xristian Gottlib Geyne arxeologiya terminini qayta tiklaydi. Biroq X.G.Geyne ham arxeologiya termini asosida antik davri yodgorliklari tavsifi va klassifikatsiyasini tushungan. XIX asr boshlariga qadar qadimiyot bilan shug'ullanuvchi kishilarni faqatgina antik davri topilmalari qiziqtirgan va qadimgi davr topilmalarini o'rganish ularning tadqiqot doirasiga kirmagan. Arxeologiyaning fan sifatida mavjud bo'lishi borasida olimlar orasida bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, Britaniyalik olimlar arxeologiyani tarix sohasining bir qismi ekanligini ta'kidlashadi. Britaniyaning ko'pgina universitetlarida arxeologiya kursi tarix fakultetlarida o'qitiladi. Amerikalik arxeologlar esa arxeologiyani antropologiyaning bir qismi ekanligini e'tirof etishadi va shu sababli arxeologiya kurslari antropologiya fakultetlarida o'qitiladi.

**1.2** Arxeologiya tarixni inson faoliyati natijasi hisoblangan topilmalar va yodgorliklar asosida o'rganadi va yoritadi. Inson faoliyati natijasida vujudga kelgan qatlamlar esa arxeologiyada madaniy qatlam deb ataladi. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida qayd etilgan topilmalar, ya'ni moddiy madaniyat namunalari va arxeologik yodgorliklarning yoshini aniqlashda bir nechta zamonaviy usullaridan foydalaniladi. Shulardan biri Radiokarbon usuli bo'lib, ushbu usul 1946-yilda Uillard Libbi tomonidan yaratilgan. Bundan tashqari rus olimi B. A. Kolchin tomonidan yodgorliklarni davrlashtirishda yana bir yangi usul dendraxronlogiya usuli kashf etilgan. Qadimgi davrda yashagan

va tarix bilan qiziqqan ajdodlarimiz qadimgi davr yodgorliklari insoniyat o'tmishi haqida guvohlik beruvchi manba ekanligini tushunib yetishgan. Dastlab yunonlar qadimgi yodgorliklarga o'z e'tiborlarini qaratishgan va etnografik ma'lumotlarga qiziqish bildirishgan. Masalan: Gerodot o'z asarlarida Kimmeriya shoxlari qabrlari, skiflarning moddiy madaniyati, Makedoniyaning Prazias ko'lida joylashgan qadimgi manzilgohlar va Misr piramidalari haqida ma'lumotlar yozib qoldiradi. Fukididning "Arxeologiya" asarining birinchi 23 ta bobida o'tmishdan meros qolgan urf-odat, an'ana va qadimiy yodgorliklarni tahlil qilish asosida Yunonistonning qadimgi davr tarixini tiklashga uringan. Ellinizm davrida adabiyotda yangi bir soha "periegesis", ya'ni sayohatchi olimlar tomonidan qadimgi yodgorliklar mamlakatlar va shaharlar haqida ma'lumotlar, kundaliklar yozib qoldirish sohasi paydo bo'ladi. Periegetik adabiyotning tugallangan klassik manbasi sifatida Pavsaniyning (milodiy II asrda yashagan) "Eliada ta'rifi" asarini keltirib o'tishimiz mumkin. Ushbu asarda qadimgi Yunoniston hududida joylashgan yodgorliklar moddiy madaniyat namunalari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Pereegetik adabiyotning rivojlanishi natijasida qadimgi topilmalarni kolleksiya qilish jarayoni kuchayib ketdi. Straboning ma'lumot berishicha, uning davrida Korinfdagi ko'plab qabrlar talon-taroj qilingan va ulardan topilgan noyob san'at namunalari esa kolleksionerlarga sotilgan. Rim imperiyasi hukmronligi davrida esa bu holatga chek qo'yilgan. Yevropaning uyg'onish davrida antik davri bilan shug'ullanish Yevropa jamiyatining katta qismini o'ziga jalb etgan. Bu davr kolleksionerlari antik davri falsafasi va adabiyoti hamda san'at namunalarni to'plash bilan shug'ullanishgan. 1347-yilda Rim Respublikasini boshqargan Kola di Rientso Italiya birligini tiklashda lotin yozuvlari, yodgorliklari va topilmalari muhim o'ringa ega deb hisoblagan va buning natijasida Rim Respublikasining birinchi navbatda o'tkazgan tadbiri bu Rimning antik davri yodgorliklarini muxofaza etish bo'lgan. XV asrda sayohatchi va qadimgi topilmalar havaskori bo'lgan Kiriako Ankonskiy Gretsiya,

Makedoniya, Kichik Osiyo davlatlarini aylanib chiqqan, Suriya, Falastin va Misrda bo'lib, u yerdagi qadimgi yozuvlarni ko'chirgan, inshootlar suratlarini chizgan va topilmalarni yiqqan. Uning "qadimgi buyumlar haqida ma'lumotlar" kundaligi arxeologiya va etnologiya haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ib, bu bilimlarning ziyolilar jamiyatida ommalashtirishda, yoyishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. XV va ayniqsa, XVI asrda Italiyada qadimgi davr topilmalarini kolleksiya qilish juda kuchayib ketgan. Bunga papalar Sikst IV va Yuliy II lar katta hissa qo'shishgan. Ular yerlarga ishlov berish jarayonida ko'plab topilgan topilmalarni yig'ishga harakat qilishgan. Keyinchalik esa maxsus qazishma ishlari amalga oshirilgan. 1506-yilda papa Yuliy II Belvedyerda, ya'ni Vatikan saroyida antik davri haykallari uchun maxsus xovli barpo ettirgan. 1515-yilda Lev X qazishmalar jarayonida topilgan har bir buyumni papa hukumatiga ko'rsatish lozimligi to'g'risida dekret qabul qilgan. Papa Pavel III qadimgi buyumlar komissariatini tashkil etgan va Karakallada maxsus qazishma ishlarini olib borgan. Sayroy ayonlari va hukumatning boshqa vakillarini undan namuna olishgan. Noyob qadimgi davr buyumlarini yiqqan oxirgi papa Yuliy III 1555-yilda vafot etadi va fan hamda san'atni ta'qib etish boshlanadi. Antik davri buyumlari esa nopok deya e'lon qilinadi. Biroq bu davrga kelib antik davri buyumlarini yig'ish va o'rganish Italiya hududidan chiqib butun Yevropaga va ayniqsa, Fransiyaga yoyilgan edi. XVIII asrda rim davri buyumlarini kolleksiya qilish ishlari nafaqat Rimda, balki Venetsiya, Parij, Madrid, Myunxen, Pragada ham olib borilgan. Biroq XVIII asrga qadar olib borilgan ushbu ishlarni arxeologiya deb atab bo'lmaydi. Arxeologik topilmalarni tizimlashtirish borasidagi dastlabki harakatlar arxeologiya fanidan alohida fan sifatida ajralib chiqishga xarakat qilgan etnografiyada amalga oshirilgan. 1603-yilda Geydelberglik professor, golland Gruter asosan lotin yozuvlarini o'z ichiga olgan 12 mingdan ortiq yozuvlardan iborat to'plamni nashr ettiradi. Yakob Grenovius esa 1699-1702-yillarda yunon qadimiyotlari, yozuvlari va san'at namunalaridan iborat

entsiklopediyani nashr ettirgan. Olimlar ichidan birinchilardan bo'lib, Fransiyalik Klod Peyresk (1580-1637-yy.) topilmalarni har tomonlama o'rganishga, me'moriy yodgorliklarni aniq o'lchamlarini olish va haykaltaroshlik mahsulotlarining gips maketlarini yaratishga urg'u bergan. Peyresk fanda sezilarli iz qoldirmagan, biroq u va uning agentlari tomonidan dunyoning bir nechta mamlakatlarida 10 ta tomdan iborat asarining 7 ta tomi nashr etiladi va nashrlarda biz uning nafaqat oddiygina xavaskor, balki buyuk olim bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Lionlik vrach va antikvariylar Jak Spon (1647-1685-yy) antik davri buyumlari va san'at namunalarni o'z asarlarida yoritishda ilmiy yondashuvga asoslangan va bu topilmalarni klassifikatsiya qilishga harakat qilgan. Bernard de Monfokon (1655-1741-yy.) ko'plab olimlar asarlarini nashr etgan. U tomonidan nashr etilgan asarlar ichida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan asar bu 15 tomdan "suratlarda tasvirlangan va ta'riflangan qadimiyotlar" deb nomlangan bo'lib, 1719-yilda 10 tomdan iborat birinchi asari nashr yuzini ko'radi. Manfokon ushbu asarida tarqoq holda bo'lgan barcha antikvar buyumlarni birlashtirgan, turli mamlakatlardagi antikvarlar tadqiqotlari natijalarini umumlashtirgan va birinchi marotaba yunon hamda rim qadimiyotlarini bir yaxlit holda ko'rsatishga erishgan. 1711-yilda Gerkulanum va 1748-yilda esa Pompeyda qazishma ishlari amalga oshirilgan. Dastlab, bu yodgorliklarda amalga oshirgan qazishma ishlari yodgorliklarni talon-taroj etish va buzish xarakterida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik esa aynan mana shu yodgorliklardagi qazishma ishlarini tizimlashtirishga alohida e'tibor berilgan. XVIII asrda klassik arxeologiyaning taraqqiy etishiga ikki olim graf Kelyus va Iogaan Vinkelmanlar katta hissa qo'shganlar. Kelyusning "Misr, etrusk, yunon va rim qadimiyotlari to'plami" nomli 7 tomdan iborat asarida qadimgi davr topilmalari klassifikatsiyasi ishlari amalga oshirilgan. Epigrafika va umuman olganda, antik davri topilmalari bilan shug'ullanish Angliyada tez tarqalgan. XVII asrda Bukingem gertsogi, graf Arundel va boshqa a'yonlar tomonidan qadimgi

davr topilmalirini kolleksiya qilish ishlari amalga oshirilgan. Karl I o'zi ham qadimgi davr san'at namunalarini yiqqan va qadimgi topilmalarni o'rganish davlat manfaatlari uchun xizmat qiladi farmon chiqargan. XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada klassik, ayniqsa, yunon davri topilmalariga qiziqishda yangi davr boshlanadi, dastlabki ekspeditsiyalar Yunonistonga jo'natiladi. Ingliz olimlari Styuart va Revett uch yil davomida Afinada bo'lishadi va rangtasvir namunalariga ega yodgorliklar o'lchamlari va yodgorliklar haqida hisobotlar keltirilgan "Afina qadimiyotlari" deb nomlangan asarni nashr etiladi. Ioniya maxsus ekspeditsiya uyushtiriladi va R. Chendler tomonidan ushbu ekspeditsiya natijalari nashr etiladi. Inglizlar Yunoniston, Kichik Osiyo, Suriya va Falastinning boshqa qismlarida ham qazishma ishlari olib borishadi. Ingliz antikvariylari Britaniya qadimiyotlari bilan shug'ullanishgan. XVI asrdan boshlab ular qadimgi davr yodgorliklari, shu jumladan Stonxendjni o'rganisha boshlashgan. 1752-yilda Britaniyada milliy qadimiyotlarni muhofaza etish bo'yicha jamiyat tashkil etilgan, biroq bu jamiyat uzoq faoliyat olib bormadi. XVII asrda alohida grafliklar tarixi yozilgan, ularning mualliflari esa me'moriy yodgorliklar topografiyasiga alohida e'tibor berishgan. Jiddiy arxeologik qazishma ishlari boshlangan va qadimgi davr yodgorliklari ahamiyatini tushunish boshlashgan. Djon Obrey Uiltshir yodgorliklarini yoritgan va birinchilardan bo'lib, Stonxendj va Evbyuri diniy marosimlar o'tkaziladigan joy, druidlar ibodatxonasi bo'lganligini qayd etgan. Bu davrda Angliyada dastlabki ilmiy jamiyatlar tashkil etiladi. 1753-1756-yillarda esa Londonda Britaniya muzeyi tashkil etiladi. Yuqorida keltirganimizdek, dastlab, Yevropada faqatgina antik davri moddiy madaniyat namunalarini o'rganishga e'tibor berishgan bo'lsa, keyinchlik aynan Angliya misolida mahalliy itidoiy jamiyat davri moddiy madaniyat namunalarini o'rganishga e'tibor kuchayganini kuzatishimiz mumkin. Biroq kim va qachon birinchi marotaba itidoiy jamiyat davri yodgorliklariga e'tibor bergani fanda ma'lum emas. O'rta asrlar davrida qazishma

jarayonida topilgan ko'plab tosh davri qurollarini tabiat hodisalari mahsuli deb tushunishgan. Bu tosh qurollar yashin urgan vaqtida osmondan tushgan deb tushunishgan va ularni yashindan uyni himoya qiladi deb uylari ostonalariga yoki tomlariga qo'yishgan. Keyinchalik esa ba'zi olimlar bu qurollar yunonlar va rimliklar tomonidan maxsus diniy marosimlar uchun yaratilgan deb talqin qilishgan. Biroq XVI asrda frantsuz olimi Vatikandagi botanika bog'i kuzatuvchisi, vrach va minerolog Mixail Merkati bu tosh qurollar osmondan tushgan emas, balki metalni hali bilmagan ibtidoiy odamlar qurollari bo'lgan degan g'oyani ilgari suradi. Faqatgina XIX asrga kelibgina insoniyat tarixidagi tosh davri alohida bir ilmiy dotkrina qiyofasiga ega bo'lgan. Insoniyat tarixini davrlashtirish masalalari antik davrida ham amalga oshirilgan. Masalan: Qadimgi Rim faylasufi Lukretsiy Kar (mil. avv. I asr) o'zining "Buyumlar tabiati yoki xususiyati" asarida tosh qurollar mis qurollar, mis qurollar esa temir qurollar bilan o'rin almashganligi sxemasini keltirib o'tadi. XVIII asrda frantsuz faylasufi J. Kondorse insoniyat tarixini quyidagicha: baliqchilik va ovchilik hamda chorvachilik va dehqonchilik kabi davrlarga ajratishni taklif etadi. Kondorse zamondoshi Shotlandiyalik faylasuf A. Fergyuson insoniyat tarixini uchta davrga ajratib ko'rsatadi. Yovvoyilik, varvarlik va tsivilizatsiya. XIX asrda insoniyat tarixini moddiy manbalar asosida davrlashtirish harakati boshlanadi va natijada arxeologik davrlartirishning paydo bo'lishiga olib keladi. Aynan mana shu arxeologik davrlashtirish Lukretsiy fikrlarini tasdiqlaydi. Daniyalik olim K. Tomsen arxeologik materillarga tayanib insoniyat tarixidagi uch ta davrni ajratib ko'rsatadi. Tosh, bronza va temir davrlari. Fransuz arxeologi G. Mortile paleolit davrini davrlashtiradi. Shved olimi arxeolog O. Montelius esa Yevropaning neolit, bronza va ilk temir davrlarini davrlashtiradi. XIX asrning birinchi yarmida shved olimi S. Nilson quyidagi davrlarni keltrib o'tadi. Yovvoyilik, ko'chmanchilik, ko'chmanchilik va tsivilizatsiya. U bu davrlar ichida bosqichlarni ham ko'rsatib o'tadi. Masalan, yovvoyilik davriga termachilik, ovchilik va baliqchilik, ya'ni o'zlashtirma

xo'jalik, varvarlik davriga ishlab chiqaruvchi xo'jalik, ya'ni chorvachilik va dexqonchilik. Arxeologlar moddiy manbalar asosida ularning xomashyo va tayyorlanish texnikasi hisobga olib insoniyat tarixini davrlashtirishni amalga oshirishadi. Bundan tashqari geologik davrlashtirish ham mavjud.

### **1-mavzu. Nazorat savollari**

1. Jahon arxeologiyasi fanining maqsad va vazifalari.
2. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi.
3. Arxeologik tadqiqotlar tarixi.
4. Moddiy manbalar va ularga ta'rif.
5. Yozma manbalar va ularga ta'rif.
6. Arxeologik yodgorliklar va ularning turlari.
7. Arxeologik madaniyat.
8. Arxeologik tadqiqot usullari.

### **1-mavzu. Test topshiriqlari**

1. Nabonid tomonidan Sipparda joylashgan qadimgi ibodatxona asosidan topilgan yozuvli prizma qaysi davlat muzeyida joylashgan?
  - A. Fransiya
  - B. Angliya
  - C. Germaniya
  - D. Rossiya
2. Yevropa Uyg'onish davrida antikvariylar deb kimlarni tushunishgan?
  - A. Tarixchi olimlarni
  - B. Antik davri san'at namunalari bilan shug'ullanuvchilarni
  - C. Arxeolog olimlarni
  - D. San'atshunoslar
3. Gettingen universiteti professori Xristian Gottlib Geyne fan oldidagi buyuk xizmati?
  - A. Geografik kashfiyot qiladi

- B. Buyuk ipak yo'li atasini kashf etadi
- C. Troya qoldiqlarini topadi
- D. Arxeologiya atamasini qayta tiklaydi.

4. Radiokarbon – bu?

- A. Arxeologik topilmalar, ya'ni moddiy madaniyat namunalari va arxeologik yodgorliklarning yoshini aniqlash usuli
- B. O'tmish haqidagi fan degan ma'noni anglatadi.
- C. Qadimiy topilmalar xavaskorlari degan ma'noni anglatadi.
- D. O'tmishdagi voqea va xodisalar haqida ma'lumot berish degan ma'noni anglatadi

5. Fukididning "Arxeologiya" asarining nechanchi bobida o'tmishdan meros qolgan urf-odat, an'ana va qadimiy yodgorliklarni tahlil qilish asosida Yunonistonning qadimgi davr tarixini tiklashga uringan?

- A. 11
- B. 13
- C. 23
- D. 21

6. 1603-yilda Geydelberglik professor, golland Gruter necha turdagi yozuvlarni o'z ichiga olgan to'plamni nashr ettiradi?

- A. 12 mingdan ortiq yozuvlardan iborat
- B. 15 minga yaqin
- C. 150 turdagi yozuvlardan iborat
- D. 1001 turdagi yozuvlardan iborat

7. 1506-yilda kim Vatikan saroyida antik davri haykallari uchun maxsus hovli barpo ettirgan?

- A. Papa Yuliy II
- B. Papa Sikst IV
- C. Papa Pavel III
- D. Papa Iogann

8. Antropogenez?

- A. Insoning kelib chiqishi
- B. Qazish ishlari
- C. Manzilgoh
- D. Arxeologik topilmalar to'plami



9. Arxeologiya atamasini ma'nosi?

- A. Arxayos-qadimgi va logos-fan degan ma'noni anglatadi
- B. Arxeologik tadqiqot o'tkazish degan ma'noni anglatadi
- C. Arxayos-qadimgi va logos-qaziyman degan ma'noni anglatadi
- D. Arxeologik topilmalarga ishlov berish degan ma'noni anglatadi.

10. Arxeologiya atamasi ilk bora kim tomonidan qo'llanilgan?

- A. Aflotun
- B. Geradot
- C. Gipparx
- D. Arrian

## 2-MAVZU. PLEYSTOTSEN DAVRI EKOLOGIYASI

### Reja:

1. Yer shari tarixi, geologik davrlashtirish.
2. Yer yuzida vujudga kelgan muzlik davrlari va ularning ibtidoiy odamlar hayotiga ta'siri.
3. Insoniyat tarixini davrlashtirish muammolari.
4. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.

**Tayanch iboralar.** Tropik Afrika, muzlik davrlari, Yer shari qobig'i, To'rtlamchi davr pleystotsen va golotsen, kaynozoy erasi, Gyunts, mindel, Ris, Vyurm muzliklari, tosh asri.

1.1. Ilk ajdodlarmiz tomonidan dastlabki tosh quollar yaratgunga qadar Tropik Afrika, va umuman, butun dunyoda muzlik davrlariga o'tish jarayoni sodir bo'ladi. Har bir muzlik davriga o'tish jarayonida o'simlik dunyosining o'zgarishi, iqlimning keskin ravishda o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Bundan 2.5 million yil avval bunday tosh quollarni ishlab chiqargan dastlabki ajdodimiz 35-36 gradus shimoliy va janubiy kenglikda, ya'ni Afrika Hududida istiqomat etgan. Bundan 1 million avval esa Xomo Erektus tosh quollar turini

kengaytiradi va janubiy-g'arbiy va janubi-sharqiy Osiyo hududida bo'ylab tarqaladi. Bundan 100-500ming yil avval esa Janubiy, G'arbiy va Markaziy Yevropada paydo bo'ladi.

Yer shari qobig'i to'rtta asosiy davrga bo'linadi. 1. Arxey 2. Paleozoy 3. Mezozoy 4. Kaynozoy eralari. Uning ichida esa biz bosqichlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan: Kaynozoy erasi uchlamchi va to'rtlamchi davrlardan iborat. Aynan Kaynozoy erasi hozir ham davom etmoqda. Hozirgi kunda kaynozoy erasiga uchinchi bir davr, ya'ni zamonaviy deb nomlangan davr qo'shilgan. To'rtlamchi davr pleystotsen va golotsen ya'ni muzlikkacha, muzlik bosqichlari va muzlikdan keyingi bosqichlaridan iborat. Yyerda oxirgi 1 million va 500 ming yil davomida buyuk muzliklar eki o'rta muzliklar davrida bir necha unlab tsikllar sodir bo'lgan. Hozirgi kunda oxirgi muzlik davrida, ya'ni bundan 129-125 ming yil burun Yevroosiyoning markaziy qismi Sibir eki Avstraliya, shuningdek, Shimoliy hamda Janubiy Amerikaning ajdodlarmiz tomonidan o'zlashtirilganligi haqida etarli isbotlar mavjud emas. Bundan tashqari so'nggi pleystotsen davrida G'arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyoda ham ibtidoiy odamlar yashaganligi to'g'risida etarli ma'lumotlar mavjud emas. Yyerda hayot arxey davrining ikkinchi yarmida paydo bo'ladi. Uchlamchi va to'rtlamchi davrlar yer shari tarixi uchun muhim ahamiyatga egadir. Uchlamchi davrda yyerda tog'li hududlar paydo bo'ladi. Aynan mana shu bosqichda Kavkaz, Karpat, Alp, shuningdek, Himolay va Pomir tog'laridan iborat Osiyoning markaziy qismi vujudga keladi. Biz o'simlik va hayvonot dunyosida ham ma'lum bir o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Gigant o'simliklar, paporotniklar yo'qolib, ularning o'miga kichik o'simliklar paydo bo'ladi. Yyerda umurtqasimonlar hukmronligi boshlanadi.

1.2. Insoniyat paydo bo'lgan davr Yer shari tarixining kaynozoy erasi, aniqrog'i neogenning so'nggi bosqichi Eopleystotsen, pleystotsen davrlariga to'g'ri keladi. Neogen davriga insoniyatning qadimgi ajdodlari paydo bo'ladi (driopitek, ramapitek-hozirgi kunda insoniyatning ushbu ajdodlari qirilib

ketgan hisoblanadi). Eoplestotsen va pleystotsen davrlari arxeologik davrlaridan biri-paleolit davriga to'g'ri keladi. Eopleystotsen va pleystotsen davrlarida yer yuzida iqlimning keskin sovushi va muzlashi kuzatiladi. Bu yer yuzida sodir bo'lgan buyuk muzlashlarning markazlari Yevropaning shimolidagi tog'lar va Amerika hududi hisoblangan. Bu markazlardan muzlikarning janub tomonga siljishini kuzatamiz. Bu davrda buyuk muzliklar yer yuzining 30 % ni qamrab olgan edi. Bu buyuk muzliklarning siljishi natijasida Pireneya, Alp tog'lari, Kavkaz, Oltoy va Himolayda muzliklardan iborat tog'lar vujudga keladi. Ob-havo harorati noldan ko'tarilmagan va insoniyatning qadimgi ajdodlari faqatgina muzliklardan janub tomonlarda jon saqlashga majbur bo'lgan. XX asming birinchi choragida Penk va Bryukner tomonidan Alp tog'larida ketma-ketlikda mavjud bo'lgan to'rtta muzlik davrlari qayd etiladi. Bular Gyunts, mindel, Ris, Vyurm muzliklari. Yevropa, Shimoliy Osiyo va Shimoliy Amerikada eopleystotsen davri ikkita muzlik fazalari bilan xarakterlanadi. Bular Yevropa muzliklari Dunay va Gyunts bilan birga Shimoliy Amerikada Nebraska muzliklari kuzatiladi. Boriskovskiyning fikriga ko'ra, bu muzliklar davri keng hududlarga yoyilgan muzliklar emas, balki faqatgina iqlimning keskin sovushi natijasida qisqa davrda sodir bo'lgan muzliklardir. Yevropa hududi insoniyat dastlabki ajdodlarining Pleystotsendan Golotsen davriga o'tish va moslashish jarayoni kechgan turli shart-sharoitlarga ega bo'lgan hudud hisoblangan. Yevropaning ayrim qismlarida iqlimning keskin o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Eopleystotsen davri davomida Yevropa va ayniqsa, O'rta Yer dengizi havzasi hududida iqlim iliq bo'lgan. G'arbiy Yevropa, aniqrog'i, Italiya va Fransiya hududlarida villafrank fauna hukmron bo'lgan. (gippopotam, iliq havoni yoqtiruvchi fil, karkidon, bug'u, tuya, qilich tishli yo'lbars, ya'ni maxayrod, makaka istiqomat etgan.) Gyuntsdan keyin mindel muzlik davri keladi. Bu muzlik davri iqlimning keskin sovigan o'rta muzlik davri sifatida xarakterlanadi. Bu muzlik davridan so'ng Riss muzlik davri boshlanadi. Bu muzlik davri G'arbiy


Yevropada Skandinaviya yarim oroli, Danniya, Germaniyaning kattagina qismi, Angliyaning bir qismi, shuningdek, Alp va Pireneyaga tutash hududlarni qoplab olgan edi. Bu muzlik davrida issiqlikni xush ko'ruvchi hayvonlar qirilib ketadi va ularning o'rniga mamontlar paydo bo'ladi. Undan so'ng esa Vyurm muzlik davri boshlanadi. Ya'ni bundan 18 ming yil burun Markaziy Yevropa ajdodlarimiz istiqomat etishi uchun noqulay shart-sharoitlarga ega hudud hisoblangan. Bu davrda, asosan, Yevropa xududida iqlimning keskin sovushi, boshqa hududlarida esa tundra zonalarining paydo bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Yevropa xududida ibtidoiy ajdodlarimiz kamchilikni tashkil etgan va hayvonot dunyosi, asosan, mamont va karkidonlardan iborat bo'lgan.

Bundan 13,000 yil avval esa Yevropada, ya'ni shimoliy-g'arbiy qismi, ya'ni Britaniya orollaridan tortib toki Rus yerlariga qadar bo'lgan hududda iqlim keskin o'zgaradi va bu erlarda dastlabki ovchilarning paydo bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Bundan 10 ming yil avval esa oxirgi muzlik davri tugaydi va iqlim issiqlasha boshlaydi. O'simlik va hayvonot dunyosi hozirgi o'simlik va hayvonot dunyosi qiyofasiga kira boshladi. Kishilik jamiyati tarixini davrlarga bo'lmay turib o'rganish mumkin emas. Davrlashtirishda tarixiy jarayon zamon va davrlarga bo'linib, ular muhim voqealar bilan bir-biridan ajraladi. Tarixni, xususan, ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lish juda murakkab bo'lib, hali bu ilmiy jihatdan nihoyasiga etgani yo'q.

1.3. Kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishga intilish qadimgi dunyodayoq er. avv. I asrda yashagan Rim faylasufi Lukretsiy Kar o'zining «Narsalarning tabiati» nomli poemasida odamzod madaniyatining rivojlanish manzarasini, tosh qurollarning mis qurollar bilan, undan so'ng temir qurollar bilan almasha borganini dastlab tasvirlab bergan. Lekin bu fikr tezda unutib yuborilgan.

Shotlandiya filosofi A.Fergyson kishilik tarixini uch davrga: yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiyaga bo'lib o'rganishni



tavsiya qilgan. Arxeologlar ibtidoiy davr kishilaridan qolgan moddiy va madaniy buyumlarni o'rganish asosida kishilikning ibtidoiy tarixini uch davrga: tosh, bronza (jez) va temir asrlariga bo'ladilar.

Tosh asri esa o'z o'mida yana qadimgi va yangi tosh davrlariga bo'linadi. Qadimgi tosh asri qazilma odamlarning yashagan davri hisoblanadi. U vaqtda Yerning iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi hozirgidan farq qilar edi. Qadimgi tosh asri kishilari silliqlangan tosh qurollar va sopol idishlarni bilmaganlar. Ular yog'ochdan tayyorlangan so'yil va oddiy tosh qurollardan foydalanganlar.

1.4. Qadimgi tosh asri kishilari ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar, baliqchilik esa endi shakllana boshlagan bo'lib, ular dehqonchilik va chorvachilikdan mutlaqo xabarsiz edilar. Kishilik jamiyati tarixining juda katta davrini o'z ichiga qamrab olgan tosh davri ikki bosqichga: eng qadimgi (quyi, ilk) va keyingi (yuqori) tosh asrlariga bo'linadi.

Eng qadimgi tosh asri olduvay, (Ashelgacha), qadimgi ashel, keyingi va o'rta ashel hamda muste davrlariga bo'linadi. Uning eng quyi sanasi 3,5-3 mln. yuqorisi esa 100-35 ming yilga kelib taqaladi.

So'nggi paleolit esa orinyak, solyutriy va madlen davrlariga bo'linib, 40-35-ming yilliklardan 15-12-ming yilliklarga bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

So'nggi tosh asridan so'ng esa o'rta tosh-mezolit asri boshlanib, 12-15-ming yilliklar orasidagi davrni qamrab oladi.

Mezolitdan so'ng tosh asrining so'nggi bosqichi neolit-yangi tosh asri boshlanib, Yevropaning markazi, g'arbi, sharqi va janubiy o'lkalarida, Osiyoda uning sanasi 5-3-ming yilliklarga mansubdir. Ayni vaqtda mazkur arxeologik davrlar Yer tarixining geologik bosqichlari bilan zamondosh bo'lishi ham mumkin.

Odanning paydo bo'lishi zaminimiz tarixining to'rtlamchi bosqichiga to'g'ri keladi. Geologik jihatdan to'rtlamchi davr to'rt: neogen, eopleystotsen, pleystotsen va golotsen bosqichlariga bo'linadi. Mazkur davrda Shimoliy Yevropa, Osiyo va Shimoliy

Amerikaning ko'p joylarini vaqti-vaqti bilan Dunay, Gyunts, Mindel, Riss va Vyurm deb ataluvchi muzlik qoplab turgan. Lekin golotsenga kelib mazkur joylardagi muzlar erib, u yerlarning tabiati o'zgarib ketdi. Arxeologik nuqtayi nazaridan neogen va eopleystotsen qadimgi tosh asrining Olduvay (shellgacha) pleystotsen qadimgi shell, O'rta va so'nggi ashel, mush'e va so'nggi paleolit davrlariga to'g'ri keladi. Golotsen esa mezolit va neolit asrlariga mos tushadi. Kishilikning ibtidoiy bosqichini to'g'ri davrlashtirish uchun arxeologiya, geologiya, klimatologiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarni joriy qilish ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab chiqarish kuchlarini to'laroq o'rganish uchun imkon beradi.

## **2-mavzu. Nazorat savollari**

1. Pleystotsen davri tabiiy shart-sharoitlari.
2. Yer shari tarixi, geologik davrlashtirish.
3. Yer yuzida vujudga kelgan muzlik davrlari va ularning ibtidoiy odamlar hayotiga ta'siri.
4. Insoniyat tarixini davrlashtirish muammolari.
5. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.
6. Arxeologik davrlashtirishda moddiy manbalarning o'rni va ahamiyati.
7. Paleolit davri va ibtidoiy ajdodlarimiz hayot.
8. Afrika va Yevrosiyo qit'alaridan topilgan paleoantropologik topilmalar.

## **2-mavzu. Test topshiriqlari**

1. Yer shari qobig'i to'rtta asosiy davrga bo'linadi. Bular?
  - A. Arxey, Paleozoy, Mezozoy, Kaynozoy eralari
  - B. Ashel, Olduvoy, Muste, Solyutre
  - C. Paleolit, Mezolit, Neolit, Eneolit
  - D. To'g'ri javob yo'q
2. Xomo Erektus tipidagi odamlar xronologiyasi?
  - A. 1 million avval

- B. 100 ming yil avval  
 C. 100 asr avval  
 D. 50000 yil avval
3. Yerdagi hayot qaysi geologik davrda paydo bo'ldi.  
 A. Arxey davrining ikkinchi yarmida  
 B. Paleozoy davrining birinchi yarmida  
 C. Kaynozoy davrining ikkinchi yarmida  
 D. Paleolit davrining oxirida
4. Tog'li hududlar paydo bo'ldi.  
 A. Uchlamchi davrda  
 B. Arxey davrining ikkinchi yarmida  
 C. Paleozoy davrining birinchi yarmida  
 D. Kaynozoy davrining ikkinchi yarmida
5. Eoplestotsen va pleystotsen davrlari qaysi arxeologik davrga to'g'ri keladi.  
 A. Paleolit  
 B. Mezolit  
 C. Neolit  
 D. Eneolit
6. XX asrning birinchi choragida Penk va Bryukner tomonidan qaysi tog'larida ketma-ketlikda mavjud bo'lgan to'rta muzlik davrlari qayd etiladi?  
 A. Pomir  
 B. Tyan-shan  
 C. Alp  
 D. Himolay
7. Qadimgi tosh asri kishilarining asosiy mashg'ulotlari?  
 A. Ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar,  
 B. Baliqchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar,  
 C. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar,  
 D. To'g'ri javob yo'q
8. So'ngi paleolit ulkan muzliklarning qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?  
 A. Vyurm  
 B. Riss

- C. Mindel
- D. Gyunts

9. Arxantroplar Yevropaga qaysi tomondan kirib kelishgan?

- A. Afrikadan
- B. Hindistondan
- C. Arabistondan
- D. Erondan

10. Ilk paleolitning ikkinchi bosqichi nima deb ataladi?

- A. Ashel
- B. Olduvoy
- C. Must'e
- D. Solyutre

### **3-MAVZU. INSONIYATNING PAYDO BO'LISHI VA QADIMIY GOMINIDLAR**

#### **Reja:**

1. Odamzodning paydo bo'lishi to'g'risidagi monotsentristik va politsentristik qarashlar.
2. Odamzodning paydo bo'lishi to'g'risidagi ilmiy yondashuv.
3. Qadimiy gominidlarga oid topilmalar.

**Tayanch iboralar.** Antrogenez, diniy karash, dunyoviy karash, Sharqiy Afrika, olduvay, zinjanthrop, sinanthrop, neandertallar, Germaniya, Keniya va Tanzaniya, pitekanthrop, Teshiktosh, A.P. Okladnikov.

**1.1.** Odamning kelib chiqishi. Odamning kelib chiqishi masalasi ustida olimlar bir necha yuz yillardan beri tadqiqot olib boradilar, bu masala buyicha turli nutayi-nazarlar mavjud bo'lib, lekin ularning ba'zilari uz isbotini hali topganicha yo'q. Odamning kelib chiqish va rivojlanishi jarayoni tarix fanida



Antropogenez-yunoncha "antropos"-odam, "genezis"- rivojlanish deb yuritiladi.

Odamning kelib chiqishi, kishilik jamiyatining paydo bulishi, uning rivojlanishi va tarakkiyoti tugrisida fanga turli xil yondoshuvlar, karashlar mavjud. Biz ularni 2 ga bulib o'rganamiz.

1. Diniy qarash.

2. Dunyoviy qarashdir.

Biz yashab turgan moddiy dunyo azaldan bo'lganmi? Yyerda hayot qachon paydo bo'lgan, odam paydo bulgan kabi masalalarda diniy va ilmiy adabiyot bir-birini inkor etuvchi xulosalar bilan yondoshadi.

Shunday ekan, dunyoviy bilim ham diniy bilimlar ham o'z nuqtayi-nazarlarini ilgari suradilar. Diniy ta'limot karashlarini xurmat kilgan holda fanda odamning paydo bo'lishi haqida evolyutsion ta'limot mavjudligini aytib o'tmoqchiman.

Ayniqsa hozirgi vaqtda antropogenez mavzusi ko'pdan-ko'p yangi fikr mulohazalar bilan boglangan.

Insoniyatning dastlabki vakillarining qazilma qoldiqlari 1959-yilda amerikalik olimlar tomonidan Sharqiy Afrikadagi Olduvay daryosida topilgan.

Bu odam koldiklari Tanzaniyaning Zinj nomli qishlog'idan tonilgani uchun uni shu nom bilan Zinjan Trop odami deb ataladi.

Bu yerda odam suyaklari bilan birga har xil hayvonlarning antiqa suyaklari va tosh qurollar ham topiladi. Zinjantrop topilgan biologik qatlamning sanasi 1,5 – 2 million yil deb taxmin qilinmoqda. Indoneziyadagi Yava orolida 1890-yil eng qadimgi odam suyagining qoldiqlari topilgan bo'lib, uni pitekantrop deb nomlaganlar. Yunoncha maymun odam, demakdir.

Xitoyning Pekin shahri yaqinida topilgan odam suyagi qoldiqlari joy nomi bilan atalib, sinomtrop Xitoy odami deb nomlangan. Sinatroplar o'tkir qirrali tosh qirollardan va tabiiy olovdan foydalanganlar.

"Ishbilarmon odam" larning vakillari bo'lgan zinjanthrop va avstrolopitek (lotincha janub odami) bundan 3-2 million yillar

oldin yashaganlar. Ptiokantrop miloddan 700-600 million yillar, snatrop esa 600-500 million yillar ilgari yashagan. Ular ilk paleolit davri odamlari deb hisoblanadi.

Zinjanthrop avstrolopiteklar oilasining eng qadimgi vakili hisoblanadi, olimlar unga "Xomaxabilis" ishbilarmon odam deb nom berilgan va u eng sodda mehnat qurollari yasay olgan.

Zinjanthrop, pitekantrop va sinantropilar ilk toshlari ildiz utgan eng kadimgi odamlar rivojlanishini boskichlari hisoblanadi. Ular kaddini tik tutib yurganlar. Mehnat kurollarini yasab ishlata olganlar. Bu hol ularni hayvonot dunyosidan ajratib turgan. Sinantropilar pitekantropilarga qaraganda murakkabroq mehnat qurolli yasay bilganlar. Buning ustiga tabiiy oatdan ham foydalanganlar. Ming yillar davomida odamning tashki kiyofasi, miya hajmi o'zgargan.

1.2. Yer yuzi ob-havosi ilik bulganda odamlar manzillarda yangi anhor bo'yidagi tepaliklarda joylashgan ob-havoning keskin o'zgarishi ilk paleolitning so'nggi davrlarida yer yuzi buyuk muzlik bilan koplenganda odamlar yangi sharoitga moslashishga majbur bo'ladigan.

Bu hol ham ularni tashki kiyofasiga uzgarish kiritgan.

O'rta paleolit davrida miloddan avval 100-40-ming yilliklar davrida yashagan odamlarni ptekantropilar deb atalgan. Ularni suyak qoldiklari dastlab Germaniyadan Neandertal vodiysidan topilgani uchun shu joy nomi bilan atalgan.

Neandertallar yashash uchun gurlarni o'zlashtiradilar. Nayza uchlarini yasaydilar, o'zlariga hayvon terisidan kiyim kiladilar, olovdan foydalanadilar. Mamont va boshka yirik muzlik davri hayvonlarini ovlaydilar.

Neandertallar hozirgi kiyofadagi odamlarga o'tish bosqichidir. Kromonon Fransiya goridan topilgan odam suyaklari uning sunggi paleolit millioddan avvalgi 40-12-ming yilliklar davrida yashagani va jismonan hozirgi kiyofadagi odamlardan farq qilganligi ma'lum.

O'zbekiston hududida eng kadimgi odamlar ilk paleolit davrida taxminan 700-500-ming yillar oldin paydo bo'lgan

olimlarning taxminicha, O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi odamlar Janubiy Sharqiy va Sharqiy Osiyoning eng qadimgi odamlari bulishi sinatroplar-Xitoy odamga yaqin qarindosh urug'dan bo'lganlar. O'zbekiston hududida eng qadimgi odam Farg'ona vodiysida Selung'ur manzilidan va Toshkent vodiysining Ko'lbuloq mavzusidan Angren shaxri yakinidan topilgan. Qo'pol tosh kurollari bo'lib, bir tomoni kertib o'tkirlashtirilgan bo'lgan. Ilk paleolit davri odamlari kichik daryo bo'ylari va buloqlar bo'yida o'zlariga makon ko'rganlar.

O'sha davrlarda iqlim issiq bo'lganidan kishilar boshpana —turar joy va kiyimga ehtiyoj bo'lmagan. Insoniyatni rivojlanishida neandertal odamning o'zi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ta'kidlab o'tganimizdek, 1956-yilda Germaniyaning Dyussel Dorf shahri yaqinidagi neandertal g'oridagi yer qazish ishlari vaqtida tasodifan bosh suyak qopqog'i va odam skeletining bir necha suyaklari topilib, shu yer nomi bilan ataladi. Bu skelet barcha kazilma odamlarining eng avvalgisi bo'lib, o'z vaqtida olimlar orasida kuchli bahslarga sabab bo'ldi.

O'sha vaqtdagi mashhur nemis olimi, Orientologi Verxov skeletning topilgan bo'laklari ibtidoiy odamga tegishli bo'lmay, balki hozirgi zamon odamiga tegishli deb e'lon qildi va suyaklarning tuzilish xususiyatlarini esa alkogolizm va zaxm kasalligi oqibatida deb tushuntirdi. Lekin bu topilmalardan keyin odamning fakat alohida kismigina emas, balki butun skeletlari, shuningdek, ko'p marta tosh qurollari, kul qoldiqlari va shular bilan bir qatorda, kishilik faoliyati bilan boglik bir qancha topilmalar birin-ketin topilaverdi.

Hozir neandertal deb atalgan bu qazilma odam yuqorida aytib o'tilgan o'tmishdagi odamlar singari yagona topilma emas. Hozirgi vaqtda Yevropaning ko'p yerlarida, Janubiy Afrikada "Rodeziya odami" va "Afrikantrop" Falastinda Yava Orolida pitekantropilar topilgan joyda, Yavantrop va boshqa yerlarda ham ularning yashaganligi aniqlandi. Krimda Sinferopol shahridan 25 km sharkrokdagi Kiyikkoba goridan 1924-yilda G.A.Bonch — Osmolovskiy tomonidan topilgan.

O'zbekistonda topilgan Teshiktosh g'oridan 1938-yilda O.P. Okladnikov tomonidan Muste tipi deb ataladigan juda sodda tosh kurollar bilan 8-10 yashar bolaning suyagi topilgan. (keyinchalik uning shogirdi Alekseev tomonidan bu suyak ayol kishiga tegishli ekanligi aniklangan).

Shuni ko'rsatib o'tish mumkinki, g'ordagi neandertallarning alohida topilgan indevidlari yuqorida ko'rganimizdek, juda keng maydonga tarkalgan bo'lib, ular o'zaro bir-biridan fraq qilsa ham bularning hammasi bir odamning turidir.

Qadimgi kishilarning yuqorida kursatib utilgan vakillari odamsimon maymunlarga xos bo'lgan belgilardan asta-sekin uzoqlashib, hozirgi zamon odami tipiga yaqinlashgan. Tik yurish takomillashgan, ko'z kosasi usti qavarik, iyak rivojlangan, peshona tekislangan va boshqalar, lekin eng ko'zga tashlanadigan narsa miyaning rivojlanishi natijasida bosh suyak hajmining kattalashishi bo'ldi. Hozirgi zamon yirik adashsimonlarning, qazilma odamlar va hozirgi zamon odamlari kalla suyaklarining katta kichikligini bilish uchun mavjud ma'lumotlarni solishtirilsa, quyidagilar ma'lum bo'ldi.

Gorilla 600 dan to 685 sm<sup>3</sup> gacha.

Pitekantrop 800 dan to 900 sm<sup>3</sup>

Sinantrop 1000 dan to 110 sm<sup>3</sup>

Neandertal 110 dan to 1600 sm<sup>3</sup>

Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm<sup>3</sup>.

Sinatrop va Neandertal odamlarning qoldiqlari bilan birga ularning mehnat faoliyatlarining izlari, xususan, juda sodda tosh qurollar topilgan. Arxeologik qazilmalar ichidan topilgan ibtidoiy jamiyat davriga mansub bo'lgan moddiy madaniyat yodgorliklarining o'zi anchagina oldin bu taxminan qazilma odam topilgan davrlar, ya'ni XX asr o'rtalaridan boshlangan va tinmay o'zgarib borayotgan arxeologik moddiy madaniyatning eng qadimgi taraqqiyoti haqida yetarli darajada aniq ma'lumotlar beradi.

Yer yuzining kattagina qismiga tarqala boshlagan paleantropalar — yangi neandertallar shu xilma-xil tabiiy sharoit va

olimlarning taxminicha, O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi odamlar Janubiy Sharqiy va Sharqiy Osiyoning eng qadimgi odamlari bulishi sinatroplar-Xitoy odamga yaqin qarindosh urug'dan bo'lganlar. O'zbekiston hududida eng qadimgi odam Farg'ona vodiysida Selung'ur manzilidan va Toshkent vodiysining Ko'lbuloq mavzusidan Angren shaxri yakinidan topilgan. Qo'pol tosh kurollari bo'lib, bir tomoni kertib o'tkirlashtirilgan bo'lgan. Ilk paleolit davri odamlari kichik daryo bo'ylari va buloqlar bo'yida o'zlariga makon ko'rganlar.

O'sha davrlarda iqlim issiq bo'lganidan kishilar boshpana –turar joy va kiyimga ehtiyoj bo'lmagan. Insoniyatni rivojlanishida neandertal odamning o'zi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ta'kidlab o'tganimizdek, 1956-yilda Germaniyaning Dyussel Dorf shahri yaqinidagi neandertal g'oridagi yer qazish ishlari vaqtida tasodifan bosh suyak qopqog'i va odam skeletining bir necha suyaklari topilib, shu yer nomi bilan ataladi. Bu skelet barcha kazilma odamlarining eng avvalgisi bo'lib, o'z vaqtida olimlar orasida kuchli bahslarga sabab bo'ldi.

O'sha vaqtdagi mashhur nemis olimi, Orientologi Verxov skeletning topilgan bo'laklari ibtidoiy odamga tegishli bo'lmay, balki hozirgi zamon odamiga tegishli deb e'lon qildi va suyaklarning tuzilish xususiyatlarini esa alkogolizm va zaxm kasalligi oqibatida deb tushuntirdi. Lekin bu topilmalardan keyin odamning fakat alohida kismigina emas, balki butun skeletlari, shuningdek, ko'p marta tosh qurollari, kul qoldiqlari va shular bilan bir qatorda, kishilik faoliyati bilan boglik bir qancha topilmalar birin-ketin topilaverdi.

Hozir neandertal deb atalgan bu qazilma odam yuqorida aytib o'tilgan o'tmishdagi odamlar singari yagona topilma emas. Hozirgi vaqtda Yevropaning ko'p yerlarida, Janubiy Afrikada "Rodeziya odami" va "Afrikantrop" Falastinda Yava Orolida pitekantropilar topilgan joyda, Yavantrop va boshqa yerlarda ham ularning yashaganligi aniqlandi. Krimda Sinferopol shahridan 25 km sharkrokda Kiyikkoba goridan 1924-yilda G.A.Bonch – Osmolovskiy tomonidan topilgan.

O'zbekistonda topilgan Teshiktosh g'oridan 1938-yilda O.P. Okladnikov tomonidan Muste tipi deb ataladigan juda sodda tosh kurollar bilan 8-10 yashar bolaning suyagi topilgan. (keyinchalik uning shogirdi Alekseev tomonidan bu suyak ayol kishiga tegishli ekanligi aniklangan).

Shuni ko'rsatib o'tish mumkinki, g'ordagi neandertallarning alohida topilgan indevidlari yuqorida ko'rganimizdek, juda keng maydonga tarkalgan bo'lib, ular o'zaro bir-biridan fraq qilsa ham bularning hammasi bir odamning turidir.

Qadimgi kishilarning yuqorida kursatib utilgan vakillari odamsimon maymunlarga xos bo'lgan belgilardan asta-sekin uzoqlashib, hozirgi zamon odami tipiga yaqinlashgan. Tik yurish takomillashgan, ko'z kosasi usti qavarik, iyak rivojlangan, peshona tekislangan va boshqalar, lekin eng ko'zga tashlanadigan narsa miyaning rivojlanishi natijasida bosh suyak hajmining kattalashishi bo'ldi. Hozirgi zamon yirik adashsimonlarning, qazilma odamlar va hozirgi zamon odamlari kalla suyaklarining katta kichikligini bilish uchun mavjud ma'lumotlarni solishtirilsa, quyidagilar ma'lum bo'ldi.

Gorilla 600 dan to 685 sm<sup>3</sup> gacha.

Pitekantrop 800 dan to 900 sm<sup>3</sup>

Sinantrop 1000 dan to 110 sm<sup>3</sup>

Neandertal 110 dan to 1600 sm<sup>3</sup>

Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm<sup>3</sup>.

Sinatrop va Neandertal odamlarning qoldiqlari bilan birga ularning mehnat faoliyatlarining izlari, xususan, juda sodda tosh qurollar topilgan. Arxeologik qazilmalar ichidan topilgan ibtidoiy jamiyat davriga mansub bo'lgan moddiy madaniyat yodgorliklarining o'zi anchagina oldin bu taxminan qazilma odam topilgan davrlar, ya'ni XX asr o'rtalaridan boshlangan va tinmay o'zgarib borayotgan arxeologik moddiy madaniyatning eng qadimgi taraqqiyoti haqida yetarli darajada aniq ma'lumotlar beradi.

Yer yuzining kattagina qismiga tarqala boshlagan paleantropplar — yangi neandertallar shu xilma-xil tabiiy sharoit va

ishtimoiy mehnat jarayoni natijasida asta-sekinlik bilan rivojlanishda davom etdilar.

Oqibatda hozirgi jismoniy tipdagi “Yangi odam” neantrop darajasigacha etib kelguncha katta tarixiy davrni bosib o‘tdilar. Neandertallar o‘zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng qadimgi va qadimgi odamlardan sifat jihatdan tubdan farq qilar edilar.

Shuning uchun ham uni “aql idrokli” odam – homo sapiens, deb ataganlar. Ular o‘zlarining tashki kiyofasi jihatidan hozirgi zamon odamlariga juda o‘xshab ketadilar. Mutaxassislarining fikricha, neandertallar bundan 40-35 ming yil muqaddam so‘nggi tosh asrining boshlarida paydo bo‘lgan va dastlabki eski dunyo bo‘ylab keng tarqala boshlaganlar.

Ularning skeletlari, suyak parchalari, moddiy-madaniy koldiklari Afrika, Yevropa va Osiyoning ko‘pgina joylaridan topilgan.

“Aql-idrokli” deb atalgan odamlar, dastlab, O‘rta Yer, Kora, Kasbiy dengiz va unga tutash bo‘lgan joylarda yashagan bo‘lib, shu yyerdan Markaziy Sharkiy, Janubiy-Sharkiy Osiyoga, Sharkiy-Janubiy Afrikaga, Garbiy va Janubiy Yevropaga tarqalganlar.

Neontropalar tarqalgan joylar shartli ravishda quyidagi geografik o‘lkalarga bo‘linadi.

1. Yevropa muzlik o‘lkasi.
2. O‘rta er dengiz o‘lkasi.
3. Janubiy Afrika o‘lkasi.
4. Sibir-mugul o‘lkasi.
5. Hind-himolay o‘lkasi.

Mazkur joylardan neandertallar yashagan juda ko‘plab manzilgohlar. Bu manzilgohlardan esa ular qoldirilgan moddiy madaniy qoldiqlar va o‘sha madaniyatni yaratgan kishilarning yuksak qoldiqlari, butun-butun skeletlari ko‘plab topildi va topilmoqda.

Fransiyada kromanyonda, Komb-kapelg, Orinyak-Shanselyat, Italiyadagi “Dolalar gori”, Grimalgdi, Kavilgon, Barmagrans,

Bausso, Dextoro g'orlaridan Angliyadagi paveliant g'oridan neontroplarning skeletlari va ularning moddiy-madaniyatiga oid buyumlar ko'plab topilgan.

Paleontologik materiallar qadimiy Afrikada ham neandertallar ham yashaganidan darak beradi. Neandertallarning manzilgohlari, mehnat qurollari va skeletlari Afrikaning Afalubu-Rumel, Maktax-Al-Arbiy, Nauru Assilyaeer, Elentet, Boskon, Siyaikoma, Elizabet, Skledergat, Fish-xuk, Keniya va Tanchaninaning kup joylaridan topilgan odam suyagi xam neandertallarga mansubdir.

Ishlab chikarish kuchlari o'sa bordi. Kuchlarning rivojlana borishi natijasida ijtimoiy hayotda ham katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar ibtidoiy jamoa tizimining rivojlanishida, xususan, mehnat qurollari takomillashuvida ko'zga tashlandi. Qadimgi paleolit davrida qurollarning xili juda oz bulib, ular juda ham sodda ishlagan edi. Lekin kadimgi paleolitning oxiri va so'nggi tosh asrining boshlariga kelganda manzara butunlay o'zgarib, toshdan tarashlagich, kirgich teshgich va nayza uchlari, yer kavlagich kurollari vujudga keldi. Undan tashqari suyakdan va yog'ochdan bigiz, igna, suyil, nayza uchlari va boshka murakkabrok asboblar uchun moslamalar yasashga erishildi. Balik ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tipli garrup kashf qilishi ham ana shu davrga mansubdir. Mehnat va ov qurollarining mukammalashuvi oqibatida ovchilik xo'jaligi va termachilik ham rivojlana bordi.

1.3. 1891-1894-yillarda Gollandiyalik olim, Vrats E. Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orollaridan ibtidoiy ajdodlarimizning suyak qoldiqlari topib o'rganiladi va bu topilma fanga pitekantrop nomi ostida kiritiladi. 1936-yilda, xuddi shu Yava orolidan pitekantrop bolasining tana suyaklari qoldiqlari topib o'rganiladi. Pitekantrop tana suyaklariga e'tibor beradigan bo'lsak, u ikki oyoqlab yurgan va miya suyagining hajmi 850-950 kub smni tashkil etgan. Pitekantrop yashagan tabiiy muhitga e'tibor qaratsak, u o'rmonlardan iborat bo'lgan dengiz sathidan 600-1200 metr balandlikda joylashgan hududda



yashagan. Yava orolida o'tkazilgan qazishmalar natijasida Pitekantrop bilan birga qadimgi hayvonlarning suyaklari ham topib o'rganilgan va olib borilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, pitekantrop hamda bu qadimgi hayvonlar Yava orolida sodir bo'lgan vulqon otilishi natijasida qirilib ketishgan. Ibtidoiy ajdodlarimiz insoniyatning eng qadimgi davri paleolit davridan boshlab, toshlardan ov va mehnat qurollarini yasashni o'rganishgan. Ilk tosh qurollardan biri turi G'arbiy Panjob (zamonaviy Pokiston hududi) Soan daryosidan o'zlaridan topilgan bo'lib, ular fanga ilk soan tosh qurollari nomi bilan kiritilgan. Shuningdek toshdan ishlangan qurollar Pekin (Xitoy), Keniya, Marokash, Uganda, Tangantika hudularidan ham topilgan.

Ilk paleolitda madaniy muhitning mavjudligi alohida joylar bilangina chegaralansa, so'nggi paleolitda esa madaniyat tizim sifatida shakllanadi. So'nggi paleolitning boshlari gominid evolyutsiyasi yakunlanib zamonaviy "aqli odam" turi paydo paydo bo'ladi. So'nggi paleolitda turli-tuman tosh va boshqa qurollar notekis tarzda ko'payishi natijasida tarkibiy qurollar-tasma, uchlik, shuningdek, to'qimachilik paydo bo'ladi. Nixoyat, dastlabki tartibli ijtimoiy tashkilot - urug' tashkil topadi. Bu inqilobning mahsuli misollarining asosiy antropologik, ruhiy fiziologik, ruhiy ijtimoiy va ma'naviy birligi bo'lib, insonlar uyushmasining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, til, maishiy rivojlanishining tafovutlarga qaramasdan tarixda saqlanib qoldi.

Ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo'lsada, biroq yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to'plaganlar. Natijada yangi tushuncha va tasavurlar paydo bo'lib, tafakkur va nutq rivojlana bordi. Bu esa jamiyat ma'naviy rivojlanishini tezlashtirdi. O'zlashtiruvchi xo'jalikda ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilishi va tajribaning to'planishi natijasida yuzaga keldi.

Dastlab ibtidoiy odamlar oziq-ovqat qidirib o'zi yashayotgan muhitni yahshiroq o'rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimni oshirgan. Tabiatdagi mavjud iste'mol qilishga yaroqli

o'simlik va mevalarni qidirib topishi, kuzatishi natijasida botanika bilimlari to'plagan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe'li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologiya bilimi sh aklana boshladi. Bu jarayonlarni o'rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbasi edi.

Kasallikni davolash uchun o'sha zamonning o'ziga xos sodda tabobati bo'lib, davolashda o'simliklar, mevalar, hayvonlar, mineral jismlardan foydalanganlar. Shuningdek, silash, uqalash usuli bilan ba'zi kasalliklarni davolaganlar va folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullaridan ham foydalanganlar.

Ibtidoiy odamlar tabiatni, iqlimni sharoitdan kelib chiqib kuzatishi asosida ob-havoni oldindan aytib berish qobiliyati paydo bo'ladi. Tarbiya ham mehnat va turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odat va udumlar asosiy ahamiyat kasb etgan.

Ibtidoiy san'at ham odamning mehnat faoliyati bilan uyg'un holda vujudga kelgan.

Ibtidoiy sanoat xilma-xil bo'lib, bir necha turlarga bo'linadi:

1) suyak, tosh parchasi, shoh, qulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va har xil narsalarning tasvirlari;

2) g'or devorlarga har xil ranglar bilan ishlangan hayvon, odam va buyumlar tasviri. Ularda ov, mehnat, jang va boshqa manzaralar tasvirlangan. Bunday tasvirlar Turon, Sahroyi Kabr, Markaziy Osiyo, G'arbiy Yevropada ko'plab uchraydi;

3) qoyatoshlarga o'yib, chizib, ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlarda hayvon, buyum, qurollar va ibtidoiy kishilarning kun dalik mehnati bilan bog'liq manzaralar o'rin olgan. Qoyatosh tasvirlari Osiyo, Afrika va Yevropada ko'p uchraydi.

### **3-mavzu. Nazorat savollari**

1. Avstrolopitklar va ularning turmush tarzi.

2. Avstrolopitlar to'g'risidagi yangi antropogenez nazariyalar.

3. Eng qadimgi odamlarning mehnat faoliyati va turmush tarzi.

4. Homo sapiens ning vujudga kelgan joyi va vaqti.
5. Zamonaviy odam va evolyutsiya.
6. Olduvay madaniyati paleolitning qaysi bosqichiga oid?
7. Paleoantropologiya nimani o'rganadi?
8. Avstrolopitek so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
9. Radiokarbon usulida qancha qadimiylikka ega bo'lgan yodgorliklarning davrini aniqlash mumkin?
10. Olovni kashf etgan qadimgi gominid nomini ko'rsating?
11. Ikki tomoni o'tkirlangan qo'l chopqilarini yasashni boshlagan gominid kim?
12. Pitekantrop va Sinantrop bugungi kunda fanda qanday nom bilan yuritilmoqda?

### 3-mavzu. Test topshiriqlari

1. Pitekantrop - so'zining ma'nosi?
  - A. Qaddi tik odam
  - B. Ishbilarmon odam
  - C. Maymun odam
  - D. Ongli odam
2. "Ishbilarmon odam" necha ming yil oldin yashaganlar.
  - A. 3-2 ming yil avval
  - B. 3-2 million yillar
  - C. 5-4 million yillar
  - D. 4-3 million yillar
3. Dyussel Dorf shahrining arxeologiya fanidagi ahamiyati?
  - A. Neandertal odam topilgan
  - B. Pitekantroplar topilgan
  - C. Kromanyon odam topilgan
  - D. Ilk paleolit davriga oid tosh qurollar topilgan
4. Neandertal odamning bosh chanog'i o'lchami?
  - A. 110 dan to 1600 sm<sup>3</sup>
  - B. 600 dan to 685 sm<sup>3</sup> gacha.
  - C. 800 dan to 900 sm<sup>3</sup>
  - D. 1000 dan to 110 sm<sup>3</sup>

5. So'nggi paleolitning boshlari gominid evolyutsiyasi yakunlanib, qanday hodisa yuz bera boshladi?
- A. Zamonaviy "aqli odam" turi paydo bo'ladi.
  - B. "Yangi odam" turi paydo bo'ladi.
  - C. Ijtimoiy tashkilot - urug' tashkil topadi
  - D. To'g'ri javob A va S.
6. Paleoantropologiya nimani o'rganadi?
- A. Qadimgi odamlarni
  - B. Qadimgi madaniyatni
  - C. Yozma yodgarliklarni
  - D. Zamonaviy texnologiyalarni
7. Olduvay, ashel, muste va so'nggi paleolit?
- A. Paleolit davri bosqichlari
  - B. Mezolit davri bosqichlari
  - C. Neolit davri bosqichlari
  - D. Barcha javoblar noto'g'ri
8. Sahelantrophus tchadensis qaysi davlat olimlari tomonidan tadqiq qilindi?
- A. Fransiya
  - B. AQSH
  - C. Angliya
  - D. Keniya
9. Yuqori paleolit davri kishilari ijtimoiy hayotidagi yutuq nimadan iborat?
- A. Sun'iy turar joylarning paydo bo'lishi
  - B. Mehnat qurollari
  - C. O'q-yoyning kashf etilishi
  - D. Muzlikning chekinishi
10. 1997-yilda Shimoliy Ispaniya g'orladridan topilgan qadimgi gominid nomini ko'rsating?
- A. Homo antecessor
  - B. Homo rudolfensis
  - C. Homo habilis
  - D. Homo erectus

## Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Potts.D.T. A companion to the archaeology of the ancient Near East. West Sussex, PO19 8SQ, UK.
- 2.Lawrence Guy Straus., Berit Valentin Eriksen., Jon Erlandson., David R. Yesner. Humans at the End of the Ice Age: The Archaeology of the PleistoceneHolocene Transition. 1996. New York.
- 3.Martin Hall, Stephen W. Silliman. Historical archaeology. UK. 2006.
- 4.A. Robers. Evolution: The Human story. New York. 2011.
- 5.Anati E. Les origins de l'art et la formation de l'esprit humain. Paris, 1989.
- 6.David McDowall. An illustrated history of Britain. UK.2006.
- 7.Ian Shaw, Rober Jameson. A Dictionary of Archaeology.UK.1999

## II BOB. PALEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI

### 1-Mavzu. Afrika paleoliti

#### Reja:

1. Afrika qit'asining paleolit davri tabiiy sharoiti.
2. Insoniyatning eng qadimgi ajdodlari. Parapitek va uning davomchisi proploptek
3. Sharqiy Afrika topilmalari. Ramapitek.

**Tayanch iboralar.** Kaynozoy erasi, eopleystotsen, pleystotsen, neogen, driopitek, ramapitek, Misr, Hindistonning shimoli, Sharqiy Afrika, Antropoidlar, Udabnopitek, R. Dart, Sharqiy Gruzziya, Yevroosiyo qit'asi, Tanzaniya, Olduvay, Al-Amir, Djidfir, Al-Gabr VI g'or makonlari, Indoneziyaning Yava oroli.

**1.1.** Insoniyat paydo bo'lgan davr Yer shari tarixining kaynozoy erasi, aniqrog'i, neogenning so'nggi bosqichi Eopleystotsen, pleystotsen davrlariga to'g'ri keladi. Neogen davriga insoniyatning qadimgi ajdodlari paydo bo'ladi (driopitek, ramapitek-hozirgi kunda insoniyatning ushbu ajdodlari qirilib ketgan xisoblanadi). Insonning eng qadimgi ajdodi sifatida olimlar Misr hududidan topilgan parapitek va uning davomchisi proploptekni (yunoncha para-yaqinida, yonida pithecos-maymun) (avvalgi, oldingi) keltirib o'tishadi. Ulardan ikkita shajara kelib chiqadi. Ulardan biri pliopitek va sivapitek kelib taqaladi. Pliopiteklardan hozirgi zamon gibbonlari kelib chiqqan bo'lsa, sivapiteklardan esa orangutanlar kelib chiqqan. Proplopteklarning ikkinchi bir shajarasi esa rivojlangan driopteklarni (yunoncha drio-quyuq o'rmon, ya'ni o'rmon maymunlari degan ma'noni anglatadi) keltirib chiqargan. Olimlarning fikriga ko'ra, aynan driopteklar insonlar va gorilla, shimpanzelarning umumiy ajdodi hisoblanadi. Aksariyat olimlar insoniyatning dastlabki ajdodlari sifatida bundan 14 – 20 mln yil burun, ya'ni miotsen bosqichida

Osiyo va Yevropaning janubi, Afrika qit'asida yashagan driopteklarni keltirishadi. Driopteklar quyi to'rtlamchi davrlarida istiqomat etishgan. Dastlab 1902-yilda Avstraliyadan driopteklarning 3 tishi namunalari topilgan. Bu tishlardan iborat topilmalar o'zining shakliga ko'ra insonlarnikiga yaqin. Keyinchalik esa bu topilmalar sooni ko'payib bordi. Driopteklar bir turdagi jonzotlar bo'lmagan. Ularning ba'zi bir turlari zamonaviy gorillar va shimpanzelarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ba'zilar esa insoniyatning eng qadimgi ajdodlarini keltirib chiqargan. Driopitekka eng yaqin vakil sifatida olimlar tomoindan Sharqiy Gruziyadan topilgan Udabnopitek ko'rsatilmoqda. Uchlamchi davrda yashagan antropoidlarning eng qadimgi vakillari odamzodga aylanish jarayonida faol ishtirok etmay, daraxtlarda yashashni davom ettirgan va oxir-oqibat shunday qolib ketishgan. Antropoidlarning yana bir vakillari o'z hayotlari uchun kurashni davom ettirishdi va oxir-oqibat ularning miya hajmi emas, balki tanasining o'sishiga olib keldi. Bularga biz Yavanlik megantrop, gigantrop va gorillalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ba'zi bir olimlar esa insoniyatning dastlabki ajdodlari sifatida bundan 10 – 14 mln yil burun.

1.2. Hindistonning shimoli, Sharqiy Afrika topilmalari asosida fanga ma'lum bo'lgan ramapiteklarni keltirib o'tishadi. Driopiteklarning eng rivojlanib borgan vakillaridan Ramapteklar kelib chiqqan. Ularga oid dastlabki topilmalar Hindistonning uchlamchi davr qatlamlariga oid Sivali tog' tizmalaridan topilgan. Ramapitek boshqa odamsimon maymunlardan shunisi bilan farq qilganki, uning oldingi qoziq tishlari bo'rtib chiqmagan va uning tashqi ko'rinishi odamga yaqin bo'lgan. Antropoidlarning keyingi taraqqiy etishi shu narsaga olib kelganki, ular orqa oyoqlaridan harakat qila boshlaydi. Keyinchalik tosh va daraxt shoxlaridan o'ziga qurollar yasay boshlaydi. Uchinchi guruh olimlar esa insoniyat eng yaqin ajdod sifatida avstrolopiteklarni keltirib o'tishadi. Avstrolopiteklarga tegishli dastlabki topilma 1924-yilda JAR hududida R. Dart tomonidan topilgan. Bundan tashqari avstralopiteklarga oid topilmalar Sharqiy Afrika, Tanzaniya,

Keniya, Efiopiya hududlaridan ham qayd etilgan. 1935-1651-yillar oralig'ida avstralopitekklarga oid 30 dan ortiq topilmalar qayd etilgan. Ularning miya suyagining hajmi 600-700 kub smni tashkil etgan, ular orqa oyoqlarida harakat qilgan, go'sht istemol qilganlar. Aynan ularning go'sht iste'ol qilishi ularda boshqa odamsimon maymunlarga nisbatan miyani kerakli ozuqalar bilan ta'minlash va keyinchalik miya hajmining o'sishiga olib kelgan. Hozirgi kunda ko'plab avstrolopiteklarga oid topilmalar qayd etilgan bo'lib, ularning aniq davri ham o'rnatilgan. Bundan 1.5 mln yil avval Zinjantrop yashagan. (Zinj bu Sharqiy Afrikaning qadimgi arabcha nomi). Unga tegishli dastlabki topilma Tanzaniyaning Olduvay darasidagi ilk to'rtlamchi davr qatlamlarida qayd etilgan. 1960-yilda esa ingliz paleontologi L. Liki aynan shu yerdan Xomo Xabilisga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan. Uning miya suyagining hajmi 630-680 kub smni tashkil etgan. Umurtqasi va tishlarining tuzilishiga ko'ra u odamzodga yaqin bo'lgan. U zinjantropga nisbatan avvalroq, ya'ni bundan 1 mln 750 ming yil burun yashagan. Aynan Xomo Xabilis dastlab tosh qurollar yasashni ixtiro etgan. Albatta, bu holat odamzod uchun xos hisoblanadi. XX asrning 60-yillarida shunday bir ixtiro amalga oshirildiki, bu esa o'z navbatida evolyutsion nazariyaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Aniqlandiki, yyerdagi barcha tirik jonlar, ya'ni bakteriyadan tortib toki insongacha bitta umumiy genetik kodga ega. Yyerda hayot ning paydo bo'lishi va taraqqiy etishini biz Darvin ta'limoti asosida talqin etadigan bo'lsak, u holda bir organizmning genakodi ikkinchisidikidan farq qilar edi. Shunday bo'lib chiqayaptiki, inson bitta yagona onadan kelib chiqqan. Shunday bir savol tug'iladi, yyerdagi hayot o'zga sayyora probirkasida vujudga kelganmi?

XIX asr oxirida olimlar tomonidan avstrolopiteklarga nisbatan rivojlangan ibtidoiy odamlar qoldiqlarini topishgan muvaffaq bo'lishdi. Noto ergaster—Noto erectus bundan 2-1,5 million yil avval Afrika hududidini tashlab o'zining dastlabki, Afrikadan Yevroosiyoga migratsiyasini boshlaydi. Aynan mana shu davrdan



boshlab yer sharining ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilishi boshlanadi. Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, ajdodimizning Afrikadan yer sharining boshqa qismlariga migratsiyasi ma'lum bir qonunlarga asoslangan emas edi. Bu jarayon tabiiy holatda yuz bergan. Pliotsena va neopleystotsenning ilk bosqichida Afrika Yevroosiyo qit'asi va Arabiston yarim oroli bilan bog'langan bo'lgan. Bu davrda sharqiy Afrika, Yevroosiyoning g'arbiy rayonlari, Yaqin Shaq va Arabiston yarim oroli bir-biriga yaqin bo'lgan tabiiy shart-sharoitlarga ega bo'lgan. Dastlabki ajdodlarimizning Afrika hududidan chiqib Yevrosiyo hududiga migratsiya qilish jarayoni juda sekin kechgan. Biroq ozirda Arabiston yarim oroli va Yaqin Sharq hududida ibtidoiy ajdodlarimizning dastlabki migratsiyasi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar aniqlanmagan. Yaqin Sharq hududida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli bo'lgan dastlabki paleolit davri yodgorliklari Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning davriy sanasi 1,4 va 0,9 million yillar bilan belgilangan. Yaqin Sharq hududidagi Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari ibtidoiy ajdodlarimizning Afrika hududidan Yevroosiyoga ikkinchi migratsiyasi davriga tegishli yodgorliklar hisoblanadi. Bu davrda Yevroosiyoda ashel tosh industriyasi tarqala boshlagan jarayonni kuzatishimiz mumkin. Ubeydiya yodgorligining quyi qatlamlaridan ikki tomonlama ishlov berilgan tosh qurollar namunalari kuzatishimiz mumkin. Ashel davriga qadar mavjud bo'lgan qatlamlar 1983-2000-yillar davomida Al-Guza, Sharxabil, Al-Amir, Djidfir, Al-Gabr VI g'or makonlarida qayd etilgan.

**1.3. Geomorfologik va stratigrafik tadqiqotlar shuni krsatadiki** Pliotsena va neopleystotsenning ilk bosqichida yer sharida iqlim sovushi va aridizatsiya jarayoni kuzatiladi. Dunyo okeanlari sathi 150 metrga pasayib ketadi. Chuqurligi 100 metr va kenligi 28 metr bo'lgan Bab-el-Mandeb ko'rfazi quriydi va Afrika qit'asini sharqiy Arabiston hududi bilan bog'lab turuvchi quruqlik yo'li vujudga keladi. Yaqin Sharq hududidan ajdodlarimizning Kavkazorti va Yevropa hududiga kirib borishini kuzatishimiz mumkin. Bunga

misol sifatida biz gruziya hududida joylashgan Dmanisi topilmasini keltirib o'tishimiz mumkin. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida insoniyat beshigi sifatida Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hududi keltiradi. Bunga dalil sifatida esa 1981-yilda gollandiyalik olim E. Dyubua tomoindan Indoneziyaning Yava orolida pitekantropa (*Noto erectus*) tana suyaklarining topilishi sabab bo'ladi.

### 1-mavzu. Nazorat savollari

1. Zamonaviy odam va evolyutsiya.
2. Olduvay madaniyati.
3. Zamonaviy antropologik tiplarning tarqalishi.
4. Afrika va Yevrosiyopadan topilgan antropologik topilmalarning tahlili.
5. *Australopithecus bahrelghazali* haqida ma'lumot bering.
6. Markaziy va Janubiy Afrikadan topilgan paleantropologik topilmalar.
7. So'nggi yillarda talqin qilinayotgan yangi antropogenez nazariyalar.
8. *Homo antecessor* haqida ma'lumot bering.
9. Darvinning evolyutsion nazariyasi.
10. Sharqiy Afrikadagi paleoantropologik topilmalar.
11. Eng qadimgi odamlarning mehnat faoliyati va turmush tarzi.
12. *Homo erectus* haqida ma'lumot bering.
13. Zamonaviy antropologik tiplarning tarqalishi.
14. Afrika va Yevrosiyopadan topilgan antropologik topilmalarning tahlili.

### 1-mavzu. Test topshiriqlari

1. Bundan 14 – 20 mln yil burun, ya'ni miotsen bosqichida yashagan insoniyatning dastlabki ajdodlari kimlar?
  - A. Avstrolopiteklar
  - B. Pitekantroplar
  - C. Driopteklar
  - D. Kromanyonlar

2. Ramapitek boshqa odamsimon maymunlardan nimasi bilan farq qilgan?
- A. Oldingi qoziq tishlari bo'rtib chiqmagan va uning tashqi ko'rinishi odamga yaqin bo'lgan
  - B. Bosh chanog'ining o'lchami kromanyon odamlarga yaqin bo'lgan
  - C. Qaddi tik bo'lgan
  - D. To'g'ri javob B va D
3. JAR hududida Avstrolopitek'larga tegishli dastlabki topilma kim tomonidan va qachon topilgan?
- A. 1938-yilda A.P. Okladnikov
  - B. 1960-yilda L. Liki
  - C. 1924-yilda R. Dart
  - D. 1981-yilda E. Dyubua
4. Avstralopitek'larning miya suyagining hajmi qancha?
- A. 600-700 kub smni tashkil etgan
  - B. 700-800 kub smni tashkil etgan
  - C. 800-900 kub smni tashkil etgan
  - D. 900-1000 kub smni tashkil etgan
5. Tanzaniyaning Olduvay darasidagi ilk to'rtlamchi davr qatlamlarida qayd etilgan odam turi?
- A. Neondertal
  - B. Zinjantrop
  - C. Avstralopitek'lar
  - D. Ramapitek
6. ingliz paleontoligi L. Likining fan oldidagi xizmati?
- A. 1968-yilda Xomo Ergastusga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan
  - B. 1960-yilda Xomo Xabilisga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan
  - C. 1960-yilda Xomo Elektusga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan
  - D. 1952-yilda Xomo Xabilisga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan
7. Australopithecus anamensis kimning ajdodi bo'lgan?

- A. Australopithecus afarensis
- B. Sahelantrophus tchadensis
- C. Zamonaviy maymunlarning
- D. Neandertallaring

8. 1995-yilda Mishel Bryune tomonidan Chad Respublikasidan topilgan gominid nomini aniqlang?

- A. Australopithecus bahrelghazali
- B. Sahelantrophus tchadensis
- C. Orrorin tugenensis
- D. Ardipithecus ramidus

9. Homo Ergasterlar istiqomat qilgan yillarni aniqlang?

- A. 1,9-1,6 mln.
- B. 1,7-1,4 mln.
- C. 1,5-1,2 mln.
- D. 1,4 -1 mln.

10. Homo Ergasterning miya hajmini aniqlang?

- A. 880 kub sm.
- B. 580 kub sm.
- C. 380 kub sm.
- D. 980 kub sm.

## 2-MAVZU. YAQIN VA O'RTA SHARQ PALEOLITI

### Reja:

1. Yaqin va O'rta Sharq hududining qadimgi davrdagi tabiiy shart-sharoitlari.
2. Yaqin va O'rta Sharq hududida insoniyatning paydo bo'lishi.
3. Yaqin va O'rta Sharq hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi.

**Tayanch iboralar.** O'rta Sharq, Alfred Tayer Mexen, Yaqin Sharq, Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Ummon, Quvayt, Qatar, Isroil, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Paleolit,

Ubeydiya, Gesher Benet Yaakov, Xomo Ergaster, Xomo Erektus, I. Korobkov, J. Skinner, J.Perro, L.Koplend.

1.1 O'рта Sharq atamasi (ingliz tilida Middle East) Britaniyaning Hindiston ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 1850-yilda qo'llanilgan. Biroq 1902-yilda amerikalik harbiy dengiz nazariyotchisi Alfred Tayer Mexen tomonidan Arabiston yarim oroli va Hindiston oralig'idagi xududlarni ifodalashi natijasida bu atama tarix fanida keng qo'llanila boshlandi. Ikkinchi jahon urushiga qadar Turkiya va O'рта Yer dengizining sharqiy qirg'oqlari oralig'idagi hududlar Yaqin Sharq deb atalgan bo'lsa, Mesopotamiyadan toki Birmagacha bo'lgan hududlar O'рта Sharq deb nomlangan edi. Rus mualliflari adabiyotlarida esa Yaqin Sharq atamasi qo'llanilgan bo'lib, bu atama asosida Eron, Pokiston va Afg'oniston davlatlari hududlari ham qo'shib ifodalanadi. Yaqin va O'рта Sharq davlatlariga Afg'oniston, Baxrayn, Misr, Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Iroq, Turkiya, Ummon, Quvayt, Qatar, Isroil, Iordaniya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yaqin va O'рта Sharq hududining paleolit davri yodgorliklarining o'rganilish, asosan, XX asrda amalga oshirilgan. 1929-1936-yillarda ingliz tadqiqotchisi D. Garrod Falastinning Karmel tog' tizmasida paleolit davri yodgorliklarini o'rganishni boshlab beradi. Sharqiy O'рта Yer dengizi havzasida A.Rust, R.Nevill, G. Vatanabelar tomonidan o'kazilgan tadqiqotlar natijasida ochiq turdagi va g'orsimon hamda paleolit davri qabrlari topilgan bo'lib. Bu o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tosh davri madaniyatlarining tabiat bilan uyg'unlikda taraqqiy etish dinamikasini kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotchilar I. Korobkov, J. Skinner, J.Perro, L.Koplendlar tomonidan Sharqiy O'рта er dengizi havzasi tosh davri qurollari tiologiyasi va klassifikatsiyasi hamda madaniyatlarining o'zaro aloqalari ishlab chiqilgan. Paleolit davrida Yaqin va O'рта Sharq hududi keng miqyosda muzlash davrini o'z boshidan kechirmagan. Muzlash jarayoni Yaqin va O'рта Sharq hududining shimoliy rayonlarida

kechgan bo'lsa, janubiy rayonlarda esa plyuvial, ya'ni yog'ingarchilikdan iborat iqlim hukm surgan. 2 million yil burun Yaqin va O'rta Sharq hududida issiq iqlimni xush ko'ruvchi villafrank fauna va florasi mavjud bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharq hududi relyefi esa unchlik katta bo'lgan tog'lar va tekistliklardan iborat bo'lgan. Qirg'oq bo'yi landshafti esa savannaga o'xshagan. Yaqin va O'rta Sharq hududida bundan 1.5 million yil burun tektonik xarakterli sodir bo'ladi va tog'lar ko'tariladi. Tektonik xarakterli butun muzlik davrida davom etadi. Erroziyalar natijasida tabiiy g'orlar paydo bo'ladi. Bu esa ibtidoiy ajdodlarimizning jon saqlashi uchun tabiiy panoxgoh vazifasini bajargan. Umuman olganda, plyuvial davri namgarchilik yuqori darajada bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Harorat esa hozirgiga nisbatan 4-5 gradus darajada farq qilgan. Buning natijasida esa bundan 700-600 ming yil avval Falastinda iliq iqlimni xush ko'ruvchi villafrank flora va faunasi jon saqlab qolgan. Aynan bunday iqlimni xush ko'ruvchi xayvonot dunyosining mavjudligi ibtidoiy ajdodlarimizning yashab qolishi uchun zamin yaratgan. Yaqin va O'rta Sharq hududida hukmronlik qilgan villafrank faunasi bu hududda dastlabki ibtidoiy ajdodlarimizning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ibtidoiy ajdodlarimizga oid dastlabki topilmalar Suriya va Livan hududlaridan topilgan bo'lib ularning davriy sanasi Olduvey davri bilan belgilanadi. Yaqin va O'rta Sharq hududining eng muhim yodgorliklaridan biri Oronta va Jordan daryosi oralig'idagi hududlarda joylashgan Ubeydiya yodgorligi hisoblandi. Uning davri sanasi Ashel davri bilan belgilanadi.

1.2. Pliotsena va neopleystotsenning ilk bosqichida Afrika Yevrosiyo qit'asi va Arabiston yarim oroli bilan bog'langan bo'lgan. Bu davrda Sharqiy Afrika, Yevrosiyaning g'arbiy rayonlari, Yaqin Shaq va Arabiston yarim oroli bir-biriga yaqin bo'lgan tabiiy shart-sharoitlarga ega bo'lgan. Dastlabki ajdodlarimizning Afrika hududidan chiqib Yevrosiyo hududiga migratsiya qilish jarayoni juda sekin kechgan. Biroq hozirda Arabiston yarim oroli va Yaqin Sharq hududida ibtidoiy

ajdodlarimizning dastlabki migratsiyasi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar aniqlanmagan. Yaqin Sharq hududida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli bo'lgan dastlabki paleolit davri yodgorliklari Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning davriy sanasi 1,4 va 0,9 million yillar bilan belgilangan. Yaqin Sharq hududidagi Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari ibtidoiy ajdodlarimizning Afrika hududidan Yevrosiyoga ikkinchi migratsiyasi davriga tegishli yodgorliklar hisoblanadi. Bu davrda Yevrosiyoda ashel tosh industriyasi tarqala boshlagan jarayonni kuzatishimiz mumkin. Ubeydiya yodgorligining quyi qatlamlaridan ikki tomonlama ishlov berilgan tosh qurollar namunalari kuzatishimiz mumkin. Ashel davriga qadar mavjud bo'lgan qatlamlar

1.3. 1983-2000-yillar davomida Al-Guza, Sharxabil, Al-Amir, Djidfir, Al-Gabr VI g'or makonlarida qayd etilgan. Geomorfologik va stratigrafik tadqiqotlar shuni kursatadiki, Pliotsena va neopleystotsenning ilk bosqichida yer sharida iqlim sovushi va aridizatsiya jarayoni kuzatiladi. Dunyo okeanlari sathi 150 metrga pasayib ketadi. Chuqurligi 100 metr va kenligi 28 metr bo'lgan Bab-el-Mandeb ko'rfazi quriydi va Afrika qi'asini sharqiy Arabiston hududi bilan bog'lab turuvchi quruqlik yo'li vujudga keladi. Yaqin Sharq hududidan ajdodlarimizning Kavkazorti va Yevropa hududiga kirib borishini kuzatishimiz mumkin. Bugunki kunda Yaqin va O'rta Sharq hududida qadimgi tosh davriga oid bir qancha yodgorliklar o'rganilgan. El-Masluk yodgorligi 1969-yilda Kolumbiya universiteti arxeologlari tomonidan Livanning shimoliy qismida topib o'rganilgan.

Isroil hududida joylashgan dastlabki ibtidoiy odamlar neandertal hisoblanadi. Isroil hududida Homo Sapienslarning paydo bo'lishi bundan 75 ming avval sodir bo'lgan. Isroil hududida Homo Sapienslar neandertallar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganlar. Ubaydiya yodgorligi bundan 1,4 mln yil avval ibtidoiy ajdodlarimizning Afrikadan Yevroosiyoga migratsiyasi jarayoni izlarini kuzatishimiz mumkin. Bundan 20 ming avval ushbu

hududda mavsumiy turar joylar va g'or-makonlar bo'lgan. Ubeydiya yodgorligidan ilk ashel tipidagi tosh qurollar topilgan. Bundan tashqari davriy sanasi 1 400000—250000 ming yilliklarin tashkil etuvchi paleolit davri yodgorliklari ham mavjud bo'lib, ulardan so'nggi ashel tipidagi tosh qurollar qayd etilgan. Iakov qizlari mosti va Tabun g'or makonlari so'nggi ashel tipidagi tosh qurollar qayd etilgan yodgorliklar hisoblanadi. Ubaydiya, hududidan ibtidoiy ajdodlarimizga oid tish namunalari, Iakov qizlari mosti suyak namunalari va Zuttie g'or makonidan esa ibtidoiy ajdodimizning bosh chanog'i (Galiley odami) namunalari topilgan. Falastin hududidagi muste davri, aniqrog'i, neandartellarga oid yodgorliklarga biz Kebara, Amud va Tabun yodgorliklarini keltirib o'tishimiz mumkin. Homo Sapienslarga oid yodgorliklar esa Djebel-Kafze va Sxul g'or makonlari hisoblanadi. Falastin hududida yuqori paleolit davri 48000-20000 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Tabun g'ori paleolit davri arxeologik yodgorligi hisoblanib, Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan. Tabun g'or makoni bundan 500-40 ming yil avval itidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Tabun g'orining yuqori qatlamlari must'e davriga oid bo'lib, yuqori qatlamlardan levallua texnikasi asosida tayyorlangan tosh qurollar topilgan. 1962-1972-yillarda Artur Yelenek tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida so'nggi ashel va yabrud madaniyatlariga oid bo'lgan 1900 ta butun va siniq bo'laklardan iborat bo'lgan tosh qurollar namunalari topilgan. Bundan tashqari Tabun g'or makonidan davriy sanasi 120 ming yilni tashkil etuvchi ayol jinsiga mansub neandertal odamining tana suyaklari topilgan. Bu topilma Isroil hududidagi eng qadimgi ibtidoiy odamlar tana suyaklari hisoblanadi. Kebara g'or makoni arxeologik yodgorlik hisoblanadigan Kechariya yodgorligidan 10 km masofa uzoqlikda Karmel tog'ining g'arbiy yon bag'rida Vadi Kebara nomli makon xududida dengiz sathidan 60-65 metr balandlikda joylashgan. G'or makon bundan 60-48 ming yil avval ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Ushbu yodgorlik Bar Yosef tomonidan gominidlar oilasiga mansub bo'lgan eng



qadimgi ibtidoiy ajdodlarmizning tana suyaklari topilganligi bilan mashhurdir. Ushbu yodgorlik dastlab 1930-yilda Doroti Garrod va Fransis Tyurvil Petr tomonidan o'rganilganligiga qaramasdan eng muhim kashfiyotlar 1982-yilda amalga oshirilgan. 1982-yilda Kebara g'or makonidan neandertal odamining butunligicha saklangan tana suyaklari topilgan. Bu topilmalar arxeologlar orasida "Moshe" deb nomlangan bo'lib, uning yoshi 60 ming yilni tashkil etadi. Sxul yodgorligi Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan bo'lib, dastlab 1982-yilda Doroti Garrod tomonidan o'rganilgan. Ushbu yodgorlik bir vaqtning o'zida ham neandertal ham zamonaviy tipidagi odam Homo Sapienslar tomonidan o'zlashtirilgan. Sxul yodgorligining davriy sanasi 200-45 ming yilni tashkil etadi. Bu davriy sana arxeologik davrlardan hisoblangan muste, ya'ni o'rta tosh davriga to'g'ri keladi. Sxul yodgorligidan 14 ta ibtidoiy ajdodlarmizning tana suyaklari topilgan. Ushbu topilmalarining aksariyat qismi 1932-yilda Teodor Mak Koun tomonidan aniqlangan. Kafzex g'or makoni ham Isroilda joylashgan bo'lib, ilk bora 1934-yilda R. Nevil va M. Stekelis tomonidan o'rganilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida levallua tipidagi tosh qurollar bilan birga 5 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari qayd etilgan. Yodgorlikda tadqiqot ishlari 1965, 1967 va 1971-yillarda ham davom ettirilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 25 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan qadimgi odamlarning tana suyaklari tahlili ularning rivojlangan yaqin sharq gominidlari guruhiga oidligini ko'rsatmoqda. Ba'zi topilmalar esa gibril, ya'ni neandertal va Homo Sapienslar chatishmasidan vujudga kelgan eng qadimgi odamlar ekanligini ko'rsatmoqda. Must'e qatlamlariga oid bo'lgan tosh qurollarning termolyuminestsent tahlili 92-97 ming yilliklarni ko'rsatsa, elektron paramagnit rasonans taxlil natijalari ushbu yodgorlikning davriy sanasini 130-90 ming yil deb ko'rsatmoqda. Bundan tashqari Isroil hududida mikroindustriyali bir nechta qadimgi joy makonlari ham aniqlangan. Bularga biz Yevron, Bizat Ruxama joy makonlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yevron joy

makonining davriy sanasi 1.5-2.4 million yilni tashkil etsa, Bizat Ruxama joymakonining davriy sanasi 1 million yilni tashkil etadi. Homo Sapiens tana suyaklari qayd etilgan yodgorliklardan biri bu Kesem yodgorligi hisoblanadi. Tel-Aviv universiteti arxeolog olimlarining fikriga ko'ra, Kesem yodgorligining davriy sanasi 382-207 ming yillarni tashkil etadi.

## 2-mavzu.Nazorat savollari

1. Falastin, Suriya, Livan, Turkiya, Iroq, Eron, Afg'oniston paleolit davri yodgorliklari.
2. Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari haqida ma'lumot bering.
3. Yaqin va O'rta Sharq xududida o'tkazilgan geomorfologik va stratigrafik tadqiqotlar.
4. El-Masluk yodgorligi haqida ma'lumot bering.
5. Kebara g'or makoni haqida ma'lumot bering.
6. Tabun yodgorligi haqida ma'lumot bering.

## 2-mavzu.Test savollari

1.Ikki tomoni o'tkirlangan qo'l chopqilarini yasashni boshlagan gominid kim?

- A.Homo ergaster
- B.Homo rudolfensis
- C.Homo habilis
- D.Australopithecus garhi

2.Indoneziyaning Yava orolidan E. Dyubua tomonidan topilgan ogimidning nomini aniqlang?

- A.Homo erectus
- B.Homo ergaster
- C.Homo rudolfensis
- D.Homo habilis

3.Pitekantrop va Sinantrop bugungi kunda fanda qanday nom bilan yuritilmoqda?

- A. Homo erectus
- B. Homo ergaster
- C. Homo rudolfensis
- D. Homo habilis

4. Homo erectus lug'aviy ma'nosini aniqlang?

- A. To'g'ri tik yuruvchi odam
- B. Kashf etuvchi odam
- C. Ishbilarmon odam
- D. Aql idrokli odam

5. Australopithecus anamensis yashagan yillarni aniqlang ?

- A. 4,2 mln.
- B. 7 mln.
- C. 2,5 mln.
- D. 1,5 mln.

6. Australopithecus anamensis qachon va qayerdan topilgan?

- A. 1995-y. Keniya
- B. 1974-y. Efiopiya
- C. 1961-y. Tanzaniya
- D. 1891-y. Indoneziya

7. Australopitek anamensis kimning ajdodi bo'lgan?

- A. Australopithecus afarensis
- B. Sahelantrophus tchadensis
- C. Zamonaviy maymunlarning
- D. Neandertallarning

8. 1995-yilda Mishel Bryune tomonidan Chad Respublikasidan topilgan gominid nomini aniqlang?

- A. Australopithecus bahrelghazali
- B. Sahelantrophus tchadensis
- C. Orrorin tugenensis
- D. Ardipithecus ramidus

9. Homo ergasterlar istiqomat qilgan yillarni aniqlang?

- A. 1,9-1,6 mln.

- B. 1,7-1,4 mln.
- C. 1,5-1,2 mln.
- D. 1,4 -1 mln.

10. Homo Ergasterning miya hajmini aniqlang?

- A. 880 kub sm.
- B. 580 kub sm.
- C. 380 kub sm.
- D. 980 kub sm.

### 3-MAVZU. YEVROPA PALEOLITI

#### Reja:

1. Yevropaning geografik joylashuvi.
2. Yevropa qit'asining ilk gominidlar tarafidan o'zlashtirishi muammosi.
3. Yevropa hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi.
4. Paleolit davri va uning bosqichlari: olduvay, ashel, muste va so'nggi paleolit.
5. Neandertal tipidagi odamlarining davri va yashash hududlari. Kromanyon
6. Yevropa mezolit davrida.
7. Yevropa mezolit davri va uning madaniyatlari.
8. Yevropaning mezolit davri yodgorliklari.

**Tayanch iboralar.** Yevropa, Klekton, Madlen madaniyati, Temza daryosi, Fransiya, Ispaniya, Shvettsariya, Belgiya, Germaniya, mikrolit tosh qurollari, Orinyak madaniyati, Solyutre madaniyati, Fransiyadagi Sona va Luara departamenti, Kromanyon yodgorligi, Grimaldi madaniyati, Lasko-g'ori, Altamira g'ori, G. De Mortile, Klovis madaniyati, Y. Kartile, Mezolit davri, Pinnenburg, Dyuvenzee va Oldesloe tsivilizatsiyalari, Fosna(Fosna), komsa (Komsa), va Askola (Askole)madaniyatlari.

**1.1.** Yevropa hududi Shimoliy yarim sharda joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 10 mln km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Uning hududi Shimoliy muz dengizi va Atlantika okeani suvlari bilan yuvilib turadi. Axolisi 740 mln kishini tashkil etadi. Osiyo qit'asi bilan birgalikda Yevroosiyo materigini tashkil etadi. Yevropa hududida joylashgan Klekton-quyi paleolit davrining eng qadimgi yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bundan 550 – 475 ming yillar avval G'arbiy Yevropa hududida tarqalgan madaniyat hisoblanadi. Ushbu madaniyatga tegishli asosiy topilmalar Temza daryosi havzasidan topib o'rganilgan. Klekton kelib chiqishi Buyuk Britaniyadagi Klekton siti shahri yaqinidagi manzilgoh nomidan kelib chiqqan.

Madlen madaniyati – quyi paleolit davri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyat Fransiya, Ispaniya, Shvetsariya, Belgiya, Germaniya hududlarida keng tarqaladi. Davriy sanasi 15-8-ming yilliklarni tashkil etadi. Ushbu madaniyat jamoalarida suyakka ishlov berish san'ati yuqori darajada rivojlangan edi. Madlen madaniyati yodgorliklarida mikrolit tosh qurollariga o'tish bosqichi kuzatiladi. Madlen ovchilari, asosan, g'orlarda va teri hamda suyaklardan qurilgan turar joylarda yashashgan. XX asrlarning oxirlarida G'arbiy Yevropa olimlari tomonidan Madlen madaniyatining dablakki bosqichi sifatida badegulsk mini ajratib ko'rsatadi.

**1.2.** Orinyak madaniyati – quyi paleolitning ilk bosqichiga oid arxeologik manba hisoblanadi. Fransiyaning yuqori Garonna departamentidagi Orinyak g'orida o'tkazilgan tadqiqotlar orqali, ushbu madaniyatga Orinyak madaniyati nomi berilgan. XX asrning boshlarida ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Yevropa hududidan aniqlangan. Orinyak madaniyatiga oid yodgorliklar, asosan, Fransiya hududida keng tarqalgan. Sanasi 33000-19000-yillar bilan belgilanadi. Orinyak madaniyati G'arbiy va Markaziy Yevropada keng tarqalgan.

**1.3.** Solyutre madaniyati – quyi paleolit davrining o'rta bosqichiga oid hisoblanadi. Ushbu madaniyatga tegishli bo'lgan yodgorliklar, asosan, Fransiya va shimoliy Ispaniya hududlarida

keng tarqalgan. Orinyak va Perigorsk madaniyatlari o'rniga kelgan madaniyat bo'lib, o'z navbatida, u o'z o'rnini Madlen madaniyatiga bo'shatib beradi. Orinyan madaniyatining davriy sanasi miloddan avvalgi 18 – 5-ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu madaniyat dastlab G.Mortile tomonidan XIX asrning 60-yillarda aniqlangan va Fransiyadagi Sona va Luara departamenti hududida joylashgan Solyutre manzilgohi nomi bilan bog'liq. Markaziy Yevropa va Rossiyaning Yevropa qismida joylashgan bir qator so'ngi paleolit davri manzilgohlari bilan Solyutre madaniyati o'rtasida bog'liqliklar aniqlangan. Shuning Salyutre madaniyati jamoalari Shimoliy Amerikaga qadar kirib borganligi va u yyerda Klovis madaniyatiga asos solganliklari haqida ham nuqtai nazar mavjud. Shuningdek, Amerikaga dastlabki kirib kelgan ajdodlarimiz Yevropa hududidan kelishgan. Solyutre madaniyatining mahalliy madaniyati sifatida Grimaldi madaniyati hisoblanadi. Altamira yodgorligi yuqori paleolit davri yodgorligi hisoblanib, u ichidan ko'plab ibtidoiy rang tasvir namunalari aniqlangan. Ushbu yodgorlik Ispaniyada, Santandyerdan 30 yillar g'arbiy tomonda joylashgan. 1985-yildan boshlab YUNESKO ning butun jahon me'rosi obyektlari sirasiga kiritilgan. Altamira suratlari ibtidoiy ajdodlarimizning dastlabki diniy tasavvurlari haqida ham ma'lumot beradi. Bu yodgorlik 1879-yilda tasodifan havaskor-arxeolog Marselino De Sautuola va uning 9 yashar qizi tomonidan topilgan. 1880-yilda ushbu yodgorlik suratlari nashr ettirilgan. Yodgorlikning uzunligi 270 metrni tashkil etadi. Yodgorlikda qazishma ishlari 1902-1981-yillar davomida amalga oshirilgan. Xuddi shunga o'xshash yodgorliklar evropaning boshqa hududlaridan ham topilgan. Hozirgi kunda yodgorlik suratlari nusxalari Madrid, Myunxen muzeylarida saqlanmoqda.

1.4. Lasko-g'ori o'zining kattaligi va suratlarining yaxshi saqlanib qolganligi jixatidan Fransiya hududida joylashgan paleolit davri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Dastlab ushbu yodgorlik qadimgi madlen madaniyatiga tegishli deb hisoblangan, keyinchalik esa ushbu yodgorlikning ilk solyutre madaniyatiga

oid ekanligi aniqlandi. Yodgorlik Fransiyaning Dordon departamenti hududida joylashgan, ya'ni Perigyo shahridan 40 kmlar chamasi janubiy-sharqiy tarafda. Lasko yodgorligi 1940-yil 12 sentyabrida to'rtta o'spirinlar tomonidan tasodifan topilgan. Ular o'zlarining topilmalari haqida o'qituvchilari Anri Breylga aytishadi. Anri Breyl tomonidan 1940-yilda yodgorlikning o'rganilishi amalga oshiriladi. Anri Breyl bir necha yil davomida Ispaniya, Portugaliya va Janubiy Afrikada o'tkazadi va 1949-yilda yana Fransiya qaytib keladi. Keyinchalik Severin Blan va Moris Burgon bilan birgalikda Lasko yodgorligida amalga oshirgan tadqiqot ishlarini davom ettiradi. 1979-yilda Lasko yodgorligi YUNESKONing butun jahon me'rosi obyektlari qatoriga kiritiladi. Kro-Man'on yodgorligi Fransiyaning janubi-g'arbiy tarafida, Dordon departamenti hududida joylashgan. Bu yyerda fransuz paleontologi Lui Larte tomonidan ibtidoiy kishilar tana suyaklari qoldiqlari topilgan. Ushbu yodgorlik hududidan chaqmoqtoshdan ishlangan ov qurollari, bezak buyumlari namunalari topilgan. Ushbu topilmalar Gravet va Orinyak madaniyatlari topilmalari sirasiga kiritiladi.

1.5. Mezolit davrida Shimoliy Yevropa hududida ovchilik bilan shug'ullanuvchilar jamoalar madaniyati shakllanadi. Ya'ni bu xo'jalik turi Angliyaning sharqiy viloyatlaridan tortib toki Estoniya, ayniqsa, Bolqonbo'yi hududlarida ravnaq topdi. Miloddan avvalgi 8-ming yillikning o'rtalariga kelib, mezolit davri ovchilari toshlardan boltalar yasab o'rmonlarda daraxtlarni kesishda ulardan foydalanishgan. Ov qurollari, asosan, toshdan ishlangan. Bunday tosh qurollar farxeologiya fanida mikrolit tosh qurollar nomini olgan. Mezolit davri ovchilari tosh qurollardan nafaqat ov jarayonida, balki harbiy maqsadlarda ham foydalanishgan. 1869-yilda G. De mortile paleolit davridan so'ng neolit davri deb hisoblagan. Keyinchalik esa Y. Kartile G.De Mortile fikrlarini tahlil etgan holda shunday xulosaga keldiki paleolit va neolit o'rtasida xiatus mavjud bo'lsa, u holda Yevropa mintaqasi uzoq davriy vaqt davomida insoniyat tomonidan o'zlashtirilmagan. Biroq bu davrga kelib, bu bo'shliqni

to'ldirish imkoniyatini beruvchi bir qancha dalillar qo'lga kiritiladi. 70-yillarning oxirlariga kelib esa shved olimi Torell paleolit davridan neolit davriga o'tish bosqichini "mezolit", ya'ni "o'rta tosh" davri deb nomlaydi. Yevropaning mezolit davri miloddan avvalgi 9-6-ming yilliklar bilan davrlanadi. Yevropada ham mezolit davri buyuk muzliklarining chekinishi va hozirgi zamon iqlimiga o'zgarishi davriga to'g'ri keladi. Muzliklarning chekinishi natijasida iqlim va o'simliklar dunyosi o'zgarib ketadi. Muzlik davrining so'ngi bosqichida Yevropa shimolining katta qismida to'g'risimon o'simliklar hukmronlik qilar edi. Asta – sekinlik bilan muzliklar shimolga tamon chekinadi va hozirgi kunda mavjud bo'lgan boltiq dengizi poydo bo'ladi. Muzlik davrining tugashi bilan Janubiy va Markaziy Yevropada shimol kiyigi yo'qoladi ovchilarning asosiy ov manbasi bo'lib bug'ular va boshqa hayvonlar qoladi. Muzlik davri ovchilarining turar joylari engil tipdagi manzilgoh edi. Yevropada qo'lga o'rgatilgan hayvon bu it hisoblanadi. Yevropaning turli hududlarida mezolit davrida madaniyatlarining kechishi har xil bo'lgan. Shimoliy Yevropa mezoliti Yevropa mintaqasining O'rta Yer dengizi va Atlantika havzalari qismlaridan ancha farq qiladi. Muzlik erishi bilan Yevropa hududidagi yashagan ibtidoiy ajdodlarimiz bug'ular izidan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yangi yerlarni o'zlashtira boshlaganlar. Ibtidoiy ajdodlarimiz shimoliy tomonga siljishi natijasida bu yerlar Gamburg, Feder messer, Orenburg kabi madaniyatlarga asos soladi.

Germaniyaning shimolidagi mezolit davri madaniyatlariga boltalar madaniyati nomi berilgan ushbu madaniyatning asosiy yodgorliklari Pinnenburg, Dyuvenzee va Oldesloe sivilizatsiyalari hududlaridan topib o'rganilgan. Masalan, Pinnenburg qishlog'ida o'tkazilgan qazuv ishlari natijasida bir nechta manzilgohlar, qabrlar va o'choq qoldiqlari aniqlangan.

Shimoliy Skandinaviyaning mezolit davri madaniyatlari Fosna(Fosna), komsa (Komsa), va Askola (Askole)madaniyatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Komsa madaniyati Norvegiyaning (Finmarker) shimoliy qismida,



Finlandiyaning shimoliy qismida Skandinaviya yarim oroligacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan.

Fanda 100 dan ortiq manzilgohlar ma'lum bo'lib, ulardan asosan toshdan ishlangan qirindilar namunalari topilgan.

Finlandiyada komsa madaniyati bilan bir vaqtda askola madaniyati mavjud bo'lgan (unga tegishli manzilgohlar Askola viloyati, Porvan – Yoki yaqinidan topib o'rganilgan) ov qurollari asosan kvartsitdan ishlangan. Ushbu ikkala madaniyat ham miloddan avvalgi 8-ming yilliklar bilan belgilanadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu madaniyat yodgorliklariga o'xshash. Ehtimolki, ularning paydo bo'lishi ajdodlarimizning shimol bug'isi izidan shimol tomonga ko'chishi natijasida paydo bo'ladi. Fosna madaniyati Norvegiyaning g'arbiy qirg'oq bo'yi hududida tarqalgan. Ushbu madaniyatning fosna nomi bilan atalishi shahri nomi bilan bog'liq. Finlandiyaning so'ngi mezolit davri madaniyatlar arxeologiya fanida suomusyarvi nomi bilan ma'lumdir. Ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Finlandiyaning janubiy qismida topib o'rganilgan.

Ushbu madaniyat kareliil hududida ham keng tarqalgan. Bu madaniyatning so'ngi bosqichi neolit davriga xos bo'lsa-da, aholisi sopol buyumlar bilan tanish bo'lishmagan. Bu madaniyatning kelib chiqishi borasida ham bir nechta nuqtayi nazarlar mavjud. Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra Finlandiya ko'rfazining janubiy qirg'oqlari hududlaridan ko'chib aholi bilan bog'lansa, ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra esa, askola madaniyatining so'ngi bosqichi bilan belgilanadi. Yevropaning eng qadimgi madaniyatlaridan biri bu maglemoze madaniyatidir. Maglemoze deb nomlanishi esa Zelandiyadagi Muleruxa shahri nomi bilan bog'liq. Bu yyerda 1900-yilda o'tkazilgan qazishmalar jarayonida qadimgi qishloq izlari topib o'rganilgan. Ushbu madaniyat Angliyadan Boltiqbo'yigacha, janubiy Norvegiyadan Pikardiyagacha boshlgan hududlarda keng tarqalgan. Ushbu madaniyatlarining eng asosiy yodgorliklari Zerlandiya oroli joylashgan xolmgard va Sverdborg; Angliyadagi – Broksbern;

Killing – xit; Nyubyuri; Germaniyadagi – Kalbe; Dyubbertin; Dyukenzee; Shvetsariyadagi – Istabi; Omossen; Sandarna yodgorliklari hisoblanadi. Skandinaviya hududida maslemize madaniyati o‘rniga Konimoze madaniyati keladi.

Azil yodgorligi Ispaniyaning shimoli va Fransiyaning janubidagi Solyutre davri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyatga oid yodgorliklar Fransiya Pireniyasi hududlaridan topilgan. Azil madaniyatini Yevropaning boshqa ilk mezolit davri yodgorliklari Tyongersk va Svidersk madaniyatlari bilan bir vaqtda mavjud bo‘lgan.

### **3-mavzu. Nazorat savollari**

1. Yevropada paleolit davri.
2. Yevropaning paleolit davri yodgorliklari va madaniyatlari.
3. Yevropaning paleolit davri qoyatosh suratlari.
4. Paleolit davri qoyatosh suratlarida ibtidoiy ajdodlarimiz dunyo qarashining tasvirlanishi.
5. Yevropa eng qadimgi odamlarning paydo bo‘lishi.
6. Paleolit qoyatosh suratlarida tasvirlangan obrazlar.
7. Villafrank faunasiga ta’rif bering.
8. San-Vale yodgorligi haqida ma’lumot bering.
9. Yevropada Homo antecessor.
10. Ashel madaniyati haqida ma’lumot bering.
11. Muste madaniyati haqida ma’lumot bering.

### **3-mavzu. Test topshiriqlari**

1. O‘rta Sharq atamasi Britaniyaning Hindiston ishlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan nechanchi yildan boshlab qo‘llanilgan.  
A. 1850-yilda  
B. 1902-yilda  
C. 1888-yilda  
D. 1860-yilda

1.1. O'рта Osiyoda ilk paleolit davrining o'rganilish tarixi nisbatan qisqa. 1938-yili Okladnikov A. P. tomonidan muste davri madaniyati qoldiqlari va neandertal bolasining qabri joylashgan Teshiktosh g'orining ochilishini O'рта Osiyodagi eng qadimgi makonlarini ilmiy o'rganishning boshlanishi deb hisoblash mumkin.

Nafaqat O'рта Osiyo, balki Markaziy va Sharqiy Osiyo qadimgi madaniyatlarini anglashda Tojikiston hududidagi paleolit davriga oid turar joylarning ochilishi muhim ahamiyatga egadir. Qoratepa I va Lohutiy I joy-makonlarida qazish ishlari muntazam olib borilgan. Ikkalasidan ham toshqotishmadan yasalgan mehnat qurollari topilsada, Lohutiy I nisbatan ancha rivojlangan madaniyatga ega.

Janubiy Tojikiston topilmalari tadqiq qilingunga qadar O'рта Osiyo hududidan mustegacha bo'lgan davrga oid 10 ta alohida makon o'rganilib, undan 9 tasi tog'da, qolgan bittasi esa tekislikda Krasnovodsk yarim oroli hududida joylashgan.

O'рта Osiyoda muste davrining o'rganila boshlanganligiga 50 yildan ortiq vaqt o'tdi. Dastlabki makon 1938-yili A. N. Okladnikov tomonidan o'rganila boshlangan g'or makonidir. Undan keyin O'рта Osiyo hududidan muste davriga oid 200 ga yaqin joy-makonlar topib o'rganildi. V. A. Ranov O'рта Osiyoda muste davri madaniyatini o'rganish jarayonida uni levallua-muste va muste-soan guruhlariga bo'lishni tavsiya qiladi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki birinchi guruhi ham bir xil bo'lmasdan uchta variantga bo'lingan.

1. Levallua. Unga Xo'jakent, Jarqo'ton, Obirahmat va Qo'tirbuloq makonlari kiradi.
2. Levallua-muste. Unga Qayroqum, Qopchig'ay, Tossor va Farg'ona makonlari kiradi.
3. Tog'li muste. Unga Teshiktosh, Semiganch, Og'zikichik g'or-makonlari kiradi.
4. Muste-Soan. Unga Qora-Bura, Kuxi-Piyoz.

Keyinchalik yana bir texnik varianti - tishli muste davom etgan (Ko'lbuloq)

Muammoni yechish uchun R. X. Sulaymonov o'zgacha yondashadi. U O'rta Osiyodagi muste davri makonlarini mehnat qurollarini yasash usullari, silliqlash va ularning miqdoriga ko'ra ikki yirik guruhga bo'ladi. Birinchisiga Ko'lbuloq va Bo'zsuv, ikkinchisiga Teshiktosh, Xo'jakent, Farg'ona makoni, Qayroqum, Jarqo'ton, Obirahmat manzilgohlar kiradi.

1.2. Muste davri manzilgohlar O'rta Osiyoning barcha hududlarida aniqlangan, lekin ularning ko'pchiligi O'zbekiston va Tojikiston hududlaridan topib o'rganilgan bo'lib, ular nafaqat yer ustida balki erning ostki qismida ham ko'pchilikni tashkil etadi. Boysun tog'ining janubiy yonbag'ridan topilgan Teshiktosh g'ori muhim ahamiyatga ega. Bu yyerda beshta madaniy qatlam aniqlangan. Teshiktosh g'oridan siniq uchrindi, tosh parchalari, plastinka-parrakcha, nukleuslar, tosh bo'lakchalaridan iborat uch mingga yaqin tosh qurollari topilgan.

Teshiktosh g'ori tosh qurollari Samarqand janubidagi Omonqo'ton qurollariga o'xshash. Bu turdagi mustega Vaxsh tog' tizmalarining janubi-g'arbiy qismida joylashgan Og'zikichik g'ori ham taaluqlidir. G'or makonlardan Toshkentdan shimoli-sharqda Tangritog'ning g'arbida Chotqol tog' tizmalarida joylashgan Obirahmat g'orini ko'rsatish mumkin. Poltov (Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani) g'ori tosh qurollari Obirahmat va Xo'jakent tosh qurollaridan farq qilmaydi.

Oloy tog' tizmasining shimoliy tarmog'ida Farg'onadan Sharqda joylashgan Selung'ur g'oridan mil. avv. 1 mln. 100- ming - 1 mln-yilliklarga oid ashel qatlami qazib o'rganilgan. Selung'ur g'ori topilmalari eng Qadimgi mehnat qurollari ko'inishida bo'lib, o'ziga xos shakllariga ega bo'lsa-da, Janubiy va janubi-sharqiy Osiyoning eng qadimgi manzilgohlari mehnat qurollari bilan yaqin o'xshashlikga ega. Selung'urdan ashel davri mehnat qurollaridan tashqari arxantrop qoldiqlari ham topilib, uni jahonning mashhur manzilgohlar qatoriga qo'yish mumkin.

Ochiq turdagi mazilgohlarga Vaxsh vohasida joylashgan bir-biriga o'xshash Qora-Bura va Oqjarlar oiddir. Qora-Bura joy-makonidan juda ko'p tosh parchalari va mehnat qurollari topilgan

bo'lib, ularning yarmi qurol qilish uchun tayyorlangan mayda toshlardan iborat. Ular nukleuslar, uchrindi, uchli paykonlar. Ayniqsa, chopper va choppinglar ko'pchilikni tashkil qiladi. Mustae davrining shunga o'xshash shakldagi materiallari Sirdaryo havzasidagi Qayroqum va Farg'onadagi makonlaridan ham topib o'rganilgan.

Ochiq turdagi makonlarga Angren daryosining o'ng sohilida joylashgan Ko'lbuloq va Samarqandning janubi-g'arbidagi Qo'tirbuloqlar oiddir. Ko'lbuloq topilmalari xilma-xil va unga xos makonlari bilan ajralib turadi. Mehnat qurollari - nukleuslar, tishli tosh qurollar, qirg'ichlar, tosh paykonlar, sixchalar, plastinkalar, tosh pichoqlar va boshqa tosh bo'laklaridan iborat. Bu makon mehnat qurollari O'rta Osiyoning boshqa makonlaridagi bilan o'xshash.

Qo'tirbuloq makonidagi tosh qurollarini chaqmoqtosh diorit, kvartsit va daryo toshlaridan yasalgan o'tkir uchli paykonlar, qirg'ichlar, teshgichlar, parmalar, bargsimon qurollar hamda daryoning shag'al va chaqmoq toshlaridan yasalgan chopping va chopper, yassi va gardishsimon nukleuslar, uchrindilar va boshqalardan iborat.

Qo'tirbuloq makonidagi toshdan yasalgan mehnat qurollarining yasalish usullariga Zirabuloq makoni (Zarafshon vohasi) topilmalarini ham kiritish mumkin.

Qirg'izistonning mustae davriga oid makonlari yaxshi o'rganilmagan Tossor va Georgiy do'ngligi bu yerdagi mashhur makonlaridir. Tossor tosh qurollari muste davrining so'nggi bosqichi va so'nggi paleolitning ilk bosqichlariga oid. Georgiy do'ngligi mehnat qurollari yuqori pleystotsenning boshlanish davriga oid. Janubiy Qirg'izistondagi Isfara daryosi vodiysidagi Xo'jag'ayir degan joydan ham mustae davriga oid manzilgoz topilgan. U yerdan toshdan yasalgan-parrakchalar, qirg'ichlar, pichoqsimon qurollar, nukleuslar, sixchalar topilgan.

Teshiktosh g'or-makonidan topilgan yosh bolaning bosh chanog'i o'sha davr kishilarining qiyofasini tiklashga asos bo'lib, u O'rta Osiyo hududidagi yagona paleoantropologik topilma

hisoblanadi. Bosh chanog'i yuqori madaniy qatlamdan topilgan. Ko'rinishdan bola dafn etilgach, yovvoyi hayvonlarga yem bo'lgan, shuning uchun bola skeleti to'liq saqlanmagan. Antropolog olim M. M. Gerasimov bo'lakchalarga bo'linib ketgan bosh chanoqni tiklab, bolaning qiyofasini tiklashga erishgan. Natijada suyaklar 9 yashar bolaga tegishli bo'lib, morfologik jihatdan neandertal shaklida ekanligi aniqlangan. Shu bilan birgalikda Teshiktosh topilmasi evropoid irqiga mansub ekanligi ham aniqlangan. Keyingi qilingan tahlillarning xulosasiga ko'ra, O'rta Osiyoning janubiy hududlari irq shakllangan uchoqlardan biri hisoblanadi.

Bola suyagining qoldiqlari atrofida tog' echkisining to'rt juft shoxi tartib bilan terib qo'yilgan bo'lgan. Qabr olov qoldiqlarining izlari ham aniqlangan. Ko'rinishidan teshiktoshliklarda vafot etganlarni dafn qilish odatlari mavjud bo'lib, diniy tasavvurlar shakllangan.

Teshiktoshdan ko'plab yovvoyi hayvon suyaklari topilgan. Ular tog' echkisi, bug'u, ot, yo'lbars, ayiq, tulki, 20 dan ortiq qush suyaklaridan iborat. Omonqo'ton makonida muflon suyaklar ko'plab topilgan. Teshiktoshga nisbatan esa bu yerdan bug'u, ayiq ancha kam. Bu yerdan Teshiktoshda uchramaydigan Sibir kiyigi va cho'l toshbaqasi suyaklari ham mavjud.

Og'zikipichikdan topilgan hayvon suyaklarining 14 tasi Omonqo'ton va 6 tasi Teshiktoshlardagi hayvon suyaklari bilan bir xil. Umumiy suyaklarning ko'pchiligini cho'l toshbaqasi suyaklari tashkil etadi. Bundan tashqari yovvoyi qo'chqor va echkilar, ot, eshak, bug'i hatto jundor nosorog suyaklari ham topilgan.

Obirahmat g'oridan topilgan suyaklarning yarmidan ko'prog'ini yovvoyi echki tashkil etadi. Bug'u, qo'y, yovvoyi cho'chqa suyaklari ham mavjud. Obirahmat, Omonqo'ton va Teshiktosh makonlari topilmalarida unchalik farq katta emas. Bular must'be davrining O'rta tog' variantiga mansub bo'lib, asosan tog' echkisiga ov qilishgan. G'or-makonlar ichida Qo'tirbuloq topilmalari boshqalardan ancha farq qiladi. Undagi

topilgan suyaklarning deyarli yarmi o'tniki, keyingi o'rinda filniki. Tur (yovvoyi buqa), Buxoro bug'usi suyaklari esa kamchilikni tashkil etadi. Umuman, O'rta Osiyoning muste davri makonlari ma'lum hudud tabiiy sharoitlariga mos ixtisoslashgan ovchilikning mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda.

1.3. So'nggi paleolit davri bir necha million yil davom etgan Qadimgi tosh asrining so'nggi bosqichi bo'lib, o'zidan oldingi muste davriga nisbatan yaxshi o'rganilmagan, ochilgan joy-makonlar soni ham kamchilikni tashkil etadi. O'rta Osiyoda yuqori pleystotsenning ikkinchi yarmida noqulay ob-havo sharoitiga moslashgan turar joylar bo'lganligidan dalolat beruvchi moddiy topilmalar uchramaydi. Bu davr kishilari faqat g'orlardagina yashamasdan, vodiylar va daryo bo'ylariga ham tushib kelganlar va shu erlarda istiqomat qilganlar. Shuning uchun ularning makonlari tabiat injiqliklari natijasida nobud bo'lgan va keyinchalik erlarning o'zlashtirilishi tufayli madaniy qatlamlar yo'q bo'lib, hozirgi paytda saqlanib qolmagan. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davri mil. av. 34-ming yillikdan 10-ming yillik (mil. av. 8300 yil atrofi)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. So'nggi paleolit davriga oid kam sonli makonlar davrlarga bo'lish imkoniyatini qiyinlashtirsada, ularning topilmalarini u yoki bu darajada aniqlash mumkin.

V. A. Ranov tomonidan so'nggi paleolit davrining quyidagi to'rtta varianti ajratib ko'rsatiladi: Qorakamar, Xo'jag'or, Samarqand, Ko'lbuloq. Dastlabki ikkitasi bitta taraqqiyot bosqichida bo'lib, ko'rinishdan ularni birlashtirish mumkin.

Qorakamar varianti Turkmanistondagi Krasnovodsk yarim orolida joylashgan Yangaja II ustaxona-makoni misolida aniqlangan. Bu makondan jelavkalar, nukleuslar, siniqlar, parrak va parrakchalar, teshgich, keskich va boshqa tosh qurollari topib o'rganilgan. Ular orasida nukleussimon qirg'ichlar diqqatga sazovor bo'lib, ularga o'xshash qurollar Falastinning so'nggi paleolit davri yodgorliklarining quyi qatlamidan ham topib tekshirilgan. Tojikistondagi Xo'jag'or makonidan esa oq, qora va ko'k rangdagi chaqmotoshlardan yasalgan mehnat qurollari

to'plami topib o'rganilgan. Bu tosh qurollar nukleus, qadama, plastinka va boshqalardan iborat. Bulardan tashqari maxsus mehnat qurollari (parmalagich, teshgichlar) ham topib o'rganilgan.

Tojikiston Pomir tog' tizmasidan Darvoza tog'ining g'arbiy qismidagi daryo vohasida ko'p qatlamli Shug'nou joy-makoni joylashgan. Bu makonda to'rtta madaniy qatlam aniqlangan. Makonning umumiy maydoni 500 m. kv. bo'lib, madaniy qatlamlar bir-birlariga nisbatan kichiklashib boradi. Birinchi va ikkinchi madaniy qatlamlarda olov qoldig'i izlari yoki kuygan tuproq izlari topib tekshirilgan. Uchinchi madaniy qatlamdan esa ish joyi o'rni aniqlangan. To'rtinchi madaniy qatlamdagi qoldiqlarga ko'ra bu qatlamda yashash joylari bo'lmagan. Olov qoldiqlari makonda odamlar uzoq yashamaganliklaridan dalolat beradi. Mehnat qurollariga ko'ra manzilgoh bu yyerda yashagan ovchi qabilalarining vaqtinchalik lageri bo'lganligidan guvohlik beradi. Shug'noudan topilgan barcha tosh qurollarni uch (I-madaniy qatlam, II-madaniy qatlam, III-madaniy qatlam) guruhga bo'lish mumkin. Birinchi madaniy qatlamdan ko'p sonli plastinka, nukleus-qirg'ichlar topilgan. Mehnat qurollari bir xilda (keskich, plastinka, retushli parrakchalar va boshqalar).

Ikkinchi madaniy qatlamda plastinkalar ko'pchilikni, nukleuslar esa kamchilikni tashkil etadi. Ammo qirg'ichlar, ushatgichlar, keskichlar soni ko'payadi. III va IV madaniy qatlamida esa kam sonli plastinka va nukleuslar topilgan. Umuman bu madaniy qatlamdagi topilmalarda muste davri tosh qurollari belgilari mavjud bo'lib, Obirahmat tosh qurollariga o'xshash. Bu esa pastki ikki madaniy qatlamning yoshi O'rta paleolit davri bilan belgilanishini ko'rsatadi. Samarqand manzilgohi shahar markazida Siyobcha soyining o'ng sohilida joylashgan. Makonning madaniy qatlami 3-4 va 3-7 metr qalinlikda. Madaniy qatlami turli qalinlikka ega. Bu makondan 75 mingga yaqin tosh qurollar topilgan. Qurollarning ko'pchiligi chaqmoqtosh, diorit, amfibolit, kabi jinslaridan yasalgan. Tosh qurollar uchun xomashyo 7-8 km. shimolda joylashgan. Cho'pon



ota qoyalaridan olib kelingan bo'lishi mumkin. Bu yyerdagi mehnat qurollari qirg'ich, keskich, sixchalar, pichoqlar, gardishsimon nukleuslar, uchrindilar, ushatgichlar, boltalar va yupqa parrakchalardan iborat. Bular orasida hayvon terilariga ishlov berish uchun mo'ljallangan qirg'ichlar, teshgichlar va suyakdan yasalgan mehnat qurollari ajralib turadi. Ayniqsa topilmalar orasida 16 sm. tosh bolta, tesha vazifasini bajaruvchi tosh qurol diqqatga sazovor bo'lib, boshqa manzilgohlardan ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyatdir. Samarqand manzilgohi tosh qurollarining yasaliş texnikasiga ko'ra Xo'jamag'iz manzilgohinikiga o'xshash. Bu yerda ibtidoiy odamlar yasagan chaylarning izlari ham uchraydi. Bu esa yuqori paleolit davriga kelib engil turar joylar qura boshlaganliklarini to'liq tasdiqlaydi. Bu yerdan topilgan chaylaning maydoni 100 metr kvadratni tashkil etadi. Ko'lbuloq makoni. Ko'lbuloq O'rta Osiyodagi tosh asri manzilgohlarning ajoyib namunasi hisoblanadi. Makon Ohangaron shahridan 10-12 km. g'arbda, Chotqol tog'ining janubiy yonbag'ridan chiqadigan Qizilolma soyi bo'yidagi adirliklarda joylashgan. Bu makon bir necha madaniy qatlamlardan iborat bo'lib, quyi qatlami ilk tosh asriga, yuqoridagi uchta qatlami esa so'nggi paleolit davriga oid. Ushbu madaniy qatlamlardan gulxan, ko'mir qoldiqlari, kul hamda tosh buyumlar - nukleuslar, tishli tosh qurollari, qirg'ichlar, tosh paykonlar, sixchalar, plastinkalar, tosh pichoqlar topib o'rganilgan. Umuman olganda, mehnat qurollari manzilgohning muste davridagi xususiyatlarini saqlab qoladi. O'rta Osiyoning bu davrga oid manzilgohlarda oldingi davrga nisbatan antropologik topilmalar va hayvon suyaklari qoldiqlari ko'plab uchraydi. Samarqand manzilgohidan antropologik topilmalar aniqlangan bo'lib, ular 25 yoshlardagi kramanyon tipidagi ayolning elka suyagi, pastki jag'ining 9 ta tishi va boshqa tishlaridan iborat. Keyinchalik birinchi topilmaga o'xshash 35 yoshlardagi erkak yoki ayolga tegishli bo'lgan 10 ta tishi saqlangan pastki jag' topilgan. O'rta Osiyoning so'nggi paleolit davriga oid ko'pgina makonlarda hayvon suyaklari ko'proq uchraydi. Masalan, Shug'nou

makonidagi o'choqlar yonida ot, xo'kiz yoki bizon, qo'y (echki)larning suyaklari topib o'rganilgan. Samarqand manzilgohida ham hayvon suyaklari ko'plab uchraydi. Bu yerdagi suyaklarning ko'pchilligini ot, so'nggi paleolit davri eshagi, ibtidoiy turlarniki tashkil etsa, tuya, Buxoro bug'usi, cho'l qo'chqori nisbatan kamroq, jayron, toshbaqa, fil yoki nosorog, bo'ri va qushlarning suyaklari esa juda kamchilikni tashkil etadi. Bu hududda cho'l, to'qay, tog' va tog' oldi hududlarga mansub hayvonlar ko'p bo'lgan. Ko'lbuloqdan bug'u, ot, sirtlon, yovvoyi qo'chqorlarning suyak qoldiqlari topilgan. O'rta Osiyodagi muste va so'nggi paleolit davri manzilgohlarni har tomonlama o'rganish ibtidoiy odamlar tabiat bilan uzviy bog'langanligini va o'z faoliyatlarida tosh qurollardan keng foydalanganligini hamda ularni uzluksiz rivojlantirib borganligini ko'rsatadi.

#### **4-mavzu. Nazorat savollari**

1. MDH davlatlarida paleolit davri yodgorliklarining o'rganilishi tarixi.
2. Markaziy Osiyo paleolit davri yodgorliklari.
3. Teshiktosh va Obirahmat g'orlari.
4. Laxutiy yodgorligi haqida ma'lumot bering
5. Qoratov yodgorligi haqida ma'lumot bering
6. Qopchig'ay, Tossor va Farg'ona makonlari haqida ma'lumot bering.
7. MDH davlatlari hududidan topilgan eng qadimgi odamlarga tegishli topilmalar haqida ma'lumot bering
8. O'rta Osiyoda muste davri madaniyatining tarqalishi haqida ma'lumot bering.
9. Selung'ur yodgorligi haqida ma'lumot bering.

#### **4-mavzu. Test topshiriqlari**

1. Yevropa hududi aholisi necha mln kishini tashkil etadi  
A. 740 mln

- B. 840 mln
- C. 1 milliard
- D. 690 mln

2. Yevropa hududida joylashgan paleolit davrining eng qadimgi yodgorliklaridan birini aniqlang?

- A. Klekton-quyi
- B. Altamira yodgorligi
- C. Kro-Man'on yodgorligi
- D. Lasko yodgorligi

3. Madlen madaniyati – qaysi davr madaniyati hisoblanadi?

- A. Quyi paleolit davri
- B. Mezolit davri
- C. So'ngi paleolit davri
- D. Neolit davrining boshlarida

4. Madlen madaniyatining asosiy jihatlaridan biri?

- A. Dehqonchilikning paydo bo'lishi
- B. Temir qurollar paydo bo'ladi
- C. Mikrolit tosh qurollariga o'tish
- D. Olovni ixtiro etilishi

5. Orinyak madaniyatiga oid yodgorliklar asosan qaysi hududida keng tarqalgan.

- A. Angliya
- B. Amerika
- C. Germaniya
- D. Fransiya

6. 1985-yildan boshlab YUNESKO ning butun jahon me'rosi obyektlari sirasiga kiritilgan yodgorlik.

- A. Lasko yodgorligi
- B. Altamira yodgorligi
- C. Sandarna yodgorligi
- D. Ubeydiya yodgorligi

7. Fransiyaning Dordon departamenti hududida joylashgan yodgorlik qaysi?

- A. Lasko yodgorligi
- B. Altamira yodgorligi

C. Sandarna yodgorligi

D. Ubeydiya yodgorligi

8. Paleolit atamasi nechanchi yilda kiritilgan?

A. 1865-yilda

B. 1863-yilda

C. 1844-yilda

D. 1867-yilda

9. Dastlabki diniy qarashlar qachon paydo bo'lgan?

A. O'rta tosh davri

B. Yuqori paleolit

C. Olduvey davri

D. Mezolit

10. Homo erectus Yevropada qachon paydo bo'lgan?

A. Bundan 1.3 mln yil avval

B. Bundan 1 mln yil avval

C. Bundan 2.3 mln yil avval

D. Bundan 1.8 mln yil avval

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Potts.D.T. A companion to the archaeology of the ancient Near East. West Sussex, PO19 8SQ, UK.
2. Lawrence Guy Straus., Berit Valentin Eriksen., Jon Erlandson., David R. Yesner. Humans at the End of the Ice Age: The Archaeology of the Pleistocene/Holocene Transition. 1996. New York.
3. Martin Hall, Stephen W. Silliman. Historical archaeology. UK. 2006.
4. Robers. Evolution: The Human story. New York. 2011.
5. Anati E. Les origins de l'art et la formation de l'esprit humain. Paris, 1989.
6. David McDowall. An illustrated history of Britain. UK. 2006.

### III BOB. MEZOLIT DAVRI ARXELOGIYASI

#### 1-Mavzu. Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo paleolit va mezolit davrida

##### Reja:

1. Janubiy-Sharqiy Osiyoning geografik joylashuvi.
2. Janubiy-Sharqiy Osiyoning arxeologik o'rganilishi tarixi.
3. Janubiy-Sharqiy Osiyoning paleolit davri yodgorliklari.

**Tayanch iboralar.** Hindiston, Hindgang tekisligi, Anketil Dyuperron, Ellor, Kanxer va Elefant orollari, ashel va quyi ashel bosqichlari, Langxnadj yodgorligi, Bagor yodgorligi, Soan, Maxareva, Madras texnikasi, Chongokni, Sankaliya, Ximolay, V.N. Misra, Shri Lanka.

**1.1. Hindiston Respublikasi — Janubiy Osiyodagi davlat.** Hududi shimoldan janubga 3214 km, garbdan sharqqa 2933 km ga cho'zilgan. Shimolda Himolay tog'lari, g'arbda Arabiston dengizi, sharqda Bengaliya qo'ltig'i bilan o'ralgan. Hindiston tarkibiga Arabiston dengizidagi Lakkadiv va Amindiv orollari, Bengaliya qo'ltig'idagi Andaman va Nikobar orollari ham kiradi. Maydoni 3,3 mln. km<sup>2</sup>. Aholisi 1 mlrd. 49,5 mln. kishi (2002). Poytaxti - Dehli sh. Ma'muriy jihatdan 28 shtat va 7 ittifoq hududga bo'linadi.

Hindiston qirg'oqlari kam parchalangan, past, qumli. Asosan, Hindiston yarim oroli va Hind-gang tekisligida joylashgan; Himolay va Qoraqurum toglarining bir qismini o'z ichiga olali. Hindiston hududining 3/4 qismi tekislik va yassitoglik. Hindiston yarim orolining deyarli hammasini Dekan yassitogligi egallagan (sharqqa tomom 900 m dan 300 m gacha pasayib boradi). Hindiston yarim oroli shimolida allyuvial Hindgang tekisligi joylashgan. Yer sharidagi eng baland tog' tizmasi - Himolay (Hindistonda balandligi 8126 m, Nangaparbat togi) va Qoraqurum tog'lari Hindistonni shimoldan to'sib turadi. Hindsitonda foydali qazilmalarda toshko'mir, temir rudasi, titam,

oltin, tabiiy gaz, marganets, xromit, boksit, olmos, qimmatbaho toshlar, mis, neft, slyuda, qo'rgoshin konlari bor. Iqlimi, asosan, tropik iqlim, shimolda tropik mus-sonli iqlim. Iyun — oktyabrda issiq va nam, noyabr— fevralda quruq, salqin, mart — mayda juda issiq va quruq iqlim. Nam mavsumda yillik yog'inning 70—90% yog'adi. Yillik yog'in g'arbiy Gat va Himolay tog'larining shamolga ro'para yom bag'irlarida 5000– 6000 mm, Shillong platosida 12000 mm (Yer yuzidagi eng seryogin joy), Hindgang tekisligida 100 mm, Hindiston yarim orolining markaziy qismida 300–500 mm. Yanvarning o'rtacha xarorati tekisliklarda 15° (shimolda), 27° (janubda), may oyiniki hamma joyda 28–35°, ayrim vaqtlarda 48°. Tog'larda o'rtacha harorat yanvarda -G, —8°, iyulda 18—23°. Asosiy daryolari: Gang, irmog'i Jamna, Hind (yuqori oqimi), Braxma-putra (quyi oqimi), Narmada, Goda-vari, Krishna. Daryolari yozda sersuv (musson yomg'irlari davrida toshadi), sug'orishda keng foydalaniladi, ayrimlarida kema qatnaydi. Tuproqlari Hindiston hududining aksari qismida qizil, Dekan yassitog'ligida qora, Hindgang tekisligi va dengiz bo'yi pasttekisliklarida jigarrang tuproq. Himolay tog'lari yom bag'rida tog'-jigar rang, sariq, tog' qo'ng'ir-o'rmon, podzol, tog-o'tloqi tuproqlar pastdan yuqoriga almashinib boradi. O'simliklardan akatsiya, bambuk, kokos va xurmo palmasi keng tarqalgan. Mamlakatning 25% o'rmon. Himolay tog'larining quyi yon bag'irlarida terak, yuqorida tik, sandal, himolay kedri, qoraqaragay, oqqarag'ay o'sadi. G'arbiy Gat tog'lari yon bag'ri, Gang va Braxmaputra deltalari, Sharqiy Himolay tog'oldi doim yashil o'rmonlardan iborat. Hindistonda o'simliklarning 21 ming turi tarqalgan. Unda Yer yuzida mavjud bo'lgan barcha o'simlikning yarmidan ko'pini uchratish mumkin. Hayvonot dunyosi xilma-xil. Sut emizuvchi hayvonlarning 350 turi, qushlarning 1600 dan ziyod turi bor. Hindiston hududida fil, maymun, karkidon, sher, qoplon, yo'lbars, mangust va boshqa hayvonlar yashaydi, ilomning deyarli barchaturi mavjud. Mamlakatda 75 milliy bog' va 420 dam ortiq qo'riqxonalar mavjud.

irik milliy bog'lari: kaziranga, Manas, Dachigan, Dadva, "Gullar vodiysi" (Uttar Pradesh), Sariska va boshqalar.

Hindistonning qadimgi davr yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar dastlab Yevropada XVI-XVII asrlarda missionerlar va sayohatchilar tufayli ma'lum bo'la boshlaydi. Biroq bu qadimgi davr yodgorliklarni o'rganish ishlari XVIII asrning ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Bu yodgorliklarni o'rganish tarixiy geografiya malumotlari asosida amalga oshiriladi. Mashxur tarixchi olimlardan Anketil Dyuperron Ellor, so'ngra Kanxer va Elefant orollaridagi yodgorliklarni o'rganish va yodgorlikranning chizmalarini yaratish ishlarini amalga oshiradi. 1784-yilda Kalkuttada Osiyo jamiyati tashkil etiladi. Bu jamiyatning asosiy maqsadi qadimgi davr yodgorliklari va san'atini o'rganish edi. 1861-yilda A. Kanningxem rahbarlik qilgan Shimoliy Hindiston Arxeologiya qo'mitasi tashkil etiladi. 1872-yilda Hindiston qadimiyotlari nomli jurnal nashr etila boshlanadi. Hindiston, Pokiston va Shri Lankada keng miqyosda arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlanadi. Bu tadqiqot natijalari aks etgan Puratatva, Hind arxeologiyasi, Pokiston arxeologiyasi, Qadimni Nepal, Qadimgi Seylon jumallari nashr etiladi. Geologik davrlardan biri to'rtlamchi davrda Hindistonda janubdan shimolga qarab iqlimning o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. So'nggi pleystotsen va goltsen davrida Hindistonda muzlik davrining eng cho'qqiga chiqqan davrini kuzatishimiz mumkin. Olimlarning taxminiga ko'ra, bundan 10 000 yil burun Hindistonda iqimning iliqlashishi sodir bo'ladi. Bu iqlimga xos mezofil tabiat shakllanadi. Hindiston hududi tosh davridan boshlab ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirila boshlangan. Hindiston hududidagi dastlabki tosh davri yodgorligi 1863-yilda R.B. Fut tomonidan Madras yaqinidan topilgan. Bu makondan topilgan tosh qurolar tashqi ko'rinishiga ko'ra bodomsimon shaklda bo'lib, fanga madras tosh qurollari nomi ostida kiritilgan. Madras tosh qurollari yordamida ibtidoiy ajdodlarimiz o'zni himoya qilgan, daraxt ildizlarini kovlab olgan, xayvonlarni ov qilgan.

Bu tosh quollarini tayyorlashda asosiy xomashyo kvartsit hisoblangan. Madras texnikasini bosqichma-bosqich rivojlanishi Yevropaning shell, ashel va quyi ashell bosqichlariga to'g'ri keladi. Hindistonning shimoliy qismida esa Soan daryosi xavzasida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli makon topilgan bo'lib, unning hududidan ko'plab tosh quollar namunalari topilgan. Bu makon va tosh quollar olimlar tomonidan fanga Soan madaniyati nomi ostida kiritilgan. Tosh quollari tayyorlanish texnikasiga ko'ra ilk, o'rta va rivojlangan soan davrlariga tegishli hisoblanadi. bundan tashqari Hindistonning janubida, ya'ni Tungaxadr hududidan aralash holdagi quyi paleolit davri makonlari va tosh quollari qayd etilgan. Qadimgi Hindiston hududida Homo sapienslarningizlari haqida ma'lumot beruvchi yodgorlik Batadombalen va Shri Lanka orolida Belilen yodgorliklari hisoblanadi. Narmada vodiysida Yavan Xomo Erektusiga yaiqin bo'lgan odamsimon maymunlarning bosh chanog'i qoldiqlari aniqlangan. Fanga ushbu topilma 1985-yilda Homo erectus narmadiensis nomi bilan kiritilgan. Davriy sanasi 236 ming yilni tashkil etadi. Odai joy makonidan esa Homo erectus eki ilk Homo sapienslarga oid bo'lishi mumkin bo'lgan 5 yoshli bolaning tana suyaklari topilgan. Tik yuruvchi ibtidoiy odamlar pleystotsen davrida Yuqori Pandjobning Potxar platosi va Ravalpindi yaqinidagi Soan daryosi bo'ylarida yashagan bo'lishi mumkin. Shuningdek, Hindistonning paleolit davri Soan madaniyati topilmalari Hindiston, Nepal va Pokiston chegaralarida joylashgan Sivalik hududidan ham aniqlangan. Hindiston hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Homo sapiens bundan 75 ming yil avval Janubiy Osiyoga migratsiya qilgan. Hindiston hududida joylashgan Madurai axolisi DNK namunalari tahlili ularning qachonlardir bu hududga migratsiya qilgan Homo sapienslar avlodi ekanligini ko'rsatmoqda. Keyinchalik esa Homo sapienslar butun Janubiy-Sharqiy Osiyo bo'ylab tarqala boshladilar. Bundan 40 ming avval esa Homo sapienslar tomonidan Avstraliya hududi o'zlashtirilgan. Shri Lanka hududidan ham Homo sapienslarga



oid tana suyaklari namunalari topilgan bo'lib, ularning davriy sanasi 34 ming yilni tashkil etadi. Hindistonning mezolit davri sanasi miloddan avvalgi 10-4 ming yilliklar bilan belgilanadi. Hindistonning mezolit davri yodgorliklariga Langnadj yodgorligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Hindistonda ham yer yuzining boshqa qismlarida bo'lgani kabi iqlimning o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Bu iqlimga xos flora va fauna dunyosi shakllanadi. Langxnadj yodgorligidan tashqari Radjaston hududidan agor yodgorligi o'rganiladi. Langxnadj yodgorligi mashhur hind olimi X.D. Sankaliya va Bagor yodgorligi esa V.N. Misra tomonidan o'rganiladi. Yodgorliklarning arxeologik jixatdan o'rganilishi natijasida uchta taraqqiyot bosqichi aniqlanadi.

**1.3. Janubiy-Sharqiy Osiyoning paleolit davri yodgorliklari**  
Birmadagi ilk Anyat, Indoneziyaning Yava orolida joylashgan Pachitan, Vjetnamdagi Shonvi, Malayziyadagi Kota-Tampan va boshqa bir qator yodgorliklarni keltirib o'tishimiz mumkin. O'rta va yuqori paleolit davrida Janubiy-Sharqiy Osiyoning paleolit davri moddiy madaniyati Ko'hna dunyoning boshqa xududlariga nisbatan o'ziga xos taraqqiyot yo'llarini bosib o'tgan. Tosh qurollar indusriyasida makrolitlik saqlanib qolingan. Pachitan yodgorligi Yava orolining markaziy qismida joylashgan bo'lib, paleolit davri yodgorligi hisoblanadi. Sangiran yodgorligi esa bu Janubiy-Sharqiy Osiyoda mikrolit tosh qurollar ishlab chiqarish texnikasining tarqalganligidan dalolat beradi. Malayziyada joylashgan mashhur Nia g'ori T. Garrison tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu yodgorlikda arxeologik davrlarining ketma-ketligini kuzatishimiz mumkin. Unda topilgan eng qadimgi tosh qurollarining davriy sanasi 39500-yilni tashkil etmoqda. Nia g'or-makonidan topilgan Homo sapienslar tegishli tana suyaklari tahlili ularning avstraloid irqiga oid ekanligini ko'rsatmoqda. Janubiy-Sharqiy Osiyoda yer sharining boshqa hududlariga farqli ravishda mezolit davri alohida arxeologik davr sifatida ko'rsatilmaydi. Biz Janubiy-Sharqiy Osiyoda mezoneolit davri madaniyatlarini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni Janubiy-Sharqiy

Osiyoda mezolit va neolit davriga oid madaniyatlarning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Janubiy-Sharqiy Osiyoning mezoneolit davri yodgorliklaridan biri Xoabin madaniyatidir. Xoabin madaniyati uchta davriy bosqichga ajratiladi. Ilk, o'rta va quyi Xoabin bosqichlari. Ilk Xoabin davriy sanasi miloddan avvalgi 48-23-ming yilliklar, o'rta Xoabin miloddan avvalgi 23-13-ming yilliklar va quyi Xoban miloddan avvalgi 13-8-ming yilliklar. Ushbu madaniyatning uchta davriy bosqichga bo'linishi arxeolog olim V. Solxeym tomonidan amalga oshirilgan. Mezoneolit madaniyatiga oid navbatdagi yodgorlik Ruhlar g'ori hisoblanadi. Ruhlar g'orining davriy sanasi miloddan avvalgi 12 ming yillikni tashkil etadi.

### **1-mavzu. Nazorat savollari**

1. Janubiy-Sharqiy Osiyoning geografik joylashuvi haqida ma'lumot bering.
2. Janubiy-Sharqiy Osiyoning paleolit va mezolit davri arxeologik o'rganilishi tarixi haqida ma'lumot bering.
3. Hindiston hududining arxeologik jihatdan o'rganilishi.
4. Hindistonning paleolit davri yodgorliklari haqida ma'lumot bering.

### **1-mavzu. Test topshiriqlari**

1. V. A. Ranov O'rta Osiyoda muste davri madaniyatini o'rganish jarayonida uni nechi guruhlariga bo'lib o'rganadi?  
A. 5 ga  
B. 2 ga  
C. 3 ga  
D. 4 ga
2. Levallua madaniyatiga oid yodgorliklar  
A. Xo'jakent, Jarqo'ton, Obirahmat va Qo'tirbuloq makonlari kiradi  
B. Qayroqum, Qopchig'ay, Tossor va Farg'ona makonlari kiradi

- C. Teshiktosh, Semiganich, Og'zikichik g'or-makonlari kiradi  
 D. Qora-Bura, Kuxi-Piyoz
3. Qaysi hududdan mil. av. 1 mln. 100ming - 1 mln-yilliklarga oid ashel qatlami qazib o'rganilgan.
- A. Qirg'izistonning Tossor va Georgiy do'ngligi  
 B. Oloy tog' tizmasining shimoliy tarmog'ida Farg'onadan Sharqda joylashgan Selung'ur g'oridan  
 C. Janubiy Qirg'izistondagi Isfara daryosi vodiysidagi Xo'jag'ayir degan joydan  
 D. Samarqandning janubi-g'arbidagi Qo'tirbuloqdan
4. Selung'urdan ashel davri mehnat qurollaridan tashqari nimalar topilgan?
- A. Arxantrop qoldiqlari  
 B. Nukleuslar, tishli tosh qurollar, qirg'ichlar, tosh paykonlar, sixchalar, plastinkalar, tosh pichoqlar va boshqa tosh bo'laklari  
 C. Chopping va chopper, yassi va gardishsimon nukleuslar, uchrindilar va boshqalar  
 D. Toshdan yasalgan mehnat qurollari
5. Georgiy do'ngligi mehnat qurollari qaysi geologik davrga oid?
- A. Yuqori pleystotsenning boshlanish  
 B. Pleystotsenning tugashi  
 C. Golotsenning boshlanishi  
 D. Arxey erasi
6. Teshiktosh g'oridan qaysi gominidning qoldiqlari topilgan?
- A. Homo neanderthalensis  
 B. Homo heidelbergensis  
 C. Homo rudolfensis  
 D. Homo habilis
7. Homo neanderthalensis yashagan davrni to'g'ri ko'rsating?
- A. 200-28-ming yillar  
 B. 900-300- ming yillar  
 C. 700-40- ming yillar  
 D. 500-50 -ming yillar

8. Ko'lbuloq qaysi davrga oid?

A. Ilk paleolit

B. Mezolit

C. Bronza

D. O'rta paleolit

9. Chopper nima?

A. Tosh qurol

B. Temir

C. San'at namunasi

D. Sopol buyum

10. So'ngi paleolit ulkan muzliklarning qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?

A. Vyurm

B. Riss

C. Mindel

D. Gyunts

## 2-MAVZU. UZOQ SHARQ PALEOLIT VA MEZOLIT DAVRIDA

### Reja:

1. Uzoq Sharq hududining paleolit va mezolit davri madaniyatlarining arxeologik o'rganilishi.
2. Uzoq Sharq hududidida insoniyatning paydo bo'lishi.
3. Mikroindustriya an'alarining Uzoq Sharq hududlaridan Yevrosiyo qit'asining g'arbga tarqalishi haqidagi ilmiy gipoteza.

**Tayanch iboralar.** Uzoq Sharq, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Sinantrop, Chjokoudyan topilmasi, Lungpo yodgorligi, Chentszyafu odami, Lantyan odami, Pey Ven-Chjun, Sintszyan, Markaziy Mo'g'iliston va Manchjuriya xududlari, Suyange g'or makoni, Xosu g'or makoni, Dzemon madaniyati, pleystotsen va

muzlik davrlari, Ivadzyuku shahri, Badzedan, Nakamine, Sodzyuday, Niyu g'or makonlari.

1.1. Xitoy – bu “xalq” respublikasidir. Pekin, xitoyliklar o‘z poytaxtlarini Beytszin deb atashadi, mazkur nom xitoy tilidan Shimoliy poytaxt deb tarjima qilinadi. Xitoy o‘zining rejalashtirilishining qat’iy geometriyasi va ko‘chalarining dunyoning tomonlariga ko‘ra mo‘ljallanishi bilan o‘ziga e’tiborni tortadi. Shaharning yuragi dunyodagi eng katta hisoblangan Tyananmen maydonidir. U osmon sokinligi darvozasidir. Xitoy aholisining soniga ko‘ra dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi, uning aholisi 1,3 mlrd dan ortiqni tashkil etadi. Mamlakat aholisi asosan xitoyliklardan tashkil topib, ular barcha aholining 91,9% ini tashkil etadi. Xitoyda xitoyliklardan tashqari 50 dan ortiq millat va elotlar – chjuanlar, uyg‘urlar, xueylar, itszular, tibetliklar, myaolar, manchjurlar, mo‘gullar, buylar, koreyslar va boshqalar yashaydi. Asosiy etnik guruh – xitoyliklar (хань) Tibet va Sintszyandan tashqari hamma xududlarda ko‘pchilikni tashkil etadi. 55 ga yaqin etnik ozchiliklar mamlakat hududining beshdan uch qismida yashaydi. Eng yirik etnik ozchilik zich holda yashaydigan joylarda avtonomiyalar tashkil etilgan. Xitoy taxminan 9,6 mln kv.km maydonni egallaydi, bu yer sholining 6,5% qismini tashkil etadi. O‘lchamlariga ko‘ra Xitoy maydoni faqat Rossiya va Kanadadan keyin turadi. Xitoy Sharqiy Osiyoda joylashgan bo‘lib maydoniga ko‘ra dunyoda (9,6 mln kv.km) uchinchi o‘rinni egallaydi. Shimol tomondan Mo‘g‘uliston va Rossiya bilan, shimoliy-sharqda Rossiya va KXDR bilan, janubda Vetnam, Birma, Laos, Hindiston, Butan va Nepal bilan, g‘arbda – Pokiston, Afg‘oniston va Tojikiston bilan, shimoliy-g‘arbda – Qirg‘iziston va Qozog‘iston bilan chegaradosh. Uning sharq qismida Sariq va Sharqiy-Xitoy dengizlari, janubida – Janubiy-Xitoy dengizi mavjud bo‘lib, unga 3400ta orol qarashlidir, bu orollardan eng yiriklari Tayvan va Xaynan. Quruqlikdagi chegarasining uzunligi 22 ming kilometrni, qirg‘oq chizig‘i uzunligi 18 ming kilometrni tashkil

etadi. XXR ni Boxoy ko'lfosi, Sariq, Sharqiy-Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlari o'rab turadi. Qirg'oq oldi xududida orasida eng yiriklari – Tayvan va tropik orol Xaynandir. Xitoyda uch bosqichli ma'muriy bo'linish qabul qilingan: provintsiya, uyezd va volost. XXR 23 ta provintsiyaga, 5ta avtonom rayonga, markazga bo'ysunuvchi 4ta shahar (Pekin, Shanxay, Tyan'bitsin va Chuntsin) ga hamda 2ta maxsus ma'muriy tumanga – Syangan (Gonkong) va Aomin (Makao) ga bo'lingan. Xitoyning katta qismi mo'tadil va subtropik mintaqalar chegaralarida, janubiy qismi esa tropik mintaqasida joylashgan. Xitoyda yil bo'yi issiq bo'ladi degan fikr xato. Yozda issiq bo'lib, arzimagan miqdorda yog'ingarchilik bo'ladi (o'rtacha temperatura +32S). Shimol va shimol-sharqda qish sovuq bo'lib, temperatura -25S gacha bo'ladi, markaziy qismida iqlim ancha yumshoq va qishda temperatura -50S dan pastga tushmaydi. Xitoy – juda ko'p tarixiy yodgorliklarga boy mamlakat. Jahon ahamiyatiga ega bo'lgan 240 dan ortiq yodgorliklar davlat himoyasidadir. Tarixiy va inqilobiy an'analariga boy bo'lgan 24 shahar daxlsiz deb e'lon qilingan. Mamlakatda YUNESKO tomonidan jahon merosi ob'ektlari Reestriga kiritilgan 29 ta madaniy va tabiiy diqqatga sazovor joylar bor.

Butun jahon merosining bir qismi hisoblangan noyob yodgorliklari va tabiiy xududlarining soni bo'yicha Xitoy dunyoda Ispaniya va Italiyadan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.

1.2. Xitoyda paleolit davri bundan 1.55 mln yil avval boshlangan. Paleolit davriga eng qadimgi topilmalar sanasi 2 ming yilni tashkil etadi. Xiytoning paleolit davri madaniyati tashuvchilari tik yuruvchi ajdodimizning qiyofadoshi bo'lmishsinantropolar tashkil etgan. Xitoy hududidan topilgan tosh davriga oid eng qadimgi topilmalar Anxa provintsiyasi hududidagi Jentsizdun yodgorligidan qayd etilgan. Uning davriy sanasi taxminan 2 mln yil bilan belgilanmoqda. Sichua provintsiyasi hududidagi Lungpo yodgorligidan esa tik yuruvchi ajdoimizning tish suyaklari qoldiqlari topilgan bo'lib, uning davri sanasi 1.8 mln yil bilan belgilanmoqda. Matszyuanagoda davriy

sanasi 1.66-1.55 mln yil bilan belgilangan eng qadimgi tosh qurollar namunalari topilgan. Xebey provintsiyasi Yanyuan uyezdi hududida qayd etilgan tosh davri Syaochanlyan madaniyati esa 1.36 mln yil bilan davriy sanasi belgilanmoqda. Xitoy hududidan aniqlangan ibtidoiy ajdodimizning eng qadimgi vakili Lantyan odami deb nomlanadi. Bu topilma Shensi provintsiyasi Lantyan uyezdi hududidan topilgan. Tosh davrining yana bir madaniyati Sentszyavan deb nomlangan bo'lib, uning davriy sanasi 1.1 mln yil bilan belgilanmoqda. Ajdodlarimizdan biri bo'lmish Sinantropolar qoldiqlari Xebey provintsiyasi hududidagi Gaopin g'oridan topib o'rganilgan. Xitoyda ibtidoiy ajdodlarmizning eng yaxshi o'rganilgan vakili sinantropolar hisoblanib, ularga tegishli topilma Pekin hududida joylashgan Chjoukoudyan qishlog'ida qayd etilgan.

#### Xitoyning paleolit davri madaniyatlari

Xitoyning paleolit davri madaniyatlari		
Nomlanishi	Joylashishi	Sanasi
Eng qadimiylari (3 mln. - 700 ming. avval)		
Lantyan odami (蓝田人)	Lantyan uyezdi, Shensi provintsiyasi	
Sixoudu madaniyati (西侯度文化)		
Nixe madaniyati (泥河湾盆地文化)		
Yuanmous odami (元谋人)		
Ushan odami (巫山人)		
Szyanshi odami (建始人)		
Yunsyen odami (郧县人)		
Bayse madaniyati (百色盆地旧石器时代文化)	Guansi-Chjuan avtonom rayoni	
Jentszdun madaniyati (人字洞遗址的文化)	Anxa provintsiyasi Fanchan shahri	
ilk (700 - 100 avval)		
Chentszyafu odami (陈家富人)		
Chjoukoudyan Sinantropi	Pekin shahridagi	

(周口店北京人)	Chjoukoudyan qishlog'i	
Xexe madaniyati(合河文化)		
Myaoxoushan madaniyati (庙后山文化)		

1.3. Janubiy Xitoyning mezolit davriga oid yodgorligiga Guansi-Chjuan avtonom rayoni hududidagi g'orlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. 1935-yilda Pey Ven-chjun tomonidan bu g'orlar hududidan qo'pol shakldagi makrolit tosh qurollari namunalari topib o'rganilgan. Vetnam hududida esa biz paleolit davridan neolit davriga o'tish jarayonini kuzatamiz. Bu madaniyatlar fanda Bakshon va Xoabin madaniyatlari nomi ostida kiritilgan. Xitoyning shimoli va Mo'g'ilistondan mezolit davri yodgorliklari juda kam o'rganilgan. Biz faqatgina Sintszyan, Markaziy Mo'g'iliston va Manchjuriya xududlaridan unchalik ko'p bo'lmagan makrolit tosh qurollari namunalarini ng topilishini misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Faqatgina Mo'g'ilistonning Ulan-Bator, Moyltn-Ash, Sangino kareri hududida aniqlangan bir nechta mezolit davri yodgorliklarini keltirib o'tishimiz mumkin. Koreya shu nomli yarim orolning janubiy qismini egallaydi, bu yarim orol Osiyo qit'asining asosiy qismidan 1100 km masofaga chiqib turadi. G'arbdan yarim orol Sariq dengiz bilan, janubdan esa Koreys bo'g'ozini va Sharqiy-Xitoy dengizi bilan o'ralgan. Janubiy Koreya maqomi provintsiyalarga tengtashtirilgan 6 ta shaharga, 9 ta provintsiyaga va alohida vazifaga ega 1 ta shaharga bo'lingan. Koreyaning iqlimi aralash turdagi iqlimdir. Bu yerda asosan kontinental va dengiz iqlimi ustuvorlik qiladi. Koreyada bahor va kuz qisqa va iliq, yoz nam va issiq bo'lib, temperatura +35S gacha ko'tarilishi mumkin. Yomg'ir mavsumi iyun oyining oxiridan iyul oyi o'rtalarigacha to'g'ri keladi. Kuzi quruq, qishi esa sovuq bo'lib, davriy ravishda yog'in yog'ib turadi. Qishda temperatura -10S gacha pasayadi. Koreya hududida ilk ibtidoiy odam vakillaridan biri Homo erectus bundan 500 ming avval paydo bo'lgan. Chxunchxon-namdo provintsiyasida joylashgan Sokchanni g'or makonida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Yevropaning quyi paleolit davriga oid tosh qurollar va bifassimon



uchrindilar namunalari topilgan. Koreya hududida o'rta paleolit davrida gominidlarning istiqomat etganligi haqida ma'lumot beruvchi yodgorliklar Chommal va Turubon g'or makonlari hisoblanadi. Bundan tashqari bu g'or makonlarda hozirda kunda Koreya mavjud bo'lmagan va o'z vaqtida noqulay iqlim sharoiti tufayli qirilib ketgan ba'zi bir hayvon suyak namunalari ham topilgan. Sokchanni yodgorligida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida esa Yevropaning ashel, muste va levallua texnikasi asosida tayyorlangan tosh qurolarga o'xshash tosh qurollar namunalari qayd etilgan. Bu topilmalar o'z navbatida Koreya xududining qadimgi davrlardan bolab ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilganligini ko'rsatadi. Koreya hududida Homo Sapience larning paydo bo'lishi radiouglerodli tahlillarga ko'ra 40-30 ming yillar bilan belgilanadi. Bunday xulosalarga Sokchanni yodgorligida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida kelingan. Koreya hududida ham paleoit davriga oid qoyatosh suratlari ham aniqlanga. Pangedu yodgorligi ana shunday turdagi yodgorliklar jumlasiga kiradi. Paleolit davrida Koreya hududida istiqomat etgan ajdodlarimiz xayvon suyaklaridan uylar qurib uni xayvon terilari bilan himoyalashgan, ya'ni uy-joy qurishni bilishgan. Yaponiya orol davlatdir va u Tinch okeanining g'arb qismida joylashgan. Uning tarkibiga 4000 ta orol kiradi. Ularning eng yiriklari Xonsyu, Kyusyu, Sikoku va Xokkaydo. Yaponiya hududini shimol tomondan Oxota dengizi, sharq va janubiy-sharqdan - Tinch okeani, g'arbdan - Yapon va Sharqiy-Xitoy dengizlari; Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari arxipelagi janubida ichki Yapon dengizi o'rab turadi. Qirg'oq chizig'ining umumiy uzunligi taxminan 30 ming kilometr. Yaponiya tog'li mamlakatdir. Uning hududining deyarli to'rttan uch qismini tog'lar egallaydi. Davlat asosan prefekturalarga bo'lingan. Yaponiyada bunday prefekturalar 47 ta. Har bir prefektura to'rtta toifaga bo'linadi: Tokio, Xokkaydo, Kioto va Osaka hamda qolgan 43 tasi. Tokio o'z navbatida 23 ta mustaqil maxsus tumanlarga ajraladi. Yirik shaharlari: Tokio, Osaka, Kioto, Nagoya, Kobe, Xirosima, Fukuo va Iokogama hisoblanadi.

Yaponiya hududidagi iqlimi har xil. Mamlakatning shimolidagi iqlim mo'tadil, janubda esa subtropik va tropik mussonli. Xokkaydoda yanvar oyida o'rtacha temperatura -30S gacha pasaysa, iyul oyida esa 220S gacha ko'tarilsa, Okinava prefekturasida u deyarli bir xil 220S bo'lib qoladi. Yaponiya tarixida eng qadimgi ibtidoiy ajdodimiz vakillarining paydo bo'lishi bundan 40 ming avval sodir bo'lgan. Geologik nuqtayi nazarga ko'ra, Yaponiya paleoliti pleystotsen va muzlik davrlariga to'g'ri keladi. Yaponiya hududida istiqomat etgan eng qadimgi ajdodlarimiz ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan. Bu davrga oid Yaponiya istiqomat etgan eng qadimgi ajdodlarimizning antropologik tuzilishi hanuzgacha noma'lum. Yaponiyada paleolit davrining o'rganilishi 1949-yilda Ivadzyuku shahrida paleolit davri tosh qurollarining topilishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham Yaponiya tarixida paleolit davri "Ivazyuku davri" deb nomlanadi. Yaponiyalik olim K. Matsufudzi Kanedori IV g'or makonidagi eng qadimgi tosh qurollarining davriy sanasini 80 ming yil bilan davrlashtiradi. Yaponiyalik arxeolog-olimlarning fikriga ko'ra bundan 127-71 ming avval Homo sapiens arxipelagga Xitoyning Shimoli-sharqiy hudularidan kirib kelgan bo'lishi mumkin. Rus arxeologi S.P. Iaptevning fikriga ko'ra, Badzedan, Nakamine, Sodzyuday va Niyu yodgorliklari Yaponiyaning eng qadimgi tosh davri yodgorliklari bo'lib, ularning davriy sanasi 200 ming tashkil etishi mumkin. 1931 yilda arxeolog olim Naora Nobuyu tomonidan Yaponiya xududidan ibtidoiy odamlarning eng qadimgi vakili tana suyaklarini topishga muvaffaq bo'lgan. Bu topilma, o'z navbatida, Yaponiya xududida ham qadimda ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilganligi haqida dalolat beradi.

## 2-mavzu. Nazorat savollari

1. Xitoy paleolit davri tabiiy shart-sharoitlari.
2. Xitoyning paleolit davri yodgorliklari va madaniyatlari o'rganilishi tarixi.

3. Koreyaning paleolit davri yodgorliklari va madaniyatlari o'rganilishi tarixi.
4. Yaponiyaning paleolit davri yodgorliklari va madaniyatlari o'rganilishi tarixi.
5. Xitoyda eng qadimgi odamlarga tegishli topilmalar
6. Sinantrop odami topilmasi.
7. Yaponiyada eng qadimgi odamlarning paydo bo'lishi haqida ma'lumot bering.

## 2-Mavzu. Test topshiriqlari

1. Kalkuttada Osiyo jamiyati nechanchi yilda tashkil etiladi
  - A. 1784-yilda
  - B. 1861-yilda
  - C. 1863-yilda
  - D. 1985-yilda
2. Hindistonda iqlimning iliqlashishi qachondan sodir bo'ladi?
  - A. So'nggi pleystotsen va golotsen davri
  - B. 10 000 yil burun
  - C. 150000 yil burun
  - D. 50000 yil burun
3. Hindiston hududidagi dastlabki tosh davri yodgorligi R.B. Fut tomonidan Madras yaqinidan nechanchi yilda topilgan.
  - A. 1784-yilda
  - B. 1861-yilda
  - C. 1863-yilda
  - D. 1985-yilda
4. Qadimgi Hindiston xududida Homo sapienslar haqida ma'lumot beruvchi yodgorlik bu?
  - A. Belilen yodgorliklari
  - B. Suang yodgorligi
  - C. Tungaxadr yodgorliklari
  - D. Xoabin yodgorliklari

5. Narmada vodiysida Yavan yaqin bo'lgan odamsimon maymunlarning bosh chanog'i qoldiqlari aniqlangan. Fanga ushbu topilma qaysi nomi bilan kiritilgan.
- A. 1985-yilda Homo erectus narmadiensis
  - B. 1975-yilda Homo sapiens
  - C. 1985-yilda Homo ergastus narmadiensis
  - D. To'g'ri javob ko'rsatilmagan
6. Soan madaniyati qayerda joylashgan?
- A. Hindiston
  - B. Yevropa
  - C. Tojikiston
  - D. Armaniston
7. Maxareva madaniyati qayerda joylashgan?
- A. Hindiston
  - B. Yevropa
  - C. Tojikiston
  - D. Armaniston
8. Madrass madaniyati qayerda joylashgan?
- A. Hindiston
  - B. Yevropa
  - C. Uzbekiston
  - D. Armaniston
9. Nia g'or makoni qayerda joylashgan?
- A. Malayziyada
  - B. Birma
  - C. Angliya
  - D. Germaniya
10. Ruxlar g'ori qaysi arxeologik davrga oid?
- A. Paleolit
  - B. Neolit
  - C. Eneolit
  - D. Ilk temir

### 3-MAVZU. PALEOLIT VA MEZOLIT DAVRI SAN'ATI

#### Reja:

1. Paleolit davri qoyatosh suratlari.
2. Yevropa paleolit san'atining o'rganilishi tarixi.
3. Paleolit davri ibtidoiy ajdodlarimizning diniy tasavvurlari.

**Tayanch iboralar.** Ilk paleolit davri, Ashel davri, Selung'ur g'ori, Teshiktosh, Obirahmat makoni va Paltov, Yuqori yoki so'nggi paleolit davri, Xamosaniens, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy, Fon de Gom, Lyasko, Nio, Altamir, tasviriy san'at, qoyatosh suratlari.

**1.1. Ilk paleolit davri** – bu davr yodgorliklarining sanasi 700-500 ming yil avval boshlanib, miloddan avvalgi 15000 yilliklargacha davom etgan va Ashel davri deb yuritilgan. Chunki Ashel davri yodgorliklari O'zbekistonda bo'lmagan. Ashel davri oxirida Yevropani shimoliy mintaqalarini qalin muz qoplagan. Lekin U. Ismoilov shu davr odamini qoldig'ini (bosh suyagini bir bo'lagi, elka suyagi va 10 ta tish qoldig'ini) topib o'rgangan Farg'ona vodiysini Selung'ur g'oridan, A.Qosimov esa Ko'rbuloq makonini o'rganib Ashel davriga oid 22 ta, muste davriga oid 24 ta madaniy qatlamni o'rganadi. Bunda markaziy Osiyoga odamlar juda erta kelib joylasha boshlaganlar degan xulosaga kelish mumkin. O'rta paleolit (muste madaniyati) davri – bu davrda mashhur yodgorliklar topilgan va 24 ta madaniy qatlam o'rganilgan. Ayniksa, Teshiktosh Surxondaryodagi, Obirahmat Toshkent viloyatidan, Xo'jakent Toshkent viloyatidan, Ko'lbuloq Toshkent viloyatidan, Samarqand viloyatidan Omonqo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Xo'jamazgil, Navoiy viloyatidan Ustut nomlari o'rganilib O'zbekistonning qadimgi madaniyati va san'ati tarixiga oid manbalar topiladi. Teshiktosh g'ori 5 ta qatlamdan iborat, g'orni uzunligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m bo'lgan. 2859 tosh qurollar topilgan. Teshiktoshdan 7-11 yashar (qiz bola) Neandertal odamini topilishi buyuk kashfiyot bo'lgan.

Odam suyaklari atrofiga arxar va Buxoro bug'usi shoxlarini qo'yilishi dastlabki diniy tasavvurlarni vujudga keltirilishini ko'rsatadi. Obirahmat makoni va Paltov (tangritog' chotqol tizmasidagi) makonidan 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam o'rganilgan. Makon yoysimon bo'lgan, og'zi janubga qaragan, ichi keng bo'lgan. U yerdan ohaktoshli chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollar, parrandalar, qirg'ichlar, kurakchalar, keskichlar topilgan. Obirahmat esa hayvon suyagidan ishlangan bigizlar shuningdek bug'u, tog' echkisi, to'ng'iz, arxar suyaklari, gulxan, kul, ko'mir qoldiqlari topilib, u yyerda odamlar 120 - 40000 yil ilgari yashaganlar va tog' mevalarini terib, yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar. Qo'tirbuloq (Samarqand viloyati Kattaqo'rg'onida) 5 ta madaniy qatlam topilgan. Bu yyerdan ikki tomoniga ishlov beruvchi bargsimon qurollar, fil, bug'u, yovvoyi ot, quyon suyaklari topilgan. Yuqori yoki so'nggi paleolit davri - miloddan avvalgi 40-35000 yil avval boshlangan va 12-10000 yilliklargacha davom etgan. Bu davrda hozirgi zamon odami shakllangan. Bular toshni o'yish usullarini (retush qilish, sindirib olish, o'tkirlashni) bilganlar. Bularni mehnat qurollari prizmati, konussimon shaklda bo'lgan. Bular tosh bilan birga suyak va yog'ochdan ham foydalanganlar. Bu davr odamlarining buyuk yutug'i nayza - paykonlarini, irg'itiladigan nayzalarni, nayza - otkichlarni ixtiro qilganlar. Ishlatilishiga qarab guruhlarga bo'lganlar (ov qilish, go'shtni nimtalash, teriga ishlov berish, baliq tutish uchun sanchqi (charpun), arralovchi qurollar, suyak ignalar, bigizlar). Shuning uchun bu davr odamlarini Xamosanienslar ya'ni aqlli, idrokli va ongli odamlar deganlar. Ta'sviriy va amaliy san'atning ibtidosi yuqori paleolitdan boshlangan. Suyakdan ayollar haykalchalari yasalgan, taqinchoqlar yasaliib ustiga turli xil tasvirlar o'yib tushurilgan. O'rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ortiq yodgorliklar topilgan, ya'ni Samarqand makoni, Toshkent viloyatida Oqtosh, Ko'lbuloq makonlari o'rganilib amaliy san'ati shakllanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, 8 chaqmoqtoshga ishlov beradigan ustaxonalar bo'lgan. Ishqalash yo'li bilan olov hosil qilganlar. O'rta tosh (mezolit) davri - 12 - 6000 yilliklarni o'z

ichiga oladi. Bu davrda insoniyat tomonidan ko'p kashfiyotlar qilindi. O'q-yoy kashf etildi va ibtidoiy san'at rivojlandi, ya'ni devorga o'yib rangli bo'yoqlar bilan ta'svirlangan san'at paydo bo'ldi. Butun ta'sviriy san'at na'munasi Surxondaryoning Zarautsoy darasidan topildi. Bunda yovvoyi buqani itlar yordamida ovlash masalasi qizil bo'yoqlar bilan berilganligi o'rganildi.

1.2. Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniya, Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. O'rta Osiyoning tog'lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil. Bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar)rasmlardir. O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibtidoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, uzun qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni mil. avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr san'atini o'z ichiga oladi, o'rganadi va tahlil etadi. Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida

tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va erto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtna tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbasi hisoblanadi. Bulardan tashqari, etnografiya, tarix sohasidagi fan yutuqlari, antropologiya, lingvistika, geologiya, xalq og'zaki ijodi, saqlanib qolgan turli afsonalar, fizika, himiya fanlarining yutuqlari ham shu davr tarixi va san'ati haqidagi tushunchalarning oydinlashishiga xizmat qiladi. San'at qachon va qanday paydo bo'lgan? San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga bo'ysundira boshladilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat qurollarining unumi ularda o'z qurollariga nisbatan mehr tuyg'ularini uyg'ota bordi. Ular o'z qurollariga bezak berish orqali o'z mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni his etish imyaoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning obektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi. Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari. Tarix fani ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyotini uning sotsial tuzilishlga ko'ra 3 ga ajratadi. 1) ibtidoiy gala bo'lib yashash davri; 2) urug' jamoasi davri (bu davr ikkiga — matriarxat va patriarxat davriga ajraladi); 3) harbiy demokratiya davri. Arxiologiyada ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi qurol yasash uchun ishlatiladigan materiallarga qarab, uch asosiy bosqichga ajraladi: 1. Tosh asri — eramizdan avvalgi 3-ming yillikkacha bo'lgan davr. 2. Mis va bronza asri— eramizdan avvalgi



3-2- ming yillik. 3. Temir asri — eramizdan avvalgi 1-ming yillik. Tosh asri, o'z navbatida, uchga bo'linadi: 1. Qadimgi tosh asri— paleolit — eramizdan avvalgi 10-ming yillikkacha bo'lgan davr. 2- O'rta tosh asri — mezolit — eramizdan avvalgi 10—6-ming yillik. 3. Yangi tosh asri — neolit — eramizdan avvalgi 6-3-ming yillikni o'z ichiga oladi. Paleolit yoki eng qadimgi tosh asri (palaios qadimgi, litos — tosh) insoniyat taraqqiyotining eng uzoq davom etgan bosqichi hisoblanadi. Bu taraqqiyotni bir qator davrlarga ajratish mumkin: eng qadimiy yoki quyi paleolit (er. av. 150-ming yilliklar), o'rta paleolit (er. av. 150-35-ming yillik), yuqori yoki so'nggi paleolit (er. av. 35-10-ming yillik). Arxeologlar ma'lumotiga ko'ra, paleolit asrida, ayniqsa, uning so'nggi bosqichlarida tasviriy san'atning hamma turlari paydo bo'ldi, diniy tushunchalar shakllana bordi. Paleolit asriga oid faktik materiallar Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alaridan topilgan, Bu davrda odamlar katta-katta toshlarning panasida, g'or va yerto'lalarda to'da-to'da bo'lib yashaganlar, Bu g'or va yerto'lalar ibtidoiy jamoa kishisining «uyi» hisoblangan. Shu uylarning devor va shiplariga suratlar chizganlar, bo'rtma tasvirlar ishlashga harakat qilganlar. Ana shu odamlar yashagan manzillardan topilgan mehnat, ov qurollari, turli haykal va ramziy mazmunga ega bo'lgan shakllar ibtidoiy jamoa kishilarining estetik va falsafiy qarashlarini tushunishga yordam beradi. Dastlabki rasmlar primitiv va asosan, hayvonlar ko'rmishini tasvirlaydi. Mamont, yirik qo'tos, kiyik, ot va boshqa hayvonlar kontur chiziqlarda, tabiiy bo'yoqlarda ishlangan. Paleolit san'atining eng gullagan davri madlen I asriga (er. av. 20-10-ming yillar) to'g'ri keladi. Bu davrda, ishlangan hayvonlar tasviri aniq, shakli real, proporsiyalari to'g'ri olingan. Ularning o'ziga xos xarakterli tomonlari (kuchli va og'ir, engil va ziyrak) ko'rsatiladi. Ular turli holatda va ko'rinishda tasvirlanadi. Rassom ranglar yordamidan, nursoya imkoniyatlaridan ham foydalana boshlagani sezilib turadi. Fransiyaning Fon de Gom, Lyasko, Nio va Shimoliy Ispaniyaning Altamir g'orlari devorlariga ishlangan suratlarda hayvonlar natural kattalikda, nihoyatda jonli va ta'sirchan

ishlangan. Madlen davrining so'nggi bosqichlarida murakkab kompozitsiyalar yaratishga intilish ortdi, tabiat manzaralari, hayvonlar to'dasi rasmini ishlash, ular harakatini biror syujetga bo'ysundirishga intilish seziladi. Shu xususida Fransiyaning Limeyl g'oridan topilgan, tosh yuzasiga ishlangan «Kiyiklar podasi» surati, Teyja (Fransiya) yaqinidagi g'ordan topilgan suyakka ishlangan hayvonlar podasini aks ettiruvchi suratlar xarakterlidir. Yuqori paleolit davrida odamlar yashagan manzillarda tosh, suyak, shox, loydan yasalgan har xil haykalchalar ham uchraydi. Relif (ko'proq uning barelefi) tabiiy tosh yuzasi yoki devor sathidagi tekisliklarga ishlov berish hisobiga yaratilgan. Haykaltaroshlikda ham hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi.

1.3. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi. G'arbiy Yevropadan (Avstriya) topilgan "Villendorf Venerasi" deb nomlangan haykali mashhurdir. Haykal hajmi jihatidan katta emas. (balandligi 0,06 m), lekin ko'rinishi jihatidan monumental. Haykalda ortiqcha detallar yo'q, ichki kuch-qudratga to'la. Haykalda bosh qism biroz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo'q. Lekin shunga qaramasdan, haykal o'zining to'laqonliligi, ichki kuchga to'laligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi. Sharqiy Yevropa, Sibir, O'rta Osiyoda bunday ayollar haykali ko'plab topilgan. Jang voqealari, ovchilikni aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalar yaratildi. Ishlangan suratlarda voqealarni keng, atroflicha bayon etishga intilish ortdi. Rassom o'z fikrini bayon etish uchun obrazlarni sxematik va shartli belgilar tarzida tasvirlagan holda, bo'layotgan voqeaning mohiyatini ochishga harakat qildi. Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. «Kiyiklarni ovlash» (Ispaniya) suratiga nazar tashlang. Obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo'lgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat — kiyiklarning jon holatda qochishi, bo'lmoqda. Mezolit yoki o'rta tosh asrida (grekcha

tezoz—o'rt) odamlar katta bo'lmagan to'daga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chib o'tish, katta er maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo'lishiga e'tibor kuchaydi. O'q kamon-yoy, qayiqarning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini ta'minladi. Odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga kerakli buyumlar yarata boshladilar. Diniy tushunchalar keng yoyildi. "Narigi dunyo" tushunchasi paydo bo'ldi, ko'mish marosimi bilan bogliq bo'lgan turli urf-odatlar yuzaga kela boshladi. Bular kishilarda murakkab tasavvur va fikrlashning paydo bo'layotganligidan dalolat beradi. Odamlar tasavvurining kengayishi, abstrakt tushunchalarning yuzaga kelishi san'atning shakl va mazmun xarakterida ham sezila boshladi. San'at mavzusi kengaydi, janrlar ortdi. Ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. O'rt) Osiyo (Surxondaryo, Farg'ona), Ozarbayjon (Kobiston)dan topilgan suratlarda ham shu holni ko'ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymali-tosh (Farg'ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettiriladi. Zaravutsoydagi niqob kiyib o'ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettiruvchi surat o'tmish hayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

### 3-mavzu. Nazorat savollari

1. Paleolit davrida san'atning paydo bo'lishi.
2. Paleolit davri qoyatosh suratlarida ibtidoiy ajdodlarimiz dunyo qarashining tasvirlanishi.
3. Markaziy Osiyo paleolit davri koyatosh suratlari.
4. Markaziy Osiyoda paleolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.

5. Yevropaning paleolit davri qoyatosh suratlari.
6. Ibtidoiy tasviriy san'atning yaratilishi shart –sharoitlari.
7. O'zbekistondagi qoyatosh rasmlari.
8. Paleolit qoyatosh suratlarida tasvirlangan obrazlar.

### 3-mavzu. Test topshiriqlari

1. Malayziyada joylashgan mashhur Nia g'ori kim tomonidan o'rganilgan
  - A. T. Garris
  - B. Doroti Garrod
  - C. Fransis Tyurvil Petr
  - D. Artur Yelenek
2. Birmadagi ilk Anyat, Indoneziyaning Yava orolida joylashgan Pachitan, Vetnamdagi Shonvi, Malayziyadagi Kota-Tampam yodgorliklari qaysi davrga oid?
  - A. Paleolit davri
  - B. Mezolit davri
  - C. Neolit davri
  - D. Eneolit davri
3. Nia g'or-makonidan topilgan Homo sapienslar tegishli tana suyaklari tahlili ularning qaysi irqqa oid deb topilgan?
  - A. Yevropoid
  - B. Avstraloid
  - C. Negroid
  - D. Mongoloid
4. Janubiy-Sharqiy Osiyoning mezoneolit davri yodgorliklaridan birini ko'rsating?
  - A. Xoabin madaniyati.
  - B. Belilen yodgorliklari
  - C. Suang yodgorligi
  - D. Tungaxadr yodgorliklari
5. Yavadagi pitekantropning suyaklari qachon va kim tomonidan topilgan?
  - A. Richard Liki 1900-1901-yillar

- B. Meri Liki 1905-1906-yillar
  - C. Y.Dyubua 1890-1891-yillar
  - D. Raymond Dart 1895-1896-yillar
6. Balangod yodgorligi qayerda joylashgan?
- A. Hindiston
  - B. Yevropa
  - C. Tojikiston
  - D. Armaniston
7. Durkadi yodgorligi madaniyati qayerda joylashgan?
- A. Hindiston
  - B. Yevropa
  - C. Tojikiston
  - D. Armaniston
8. Shonvi yodgorligi qayerda joylashgan?
- A. Hindiston
  - B. Yevropa
  - C. O'zbekiston
  - D. Armaniston
9. Belilen yodgorligi makoni qayerda joylashgan?
- A. Malayziyada
  - B. Birma
  - C. Angliya
  - Germaniya
10. Homo erectus narmadiensis qaysi arxeologik davrga oid?
- A. Paleolit
  - B. Neolit
  - C. Eneolit
  - D. Ilk temir

#### **4-MAYZU. O'RTA OSIYO MEZOLIT DAVRIDA**

##### **Reja:**

1. Mezolit davriga umumiy tavsif. Mezolit davrida flora va faunadagi o'zgarishlar.

## 2. O'rta Osiyo mezolit davrida.

**Tayanch iboralar.** Yaqin Sharq, Mezolit, Vyurm muzligi, Falastin, Suriya, Pleystotsen, Golotsen, Global isish, Natufiy, O'troq turmush tarziga o'tish, Yefrat, Aleppo, Karimshaxir, Tellmelefaat, Iroq, Old Osiyo, Jarmo, Zagros madaniy birligi, Enan, Muraybit.

**1.1.** Mezolit davriga kelib tabiiy-geografik muhit keskin o'zgaradi. So'nggi paleolit va mezolit davrining ilk bosqichlarida hukmron bo'lgan oxirgi Vyurm muzligi erib, yer yuzida global isish boshlanadi va pleystotsen golotsen bilan almashadi. Ko'pchilik olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra, bu tabiiy jarayon mil. av. 8300 yillarda sodir bo'lgan. Natijada yer yuzining shimoliy hududlarida hayvanot va o'simlik dunyosi keskin o'zgaradi. Muzlik oldi hududlarida yashovchi hayvonlarning ayrimlari, xususan, jundor karkidon, mamont, ho'kizqo'y so'nggi paleolit davrining oxirlaridayoq va keyinchalik esa boshqalari qirilib ketadi, qolgan qismi esa shimolga ko'chadi. Hayvonot olamidagi o'zgarishlar, ya'ni yirik hayvonlarning o'rniga tez chopar, ziyrak va yolg'iz yashovchi hayvonlar turining ko'payishi paleolit davri ovchilik an'alarining qiyinlashtirdi. Natijada bu turdagi hayvonlarga ov qilish uchun yangi vosita o'q-yoydan foydalanish va yakka ovchilik mavqeyining oshishiga olib keldi. Mazkur hududlarda va janubiy mintaqalarning tog'li hududlarida ot, ho'kiz, sayga, yovvoyi eshak o'rmon hududlarida esa los, bug'u, cho'chqa, bo'ri, tulki va boshqalar yashashgan. Yer yuzining janubiy mintaqalarida mazkur davr tabiiy-geografik jihatdan keskin o'zgarishlar sezilmaydi va fauna va florada tub o'zgarishlar kuzatilmaydi.

**1.2.** O'rta Osiyo hududidagi o'rganilgan mezolit davriga yodgorliklar past tekistliklardan tortib, baland tog'-tizmalarigacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan ochiq turdagi joy makonlar, g'or-makonlar va mavsumiy manzillardan iborat. Mazkur yodgorliklar stratigrafiyasi va radiokarbon tahlillariga ko'ra O'rta Osiyoning mezolit davri mil. avv. X-VI

ming yilliklar doirasida sanalanadi. O'rta Osiyodagi mezolit davriga oid yodgorliklari hududlar yoki madaniyatlar ajralib turadi.

Sharqiy Kaspiybo'yi (mil. avv. X-VIII m. y)ning mezolit davri yodgorliklari Krasnavodsk yarim oroli, Balxanbo'yi, Qorabo'g'iz va Quyi O'zboy hududlarida tarqalgan. Bu yyerda aniqlangan o'ttizdan ortiq manzilgohlar va to'rtta g'or-makonlar (Jebel, Qayli va Damdamchashma I, II) larda arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ularning quyi qatlamida hayot mezolit davrida boshlanib, neolit davrida davom etgan, ayrimlari bronza davrida ham kishilar yashashgan. Mazkur hududdagi yodgorliklarning mezolit davriga oid tosh qurollari tahlili va qiyosiy tavsifiga ko'ra Balxanbo'yi (ilk, o'rta va so'nggi bosqichlari) va Sharqiy Kaspiybo'yi (ilk va so'nggi bosqichlari) lardan iborat ikki kompleks yoki guruhga ajratish mumkin. Ularning har ikkalasi uchun toshlarni tekis yorish va ulardan silliqlab mehnat qurollari yasash usuli xos. Sharqiy Kaspiybo'yi guruhidagi yodgorliklarda mikrolitlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Ustyurt (mil. av. VIII-VI ming yilliklar) Ustyurtda mezolit davriga oid 20dan ortiq manzilgohlar o'rganilgan. Ular, asosan, Aydabolquduq va Jayronquduqlar atrofida to'p-to'p holda joylashgan ochiq turdagi doimiy, qisqa muddatli va vaqtincha yoki mavsumiy makonlardan iborat. Yodgorliklarning ma'lum hududda to'p bo'lib, joylashishiga ko'ra ustyurtliklar aholisi ovchilari guruhi yoki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan sodda ichki tuzilmadagi jamoaga. Arxeolog Y.B.Bijanovning ilmiy farazlariga ko'ra Ustyurt manzilgohlari mahalliy sharoitda Sharqiy Kaspiybo'yi va Janubiy Ural hududlarining mezolit davri madaniyatlarining ma'lum ta'sirida shakllangan. Bu yerda olib borilgan tadqiqot ishlarini natijasida o'rganilgan topilmalar xususiyatlariga ko'ra quyidagi xronologik guruhlariga ajratishga harakatlari mavjud: ilk (rivojlangan mezolit) - mil. av.VIII-VII ming yilliklar va so'nggi (so'nggi mezolit va ilk neolit) mil. av.VII-VI ming yilliklar. Aholi ovchilik va baliqchilikga asoslangan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakli bilan shug'ullanishgan.

Shuningdek, uy sharoitida suyak va yog'ochlarga ishlov berish ishlari ham asosiy mashg'ulotlaridan sanalgan.

O'rta Osiyoning sharqiy viloyatlarining mezolit davri nisbatan yaxshi o'rganilgan. Toshkent viloyatidagi yodgorliklar (mil.av. X-IX ming yilliklar) alohida o'rin tutadi. Toshkentning g'arbida qadimgi Bo'zsuv anhorining chap sohilida joylashgan Qo'shilish makonining madaniy qatlamlaridan 200 dan ortiq chaqmoqtoshdan yasalgan (nukleus, mayda parakchalar, qirg'ichlar, pichoqlar, boshqa turdagi silliqlangan qurollar va uchrindilar) qurollar majmuasi topilgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan qora mol, qo'y va echki suyaklari topilishiga ko'ra ularning asosiy mashg'uloti ovchilikdan iborat bo'lgan.

Farg'ona, Surxondaryo-Machay (VIII), Janubiy Tojikiston: Kofirnigon, Vaxsh, Panj vodiylari, Sharqiy Pomir (XI-VII) madaniyatlari tosh qurollar, xo'jaligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra umumiy va o'ziga xos tamonlari bilan ajralib turadi.

Farg'ona vodiysining ham mezolit davri alohida madaniyatni tashkil etadi. Bu yerda mezolit davriga oid 40 dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan. Bu yerning mezolit davri Obishir madaniyat (IX-VIII), nomi bilan ham nomlanib, uni ikki variantga yoki kompleks: Obishir (g'or-makon iborat) ilk bosqichi, Farg'ona so'nggi (tekislik). G'or-makonlar guruhiga tog'li hududlarda joylashgan Obishir va Toshko'mir guruhidagi manzilgohtar kiradi. Ulardan Obishir I, V yodgorliklari yaxshi o'rganilgan. Tekislikdagi guru'iga Sirdaryo yoqasidagi ko'llar bo'yida joylashgan bir necha o'nlab yodgorliklarni kiritish mumkin. Ularning har ikkalasi uchun ham plastinkasimon shaklda yasalgan tosh qurollar xos. Ilk bosqichida kishilar g'orlarda yashab xo'jalikning ovchilik va termachilik turi bilan shug'ullangan bo'lsalar, keyingi bosqichda, tekislikka tushib, termachilik va baliqchilik bilan kun kechirishgan.

Machay g'or makoni Surxondaryo viloyati Boysun tog'ining janubiy-g'arbida shu nomdagi qishloqda Turkandaryo (Sheraboddaryoning yuqori oqimi)ning o'ng sohilida joylashgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan tosh va suyakdan yasalgan



mehnat qurollari, hayvon va odam suyaklari topib o'rganilgan. Toshidan yasalgan qurollar nukleuslar, pichoqlar, kesgichlar geometrik shakldagi (trapetsiya, sigment) mikrolit qurollar, nayza o'qi uchlar va boshqalardan iborat. Yodgorlikdan topilgan hayvon suyaklarining asosiy qismini xonakilashtirilgan hayvonlarniki tashkil etadi. Odam suyaklari evropioid irqiga mansub kishilarga tegishli. Radiouglerod tahlillariga ko'ra yodgorlik mil. av 7550-yilliklarga oid.

**Obishir madaniyati.** Bu madaniyatga Farg'ona vodiysidagi bir necha mezolit davri yodgorliklari (40 dan ortiq) kiradi. Ularning ko'pchilik qismi ochiq Sharqdagi makonlar, kamchilik qismi bir va bir necha qatlarga ega bo'lgan g'or-makonlar (Obishir 1,2,3,4,5 va Toshko'mir)dan iborat. Ular ichida Obishir 1 va Obishir 5 yaxshi o'rganilgan. Ularning madaniy qatlamlaridan tosh qurollar (mikrolitlar, qirg'ichlar, pichoq qadamalari, keskich va teshkichlar, o'roq-randalar hamda nukleuslar) suyak buyumlari, chig'anoq, suyak va toshdan yasalgan taqinchoqlar shular bilan birgalikda hayvon suyaklari ham topilgan. Toshko'mir g'or-makonida Obishir makoniga o'xshash, silliqlash texnikasi ancha dag'al chaqmoqtoshdan yasalgan buyumlar mavjud.

**Oshxona makoni.** Bu yerda bir davrga oid uchta madaniy qatlam aniqlangan. Yirik dag'al ishlangan mehnat qurollari va kichik nafis mehnat qurollari ajralib turadi. Bu yyerda silliq toshdan yasalgan ikkita o'choq va atrofida yashash maydonchasi aniqlangan.

**Issiq g'or-makoni.** Madaniy qatlami bir yarim metr. U yyerdan kichik va O'rta hajmdagi toshlardan aylana qilib terilgan o'choq topilgan.

Markansuv madaniyati sohiblari ovchilik va terimchilik bilan kun kechirganlar. Makon mavsumiy foydalaniladigan joy bo'lib, undan o'lja izlab ovga chiqqan vaqtda yashash uchun foydalanilgan. Oshxonadagi topilgan yashash maydonchasi yengil turdagi chaylasimon uylarning qoldig'i bo'lishi mumkin.

O'rt Osiyodagi mezolit davri madaniyatlari va komplekslari o'ziga xos va turli xilda. Bu yerda mezolit davrining shakllanishida, avvalambor, so'nggi paleolit davri mahalliy madaniyati asosiy o'rin tutgan bo'lsa-da, shu bilan birgalikda tosh asrining yirik madaniy markazi hisoblangan Yaqin Sharq qabilalarining ham sezilarli ta'siri bor. Shunday qilib, mezolit davrida O'rta Osiyoda xo'jaligi va madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir qancha qabilalar yashashgan.

O'rta Osiyoda mezolit davri san'ati. San'at namunalari tog'li rayonlarda qoyatoshlarga bo'yoq bilan yoki urib, o'yib, ishlash, chizish usuli bilan ishlangan tasvirlardir. (Zarautkamar Surxondaryoda, Shaxta g'ori Tojikistonda). Zarautkamar qoyatoshlarida ov manzaralari (yovvoyi buqa, jayron va tik shoxli echkilarga qilinayotgan ov) tasvirlangan. Rasmlar qizil bo'yoqda ishlangan. Tasvirdagi hayvonlarning shakli aniq harakat qilayotganga o'xshaydi. Odamlar shakli esa shartli va harakatsiz tasvirlangan. Zarautkamarda madaniy qatlam uchramaydi. Tasvirlar borish noqulay bo'lgan joylarda chizilgan. Bunga o'xshash uslubdagi tasvirlar Shaxta kamarida ham chizilgan. Saqlangan to'rtta tasvirda odam, yovvoyi cho'chqa, ayiq tasvirlangan. Ular qizil bo'yoqda ishlangan. Zarautkamar va Shaxta kamaridagi rasmlari o'zida mezolit davri tog' ovchilarining qarashlarini aks ettiradi va ular rassom tomonidan zo'r mahorat bilan berilgan.

Zarautkamar (Surxondaryo) va Shaxta (Sharqiy Pomir Zarautkamar Sherobod shahridan taxmin 30 km Shimoliy-G'arbda Kuxitang tog'ining Janubiy Sharqiy yonbag'irlarida Zarutsoy soqtida joylashgan). Kamarda madaniy qatlamlar uchramaydi. Tasviriy san'at namunalari qoyashiftlari va yon devorlarida joylashgan. Tasvirlar qizil bo'yoqlarda bo'yalgan bo'lib mezolitning so'ngi bosqichi va eng qadimgi neolit davriga oid. Ulardan uchta ov manzarasi tasvirlangan uchta kompozitsiyasi diqqatga sazovor. Birinchi tasvir 19 kishidan iborat ovchilarning yovvoyi buqalar xalqa bo'lib ov qilayotgani tasvirlangan. Ulardan ikkitasi qochishga urinmoqda. Ikkinchi tasvirda ovchilar

oldida jayronlarning qochayotgan va ulardan jarohatlangan holati tasvirlangan. Uchinchi tasvirda esa yovvoyi echkilarga qilinayotgan ov manzarasi aks ettirilgan. Bu yerda mezolit davri jamoasining real hayoti tasvirlangan bo'lib, ularning asosida g'oyaviy qarashlar o'z aksini topgan. Qoyadagi kishilar tasviri sxematik tarzda berilgan. Bu yerda Kamarda madaniy qatlamning uchramasligiga ko'ra mezolit davri kishilarining ov oldi g'oyaviy qarashlari, ya'ni ov kulti o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.

#### 4-mavzu. Nazorat savollari

1. Mezolit davrida flora va faunadagi o'zgarishlar.
2. Mezolit davrida yovvoyi hayvonlarni xonakalashtirish jarayoni.
3. Natufiy madaniyati haqida ma'lumot bering?
4. Sharqiy Kaspiybo'yi (mil. av. X-VIII m. y)ning mezolit davri yodgorliklari haqida ma'lumot bering?
5. Mikrolit tosh qurollar haqida ma'lumot bering?
6. Mezolit davri qoyatosh suratlari haqida ma'lumot bering?

#### 4-mavzu. Test savollari

1. Xitoy – juda ko'p tarixiy yodgorliklarga boy mamlakat. Jahon ahamiyatiga ega bo'lgan nechta yodgorliklar davlat himoyasidadir.  
A. 200 dan ortiq  
B. 300 ga yaqin  
C. 240 dan ortiq  
D. 180 ta
2. Butun jahon merosining bir qismi hisoblangan noyob yodgorliklari va tabiiy xududlarining soni bo'yicha Xitoy dunyoda nechanchi o'rinda?  
A. 5  
B. 4  
C. 3

D.2

3. Xitoyda paleolit davri bundan necha ming yil ilgari boshlangan.

A. 1.55 mln yil

B. 1.30 mln yil

C. 2 mln yil

D. 1.80 mln yil

4. Ajdodlarimizdan biri bo'lmish Sinantrop qoldiqlari qaysi xududda topib o'rganilgan?

A. Xebey provintsiyasi hududidagi Gaopin g'oridan

B. Xebey provintsiyasi Yanyuan uyezdi hududida

C. Shensi provintsiyasi Lantyan uyezdi

D. Chxunchxon-namdo provintsiyasida joylashgan Sokchanni g'or makonida

5. Nechanchi yilda arxeolog olim Naora Nobuyu tomonidan Yaponiya hududidan ibtidoiy odamlarning eng qadimgi vakili tana suyaklarini topishga muvaffaq bo'lgan?

A. 1931-yilda

B. 1932-yilda

C. 1941-yilda

D. 1921-yilda

6. Homo erectus Koreyada qachon paydo bo'lgan?

A. Bundan 500 ming avval

B. Bundan 400 ming avval

C. Bundan 300 ming avval

D. Bundan 600 ming avval

7. Suyange yodgorligi qaysi davlat xududida joylashgan?

A. Koreya hududida

B. Mo'g'iliston hududida

C. Yaponiya hududida

D. Xitoy hududida

8. Xinsu g'or makoni qaysi davrga oid?

A. Paleolit

B. Mezolit

- C. Neolit
- D. Ilk temir asri

9. Chjokoudyan odami qaysi davlat hududidan aniqlangan?

- A. Xitoy hududida
- B. Mo'g'iliston hududida
- C. Yaponiya hududida
- D. Xitoy hududida

10. Xosino makoni qaysi arxeologik davrga oid?

- A. Paleolit
- B. Mezolit
- C. Neolit
- D. Ilk temir asri

## 5-MAVZU. JANUBIY VA JANUBIY – SHARQIY OSIYO MEZOLIT DAVRIDA

### Reja:

1. Janubiy-Sharqiy Osiyoning geografik joylashuvi.
2. Hindistonning mezolit davri madaniyatlari va yodgorliklari:
3. Janubiy-Sharqiy Osiyoning arxeologik o'rganilishi tarixi.
4. Janubiy-Sharqiy Osiyo mezolit davrida.

**Tayanch iboralar.** Hindiston, Hindgang tekisligi, Anketil Dyuperron, Ellor, Kanxer va Elefant orollari, ashel va quyi ashel bosqichlari, Langxnadj yodgorligi, Bagor yodgorligi, Soan, Maxareva, Madras texnikasi, Chongokni, Sankaliya, Himolay, V.N. Misra, Shri Lanka.

**1.1.** Hindiston Respublikasi — Janubiy Osiyodagi davlat. Hududi shimoldan janubga 3214 km, g'arbdan sharqqa 2933 km ga cho'zilgan. Shimolda Himolay tog'lari, g'arbda Arabiston dengizi, sharqda Bengaliya qo'ltig'i bilan o'ralgan. Hindiston

tarkibiga Arabiston dengizidagi Lakkadiv va Amindiv orollari, Bengaliya qo'ltig'idagi Andaman va Nikobar orollari ham kiradi. Maydoni. 3,3 mln. km<sup>2</sup>. Aholisi 1 mlrd. 49,5 mln. kishi (2002). Poytaxti - Dehli sh. Ma'muriy jihatdan 28 shtat va 7 ittifoq hududga bo'linadi. Hindiston qirg'oqlari kam parchalangan, past, qumli. Asosan, Hindiston yarim oroli va Hind-Gang tekisligida joylashgan. Himolay va Qoraqurum tog'larining bir qismini o'z ichiga olali. Hindiston hududining 3/4 qismi tekislik va yassitoglik. Hindiston yarim orolining deyarli hammasini Dekan yassitog'ligi egallagan (sharqqa tomom 900 m dan 300 m gacha pasayib boradi). Hindis-tom yarim oroli shimolida allyuvial Hindgang tekisligi joylashgan. Yer sharidagi eng baland tog tizmasi - Himolay (Hindistonda balandligi 8126 m, Nangaparat togi) va Qoraqurum tog'lari Hindistonni shimoldan to'sib turadi. Hindistonda foydali qazilmalardan toshko'mir, temir rudasi, titam, oltin, tabiiy gaz, marganets, xromit, boksit, olmos, qimmatbaho toshlar, mis, meft, slyuda, qo'rgoshin konlari bor. Iqlimi, asosan, tropik iqlim, shimolda tropik mus-sonli iqlim. Iyun — oktyabrda issiq va nam, noyabr— fevralda quruq, salqin, mart — mayda juda issiq va quruq iqlim. Nam mavsumda yillik yog'inning 70—90% yog'adi. Yillik yog'in g'arbiy Gat va Himolay tog'larining shimolga ro'para yom bag'irlarida 5000— 6000 mm, Shillong platosida 12000 mm (Yer yuzidagi eng seryogin joy), Hind-Gang tekisligida 100 mm, Hindiston yarim orolining markaziy qismida 300—500 mm. Yanvarning o'rtacha xarorati tekisliklarda 15° (shimolda), 27° (janubda), may oyiniki hamma joyda 28-35°, ayrim vaqtlarda 48°. Tog'larda o'rtacha harorat yanvarda - 8°, iyulda 18—23°. Asosiy daryolari: Gang, irmog'i Jamna, Hind (yuqori oqimi), Braxma-putra (quyi oqimi), Narmada, Goda-vari, Krishna. Daryolari yozda sersuv (musson yomg'irlari davrida toshadi), sug'orishda keng foydalaniladi, ayrimlarida kema qatnaydi. Tuproqlari Hindiston hududining aksari qismida qizil, Dekan yassitog'ligida qora, Hindgang tekisligi va dengiz bo'yi pasttekisliklarida jigarrang tuproq. Himolay tog'lari yon bag'rida tog'-jigar rang , sariq, tog' qo'ng'ir-o'rmon. podzol, tog-o'tloqi

tuproqlar pastdan yuqoriga almashinib boradi. O'simliklardan akatsiya, bambuk, kokos va xurmo palmasi keng tarqalgan. Mamlakatning 25% o'rmon. Himolay tog'larining quyi yon bag'irlarida terak, yuqorida tik, sandal, himolay kedri, qoraqaragay, oqqarag'ay o'sadi. G'arbiy Gat tog'lari yon bag'ri, Gang va Braxmaputra daltalari, Sharqiy Himolay tog'oldi doim yashil o'rmonlardan iborat. Hindistonda o'simliklarning 21 ming turi tarqalgan. Unda Yer yuzida mavjud bo'lgan barcha o'simlikning yarmidan ko'pini uchratish mumkin.

Hayvonot dunyosi xilma-xil. Sut emizuvchi hayvonlarning 350 turi, qushlarning 1600 dan ziyod turi bor. Hindiston hududida fil, maymun, karkidon, sher, qoplon, yo'lbars, mangust va boshqa hayvonlar yashaydi, ilonning deyarli barchaturi mavjud. Mamlakatda 75 milliy bog' va 420 dam ortiq qo'riqxonalar mavjud. Iirik milliy bog'lari: kaziranga, Manas, Dachigan, Dadva, "Gullar vodiysi" (UttarPradesh), Sariska va boshqalar.

1.2. Hindistonning qadimgi davr yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar dastlab Yevropada XVI-XVII asrlarda missionerlar va sayohatchilar tufayli ma'lum bo'la boshlaydi. Biroq bu qadimgi davr yodgorliklarni o'rganish ishlari XVIII asrning ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Bu yodgorliklarni o'rganish tarixiy geografiya ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Mashhur tarixchi olimlardan Anketil Dyuperron Ellor, so'ngra Kanxer va Elefant orollaridagi yodgorliklarni o'rganish va yodgorliklarning chizmalarini yaratish ishlarini amalga oshiradi. 1784-yilda Kalkuttada osiyo jamiyati tashkil etiladi. Bu jamiyatning asosiy maqsadi qadimgi davr yodgorliklari va san'atini o'rganish edi. 1861-yilda A. Kanningxem rahbarlik qilgan Shimoliy Hindiston Arxeologiya qo'mitasi tashkil etiladi. 1872-yilda Hindiston qadimiyotlari nomli jurnal nashr etila boshlanadi. Hindiston, Pokiston va Shri Lankada keng miqyosda arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlanadi. Bu tadqiqot natijalari aks etgan Puratatva, Hind arxeologiyasi, Pokiston arxeologiyasi, Qadimni Nepal, Qadimgi Seylon jurnallari nashr etiladi. Geologik davrlardan biri to'rtlamchi

davrda Hindistonda janubdan shimolga qarab iqlimning o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. So'nggi pleystotsen va golotsen davrida Hindistonda muzlik davrining eng cho'qqiga chiqqan davrini kuzatishimiz mumkin. Olimlarning taxminiiga ko'ra, bundan 10 000 yil burun Hindistonda iqlimning iliqlashishi sodir bo'ladi. Bu iqlimga xos mezofil tabiat shakllanadi. Hindiston hududi tosh davridan boshlab ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirila boshlangan. Hindiston hududidagi dastlabki tosh davri yodgorligi 1863-yilda R.B. Fut tomonidan Madras yaqinidan topilgan. Bu makondan topilgan tosh qurolar tashqi ko'rinishiga ko'ra bodomsimon shaklda bo'lib, fanga madras tosh qurollari nomi ostida kiritilgan. Madras tosh qurollari yordamida ibtidoiy ajdodlarimiz o'zni himoya qilgan, daraxt ildizlarini kovlab olgan, hayvonlarni ov qilgan.

Bu tosh qurollarini tayyorlashda aossiy xom ashyo kvartsit hisoblangan. Madras texnikasini bosqichma-bosqich rivojlanishi Yevropaning shell, ashel va quyi ashel bosqichlariga to'g'ri keladi. Hindistonning shimoliy qismida esa Soan daryosi havzasida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli makon topilgan bo'lib, unning xududidan ko'plab tosh qurollar namunalari topilgan. Bu makon va tosh qurollar olimlar tomonidan fanga Soan madaniyati nomi ostida kiritilgan. Tosh qurollari tayyorlanish texnikasiga ko'ra ilk, o'rta va rivojlangan soan davrlariga tegishli hisoblanadi. bundan tashqari Hindistonning janubida, ya'ni Tungaxadr hududidan aralash holdagi quyi paleolit davri makonlari va tosh qurollari qayd etilgan. Qadimgi Hindiston hududida Homo sapienslarningizlari haqida ma'lumot beruvchi yodgorlik Batadombalen va Shri Lanka orolida Belilen yodgorliklari hisoblanadi. Narmada vodiysida Yavan Xomo Erektusiga yaiqin bo'lgan odamsimon maymunlarning bosh chanog'i qoldiqlari aniqlangan. Fanga ushbu topilma 1985-yilda Homo erectus narmadiensis nomi bilan kiritilgan. Davriy sanasi 236 ming yilni tashkil etadi. Odai joy makonidan esa Homo erectus eki ilk Homo sapienslarga oid bo'lishi mumkin bo'lgan 5 yoshli bolaning tana suyaklari topilgan. Tik yuruvchi ibtidoiy odamlar



pleystotsen davrida Yuqori Pandjobning Potxar platosi va Ravalpindi yaqinidagi Soan daryosi bo'ylarida yashagan bo'lishi mumkin. Shuningdek Hindistonning paleolit davri Soan madaniyati topilmalari Hindiston, Nepal va Pokiston chegaralarida joylashgan Sivalik hududidan ham aniqlangan. Hindiston hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Homo sapiens bundan 75 ming yil avval Janubiy Osiyoga migratsiya qilgan. Hindiston hududida joylashgan Madurai axolisi DNK namunalari tahlili ularning qachonlardir bu hududga migratsiya qilgan Homo sapienslar avlodi ekanligini ko'rsatmoqda. Keyinchalik esa Homo sapienslar butun Janubiy-Sharqiy Osiyo bo'ylab tarqala boshladilar. Bundan 40 ming avval esa Homo sapienslar tomonidan Avstraliya xududi o'zlashtirilgan. Shri Lanka hududidan ham Homo sapienslarga oid tana suyaklari namunalari topilgan bo'lib, ularning davriy sanasi 34 ming yilni tashkil etadi. Hindistonning mezolit davri sanasi miloddan avvalgi 10-4 ming yilliklar bilan belgilanadi. Hindistonning mezolit davri yodgorliklariga Langnadj yodgorligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Hindistonda ham yer yuzining boshqa qismlarida bo'lgani kabi iqlimning o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Bu iqlimga xos flora va fauna dunyosi shakllanadi. Langxnadj yodgorligidan tashqari Radjaston hududidan agor yodgorligi o'rganiladi. Langxnadj yodgorligi mashhur hind olimi X.D. Sankaliya va Bagor yodgorligi esa V.N. Misra tomonidan o'rganiladi. Yodgorliklarning arxeologik jixatdan o'rganilishi natijasida uchta taraqqiyot bosqichi aniqlanadi.

1.3. Janubiy-Sharqiy Osiyoning paleolit davri yodgorliklari Birmadagi ilk Anyat, Indoneziyaning Yava orolida joylashgan Pachitan, Vetnamdagi Shonvi, Malayziyadagi Kota-Tampan va boshqa bir qator yodgorliklarni keltirib o'tishimiz mumkin. O'rta va yuqori paleolit davrida Janubiy-Sharqiy Osiyoning paleolit davri moddiy madaniyati Ko'hna dunyoning boshqa hududlariga nisbatan o'ziga xos taraqqiyot yo'llarini bosib o'tgan. Tosh qurollar indusriyasida makrolitlik saqlanib qolingan. Pachitan

yodgorligi Yava orolining markaziy qismida joylashgan bo'lib, paleolit davri yodgorligi hisoblanadi. Sangiran yodgorligi esa bu Janubiy-Sharqiy Osiyoda mikrolit tosh qurollar ishlab chiqarish texnikasining tarqalganligidan dalolat beradi. Malayziyada joylashgan mashhur Nia g'ori T. Garrison tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu yodgorlikda arxeologik davrlarining ketma-ketligini kuzatishimiz mumkin. Unda topilgan eng qadimgi tosh qurollarining davriy sanasi 39500-yilni tashkil etmoqda. Nia g'or-makonidan topigan Homo sapienslar tegishli tana suyaklari tahlili ularning avstraloid irqiga oid ekanligini ko'rsatmoqda.

1.4. Janubiy-Sharqiy Osiyoda Yer sharining boshqa hududlariga farqli ravishda mezolit davri alohida arxeologik davr sifatida ko'rsatilmaydi. Biz Janubiy-Sharqiy Osiyoda mezoneolit davri madaniyatlarini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni Janubiy-Sharqiy Osiyoda mezolit va neolit davriga oid madaniyatlarning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Janubiy-Sharqiy Osiyoning mezoneolit davri yodgorliklaridan biri Xoabin madaniyatidir. Xoabin madaniyati uchta davriy bosqichga ajratiladi. Ilk, o'rta va quyi Xoabin bosqichlari. Ilk Xoabin davriy sanasi miloddan avvalgi 48-23-ming yilliklar, o'rta Xoabin miloddan avvalgi 23-13-ming yilliklar va quyi Xoban miloddan avvalgi 13-8-ming yilliklar. Ushbu madaniyatning uchta davriy bosqichga bo'linishi arxeolog olim V. Solxeym tomonidan amalga oshirilgan. Mezoneolit madaniyatiga oid navbatdagi yodgorlik Ruxlar g'ori hisoblanadi. Ruxlar g'orining davriy sanasi miloddan avvalgi 12-ming yillikni tashkil etadi.

### 5- mavzu. Nazorat savollari

1. Janubiy-Sharqiy Osiyoning geografik joylashuvi haqida ma'lumot bering.
2. Janubiy-Sharqiy Osiyoning a mezolit davri arxeologik o'rganilishi tarixi haqida ma'lumot bering.
3. Hindiston hududining arxeologik jihatdan o'rganilishi.

4. Hindistonning mezolit davri yodgorliklari haqida ma'lumot bering.

### 5- Mavzu. Test savollari

1. Paleolitning qaysi davr yodgorliklari O'zbekistonda bo'lmagan?
  - A. Ashel davri yodgorliklari
  - B. Muste davri yodgorliklari
  - C. Olduvay davri yodgorliklari
  - D. To'g'ri javob a va s
2. Teshiktosh g'ori nechta qatlamdan iborat?
  - A. 2
  - B. 3
  - C. 4
  - D. 5
3. Obirahmat makoni va Paltov (tangritog' chotqol tizmasidagi) makonidan 10 m qalinlikdagi nechta madaniy qatlam o'rganilgan?
  - A. 18 ta madaniy qatlam
  - B. 21 ta madaniy qatlam
  - C. 20 ta madaniy qatlam
  - D. 10 ta madaniy qatlam
4. Surxondaryoning Zarautsoy darasidan topildi ta'sviriy san'at namunasi qaysi davrga tegishli?
  - A. Paleolit davri
  - B. Mezolit davri
  - C. Neolit davri
  - D. Eneolit davri
5. Tarix fani ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyotini uning sotsial tuzilishlga ko'ra nechtaga ajratiladi
  - A. 1
  - B. 2
  - C. 3
  - D. 4
6. Altamira qachondan boshlab YUNESKO ning umujahon me'rosi obyekti hisoblanadi?

- A. 1985-yildan
  - B. 1900-yildan
  - C. 1950-yildan
  - D. 2000-yildan
7. Mezolit so'zining ma'nosi?
- A. O'rta tosh davri
  - B. Yangi tosh davri
  - C. So'nggi tosh davri
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
8. Azil madaniyatiga oid dastlabki yodgorlik Yevropaning qaysi davlatida aniqlangan?
- A. Fransiya
  - B. Germaniya
  - C. Ispaniya
  - D. Angliya
9. Ressen madaniyati- ?
- A. O'rta neolit davri madaniyati
  - B. Mezolit davri madaniyati
  - C. Eneolit davri madaniyati
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
10. Ibtidoiy irqiy belgilar qachon shakllangan?
- A. Ilk paleolitda
  - B. So'nggi paleolitda
  - C. O'rta paleolitda
  - D. Mezolitda

## 6-MAVZU. YEVROPA MEZOLITI

### Reja:

1. Yevropaning geografik joylashuvi.
2. Yevropa hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi.
3. Yevropa mezolit davrida.
4. Yevropaning mezolit davri yodgorliklari.

**Tayanch iboralar.** Yevropa, Klekton, Madlen madaniyati, Temza daryosi, Fransiya, Ispaniya, Shvettsariya, Belgiya, Germaniya, mikrolit tosh qurollari, Orinbyak madaniyati, Solyutre madaniyati, Fransiyadagi Sona va Luara departamenti, Kromanyon yodgorligi, Grimaldi madaniyati, Lasko-g'ori, Altamira g'ori, G. De Mortile, Klovis madaniyati, Y. Kartile, Mezolit davri, Pinnenburg, Dyuvenzee va Oldesloe tsivilizatsiyalari, Fosna(Fosna), komsa (Komsa) va Askola (Askole)madaniyatlarini.

**1.1.** Yevropa hududi Shimoliy yarim sharda joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 10 mln km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Uning hududi shimoliy muz dengi va Atlantika okeani suvlari bilan yuvilib turadi. Aholisi 740 mln kishini tashkil etadi. Osiyo qit'asi bilan birgalikda Yevrosiyo materigini tashkil etadi. Yevropa hududida joylashgan Klekton-quyi paleolit davrining eng qadimgi yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bundan 550 – 475 ming yillar avval, G'arbiy Yevropa hududida tarqalgan madaniyat hisoblanadi. Ushbu madaniyatga tegishli asosiy topilmalar Temza daryosi havzasidan topib o'rganilgan. Klekton kelib chiqishi Buyuk Britaniyadagi Klekton siti shahri yaqinidagi manzilgoh nomidan kelib chiqqan.

**1.2.** Madlen madaniyati – quyi paleolit davri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyat Fransiya, Ispaniya, Shvettsariya, Belgiya, Germaniya hududlarida keng tarqaladi. Davriy sanasi 15-8-ming-yilliklarni tashkil etadi. Ushbu madaniyat jamoalarida suyakka ishlov berish san'ati yuqori darajada rivojlangan edi. Madlen madaniyati yodgorliklarida mikrolit tosh qurollariga o'tish bosqichi kuzatiladi. Madlen ovchilari, asosan, g'orlarda va teri hamda suyaklardan qurilgan turar joylarda yashashgan. XX asrlarning oxirlarida G'arbiy Yevropa olimlari tomonidan Madlen madaniyatining dabltabki bosqichi sifatida badegulsk mini ajratib ko'rsatadi.

Orinyak madaniyati – quyi paleolitning ilk bosqichiga oid arxeologik manba hisoblanadi. Fransiyaning yuqori Garonna

departamentidagi Orinyak g'orida o'tkazilgan tadqiqotlar orqali, ushbu madaniyatga Orinyak madaniyati nomi berilgan. XX asming boshlarida ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Yevropa hududidan aniqlangan. Orinyak madaniyatiga oid yodgorliklar, asosan, Fransiya hududida keng tarqalgan. Sanasi 33000 – 19000-yillar bilan belgilanadi. Orinyak madaniyati G'arbiy va Markaziy Yevropada keng tarqalgan.

Solyutre madaniyati – quyi paleolit davrining o'rta bosqichiga oid manba hisoblanadi. Ushbu madaniyatga tegishli bo'lgan yodgorliklar asosan Fransiya va shimoliy Ispaniya hududlarida keng tarqalgan. Orinyak va Perigorsk madaniyatlari o'rniga kelgan madaniyat bo'lib, o'z navbatida, u o'z o'rmini Madlen madaniyatiga bo'shatib beradi. Orinyan madaniyatining davriy sanasi miloddan avvalgi 18 – 5- ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu madaniyat dastlab G.Mortile tomonidan XIX asming 60-yillarda aniqlangan va Fransiyadagi Sona va Luara departamenti hududida joylashgan Solyutre manzilgohi nomi bilan bog'liq. Mezolit davrida shimoliy Yevropa xududida ovchilik bilan shug'ullanuvchilar jamoalar madaniyati shakllanadi. Ya'ni bu xo'jalik turi Angliyaning sharqiy viloyatlaridan tortib, toki Estoniya, ayniqsa Bolqonbo'yi hududlarida ravnaq topdi. Miloddan avvalgi 8-ming yillikning o'rtalariga kelib, mezolit davri ovchilari toshlardan boltalar yasab o'rmonlarda daraxtlarni kesishda ulardan foydalanishgan. Ov qurollari asosan toshdan ishlangan. Bunday tosh qurollar farxeologiya fanida mikrolit tosh qurollar nomini olgan. Mezolit davri ovchilari tosh qurollardan nafaqat ov jarayonida, balki harbiy maqsadlarda ham foydalanishgan. 1869-yilda G. D. Mortile paleolit davridan so'ng neolit davri deb hisoblagan. Keyinchalik esa Y. Kartile G.D. Mortile fikrlarini tahlil etgan holda shunday xulosaga keldiki, paleolit va neolit o'rtasida xiatus mavjud bo'lsa, u holda Yevropa mintaqasi uzoq davriy vaqt davomida insoniyat tomonidan o'zlashtirilmagan. Biroq bu davrga kelib, bu bo'shliqni to'ldirish imkoniyatini beruvchi bir qancha dalillar qo'lga kiritiladi. 70-yillarning oxirlariga kelib esa shved

olimi Torell paleolit davridan neolit davriga o'tish bosqichini "mezolit" ya'ni "o'rta tosh" davri deb nomlaydi.

1.3. Yevropaning mezolit davri miloddan avvalgi 9-6-ming yilliklar bilan davrlanadi. Yevropada ham mezolit davri buyuk muzliklarining chekinishi va hozirgi zamon iqlimiga o'zgarishi davriga to'g'ri keladi. Muzliklarning chekinishi natijasida iqlim va o'simliklar dunyosi o'zgarib ketadi. Muzlik davrining so'ngi bosqichida Yevropa shimolining katta qismida to'g'risimon o'simliklar hukmronlik qilar edi. Asta – sekinlik bilan muzliklar shimolga tamon chekinadi va hozirgi kunda mavjud bo'lgan boltiq dengizi poydo bo'ladi. muzlik davrining tugashi bilan Janubiy va Markaziy Yevropada shimol kiyigi yo'qoladi ovchilarning asosiy ov manbasi bo'lib bug'ular va boshqa hayvonlar qoladi. Muzlik davri ovchilarining turar joylari engil tipdagi manzilgoh edi. Yevropada qo'lga o'rgatilgan hayvon bu it hisoblanadi. Yevropaning turli hududlarida mezolit davrida madaniyatlarining kechishi har xil bo'lgan. Shimoliy Yevropa mezoliti Yevropa mintaqasining O'rta Yer dengizi va Atlantika havzalari qismlaridan ancha farq qiladi. Muzlik erishi bilan evropa hududidagi yashagan ibtidoiy ajdodlarimiz bug'ular izidan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yangi yerlarni o'zlashtira boshlaganlar. Ibtidoiy ajdodlarimiz shimoliy tomonga siljishi natijasida bu erlar Gamburg, Feder messer, Orenburg kabi madaniyatlarga asos soladi.

1.4 Germaniyaning shimolidagi mezolit davri madaniyatlariga boltalar madaniyati nomi berilgan ushbu madaniyatning asosiy yodgorliklari Pinnenburg, Dyuvenzee va Oldesloe tsivilizatsiyalari hududlaridan topib o'rganilgan. Masalan: Pinnenburg qishlog'ida o'tkazilgan qazuv ishlari natijasida bir nechta manzilgohlar, qabrlar va o'choq qoldiqlari aniqlangan.

Shimoliy Skandinaviyaning mezolit davri madaniyatlari Fosna(Fosna), komsa (Komsa) va Askola (Askole)madaniyatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Komsa madaniyati Norvegiyaning (Finmarker) shimoliy qismida, Finlandiyaning shimoliy qismida Skandinaviya yarim oroligacha bo'lgan

hudularda keng tarqalgan. Fanda 100 dan ortiq manzilgohlar ma'lum bo'lib, ulardan, asosan, toshdan ishlangan qirindilar namunalari topilgan.

Finlandiyada komsa madaniyati bilan bir vaqtda askola madaniyati mavjud bo'lgan (unga tegishli manzilgohlar Askola viloyati, Porvan – Yoki yaqinidan topib o'rganilgan) ov qurollari asosan kvartsitdan ishlangan. Ushbu ikkala madaniyat ham miloddan avvalgi VIII ming yilliklar bilan belgilanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu madaniyat yodgorliklariga o'xshash. Ehtimolki, ularning paydo bo'lishi ajdodlarimizning shimol bug'isi izidan shimol tomonga ko'chishi natijasida paydo bo'ladi. Fosna madaniyati Norvegiyaning g'arbiy qirg'oq bo'yi hududida tarqalgan. Ushbu madaniyatning fosna nomi bilan atalishi shahri nomi bilan bog'liq.

Finlandiyaning so'nggi mezolit davri madaniyatlar arxeologiya fanida suomusyarvi nomi bilan ma'lumdir. Ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Finlandiyaning janubiy qismida topib o'rganilgan. Ushbu madaniyat kareliil hududida ham keng tarqalgan. Bu madaniyatning so'ngi bosqichi neolit davriga xos bo'lsa-da, aholisi sopol buyumlar bilan tanish bo'lishmagan. Bu madaniyatning kelib chiqishi borasida ham bir nechta nuqtai nazarlar mavjud. Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra Finlandiya ko'rfazining janubiy qirg'oqlari hududlaridan ko'chib aholi bilan bog'lansa, ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra esa, askola madaniyatining so'ngi bosqichi bilan belgilanadi. Yevropaning eng qadimgi madaniyatlaridan biri bu maglemoze madaniyatidir. Maglemoze deb nomlanishi esa Zelandiyadagi Muleruxa shahri nomi bilan bog'liq. Bu yyerda 1900-yilda o'tkazilgan qazishmalar jarayonida qadimgi qishloq izlari topib o'rganilgan. Ushbu madaniyat Angliyadan Boltiqbo'yigacha, janubiy Norvegiyadan Pikardiyagacha boshlgan hududlarda keng tarqalgan. Ushbu madaniyatlarining eng asosiy yodgorliklari Zerlandiya oroli joylashgan Xolmgard va Sverdborg; Angliyadagi – Broksbern; Killing – Xit; Nyubyuri; Germaniyadagi – Kalbe; Dyubbartin; Dyukenzee; Shvetsariyadagi – Istabi; Omossen; Sandarna



yodgorliklari hisoblanadi. Skandinaviya hududida maslemize madaniyati o'rniga Konimoze madaniyati keladi.

Azil yodgorligi Ispaniyaning shimoli va Fransiyaning janubidagi Solyutre davri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyatga oid yodgorliklar Fransiya Pireniyasi hududlaridan topilgan. Azil madaniyatini Yevropaning boshqa ilk mezolit davri yodgorliklari Tyongersk va Svidersk madaniyatlari bilan bir vaqtda mavjud bo'lgan.

### 6- mavzu. Nazorat savollari

1. Yevropada mezolit davri.
2. Yevropaning mezolit davri yodgorliklari va madaniyatlari.
3. Yevropaning mezolit davri qoyatosh suratlari.
4. Mezolit davri qoyatosh suratlarida ibtidoiy ajdodlarimiz dunyo qarashining tasvirlanishi.
5. Yevropa eng qadimgi odamlarning paydo bo'lishi.
6. Mezolit qoyatosh suratlarida tasvirlangan obrazlar.
7. Villafrank faunasiga ta'rif bering.
8. San-Valbe yodgorligi haqida ma'lumot bering.
9. Yevropada Homo antecessor.

### 6- mavzu. Test savollari

1. Mikrolit tosh qurollar qaysi davrida tarqaladi?

- A. Paleolit
- B. Mezolit
- C. Neolit
- D. Eneolit

2. Ishlab chiqarish xo'jaligining qachon shakllangan?

- A. Paleolit
- B. Mezolit
- C. Neolit
- D. Bronza

3. Zagros madaniy birligi yodgorligi qaysi davrga oid?

- A. Mezolit
- B. Neolit
- C. Paleolit
- D. Bronza

4. Zagros madaniy birligi yodgorligining ikkinchi nomi?

- A. Ierixon
- B. Kebara
- C. Jarmo
- D. Natufiy

5. Belbashi madaniyati qaysi davrga oid?

- A. Mezolit
- B. Neolit
- C. Eneolit
- D. Paleolit

6. O'rtta tosh davri davri qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?

- A. Mil. avv 25-12-ming yilliklarni
- B. Mil. avv 12-7-ming yilliklarni
- C. Mil. avv 6-4-ming yilliklarni
- D. Mil. avv 20-10-ming yilliklarni

7. Mezolit davrining muhim kashfiyoti?

- A. O'q yoyning kashf etilishi
- B. Xunarmandchilikning kashf etilishi
- C. Keramika
- D. Axolining turar joylarining qurilishi

8. O'q-yoy qachon kashf etilgan ?

- A. Mezolit
- B. Neolit
- C. Bronza
- D. Ilk temir davrida

9. Zevi-Chemi-Shanidar makoni qaysi davrga oid?

- A. Mezolit
- B. Bronza

C. Pleystotsen

D. Ilu o' rta asrlar

10. Muraybit makoni davriy sanasini ko'rsating?

A. mil. av. IX-VII m. y. - VIII m. y. boshlari

B. mil. av. X-VIII m. y. - VIII m. y. boshlari

C. mil. av. IX-VIII m. y. - VIII m. y. boshlari

D. mil. av. IX-VI m. y. - VII m. y. boshlari

## GLOSSARIY

1. **Olduvay, ashel, muste va so'nggi paleolit** - Paleolit davri bosqichlari.
2. **Klekton madaniyati** - mil avv. 550-47- ming yilliklarda Yevropaning quyi paleolit davri madaniyati.
3. **Madlen madaniyati** - Fransiya, Ispaniya, Shveysariya, Belgiya, Germaniya hududlarida keng tarqalgan paleolit davri madaniyati.
4. **Orinyak** - Fransiyaning (Yuqori Garonna departamentidagi) Orinyak (Aurignac) g'ori.
5. **Solyutre madaniyati** - (Solutre, Fransiyadagi Sona va Luara departamenti) madaniyati
6. **Altamira** - Ispaniyadagi yuqori paleolit davri yodgorligi. Lasko yoki Lyasko g'ori (fr. *Grotte de Lascaux*).
7. **Tardenuaz madaniyati** - G'arbiy Yevropaning miloddan avvalgi VII-IV ming yilliklar mezolit davri madaniyati.
8. **Kongemoze madaniyati (mil. avv. 6000-5200-ming yilliklar)** - Skandinaviyaning janubidagi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar madaniyati.
9. **Nea-Nikomediya** - Yevropaning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalarning dastlabki madaniyati.
10. **Xomo sapiens** - Yuqori paleolit davrida yashagan ibtidoiy ajdodimiz.
11. **Ryossen** - Markaziy Yevropaning miloddan avvalgi 4600-4300 ming yillarga oid o'rta neolit davri madaniyati.
12. **Mixelsberg madaniyati (nem. Michelsberger Kultur (MK))** - Markaziy Yevropaning neolit davri madaniyati.
13. **Kiklad tsivilizatsiyasi** - Yevropaning bronza davri madaniyati.
14. **Neyxeyzel** - O'rta Reyn yodgorligi.
15. **Geyneburg Yuqori Dunay** - yodgorligi.
16. **Goxmixel** - mozor qo'rg'oni.
17. **La Ten** - Fransiya, Shveysariya, Ispaniya, Irlandiya, Britaniya. Shveysariyadagi yodgorligi.
18. **Soan** - Hindiston xududida tarqalgan paleolit davri madaniyati.
19. **Kulbuloq yodgorligi** - O'zbekiston tosh davri yodgorligi.
20. **Selung'ur** - O'zbekiston tosh davri yodgorligi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Potts.D.T. A companion to the archaeology of the ancient Near East. West Sussex, PO19 8SQ, UK.
2. Lawrence Guy Straus., Berit Valentin Eriksen., Jon Erlandson., David R. Yesner. Humans at the End of the Ice Age: The Archaeology of the PleistoceneHolocene Transition. 1996. New York.
3. Martin Hall, Stephen W. Silliman. Historical archaeology. UK. 2006.
- A. Robers. Evolution: The Human story. New York. 2011.
4. Anati E. Les origines de l'art et la formation de l'esprit humain. Paris, 1989.
5. David McDowall. An illustrated history of Britain. UK.2006.
6. Ian Shaw, Rober Jameson. A Dictionary of Archaeology.UK.1999
7. А.Л. Монгайт. Археология Западной Европы. Наука. Москва.1973
8. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечество М. 1980.
9. Борисковский П.И. Григорьев Г.П. Палеолит Африки. Ленинград. 1977.
- 10.Коробков И.И. Ранов В.А. Палеолит Ближнего и Среднего Востока . Ленинград 1978.
- 11.Борисковский П.И. Каменный век южной и юга – Восточная Азии Ленинград. 1971
- 12.Деревянко А.П. Каменный век Северной Восточной центральной Азии. Новосибирск 1975
- 13.Елинек Я. Большой иллюстрированный атлас первобытного человека. Артия Прага. 1982

Soʻz boshi .....	3
------------------	---

## **I BOB. ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR TARIXI VA ANTROPOGENEZ JARAYONI**

1. Arxeologik tadqiqotlar tarixidan .....	5
2. Pleystotsen davri ekologiyasi .....	14
3. Insoniyatning paydo boʻlishi va qadimiy gominidlar .....	21
<b>II BOB PALEOLIT DAVRI ARXEOLOGIIYASI</b>	
1. Afrika paleoliti .....	33
2. Yaqin va Oʻrta Sharq paleoliti .....	47
4. MDH hududlaridagi paleolit davri yodgorliklari .....	55
<b>III BOB. MEZOLIT DAVRI ARXEOLOGIIYASI</b>	
1. Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo paleolit va mezolit davrida .....	66
2. Uzoq Sharq paleolit va mezolit davrida .....	73
3. Paleolit va mezolit davri sanʼati .....	82
4. Oʻrta Osiyo mezolit davrida .....	90
5. Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo mezolit davrida .....	98
6. Yevropa mezoliti .....	105
Glossariy .....	113
Foydalanilgan adabiyotlar .....	114

**J. T. ANNAYEV**

# **JAHON ARXEOLGIYASI**

*O'quv qo'llanma*

**Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020**

*Muharrir: F. Xolsaidov*

*Texnik muharrir: Q. Mamiraliyev*

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.*

*Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.*

*"Times New Roman" garniturasini.*

*Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 8. Nashr bosma tabog'i 7,25.*

*Adadi 150 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.*

*Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.*

ISBN 978-9943-6793-6-8



9 789943 679368